


INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI



**VOLUME 4
ISSUE 2
2025**

*Exact sciences
Natural sciences
Medical sciences
Technical sciences
Economic sciences
Pedagogical sciences
Philological sciences
Philosophical sciences
Humanitarian sciences*

ISSN (E) 2181-2993



www.birunijournal.uz

www.birunijournal.uz



International Scientific Journal of Biruni

№ 4 (2)
2025

AUGUST
&
DECEMBER



“**International scientific journal of Biruni**”. Ilmiy maqolalar to’plami. O‘zbekiston:
www.birunijournal.uz. 2025. - 247 b.

ISSN 2181-2993

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Adilbekova, D.B. - t.f.d., professor
(O'zbekiston)

Pulatov, Sh.N. – PhD., dotsent
(O'zbekiston)

TAHRIR KENGASHI:**FALSAFA FANLARI:**

Huseynov, Sakit – Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi falsafa va sotsiologiya instituti professori, fal.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Jurayev Sh.S. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. PhD.

FILOLOGIYA FANLARI:

Sayilov, Qalib – Turkiy Jahon Fanlar Akademiyasi direktorlar kengashi raisi, Fil.f.d., prof. (Ozarbayjon)

IJTIMOIIY FANLAR:

Manzarov, Y.X. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti dotsenti, t.f.n., dots.

PEDAGOGIKA FANLARI:

Jumayeva, G.T. – Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD.

HUQUQ FANLARI:

Sharaxmetova, U.Sh. – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, h.f.n., prof.

IQTISODIYOT FANLARI:

Rahimov, A.M. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, PhD.

ANIQ FANLAR:

Metin, Orbay – Amasya universiteti professori, fiz.mat.f.d., prof. (Turkiya)

Kuramboev, Y. – TTA Termiz filiali dotsenti, t.f.d., dots.

Aliqulov, T.A. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, f.m.f.n., dots.

Batirov, Z.L. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, t.f.d. (DSc), dots.

Eshmatov, B.E. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, f.m.f.n., dots.

Bozorov, O.N. – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori, tex.f.n., dots.

Ochilov, Sh.A. – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD., dots.

TEXNIKA FANLARI:

Usmanov, R.M. – Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.,

Haydarov, S.S. – Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, PhD.,

TIBBIYOT FANLARI:

Ibragimov, A.J. – Termiz davlat universiteti O'quv metodik boshqarma boshlig'i, b.f.n., dots.

KVALITOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA'LIMDA TA'LIM SIFATI VA MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Akram Jo'rayev Namozovich

Termiz davlat universiteti

Tarix fakulteti "Falsafa" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kvalitologik yondashuv asosida oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va mazmunini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari o'rganilgan. Xususan, kvalitologiya yondashuvining mazmuni pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil etilgan hamda ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: "Kvalitologiya", "ta'lim sifati", "kvalitologik yondashuv", "ko'nikma", "metod", "funktional", "kompetensiya", "ilmiy-metodik", "innovatsion ta'lim", "texnologik", "interaktiv", "integratsiya", "malakala".

ABSTRACT

This article studies the scientific and methodological foundations of improving the quality and content of education in the higher education system based on the qualitative approach. In particular, the content of the qualitative approach is analyzed from a pedagogical point of view and the possibilities of its integration into the educational process are highlighted.

Keywords: "Qualitology", "educational quality", "qualitative approach", "skill", "method", "functional", "competence", "scientific and methodological", "innovative education", "technological", "interactive", "integration", "skill".

KIRISH (INTRODUCTION)

So'nggi yillarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga doir konseptual izlanishlar jarayonida kvalitologik yondashuv alohida e'tiborni tortmoqda. Bu yondashuvning asosida ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini – maqsad, mazmun, metod va natijalarni sifat mezonlari asosida baholash va takomillashtirish tamoyili yotadi. Kvalitologik yondashuv, avvalo, o'quv jarayonining funktsional yaxlitligini ta'minlash, bilimlarni chuqur o'zlashtirish, kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiluvchi ta'limiy muhitni yaratishga qaratilgan. U pedagogik faoliyatda sifatni aniqlash, uni boshqarish hamda rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ushbu maqolada ta'limning maqsadi, mazmuni, usullari va bilim mohiyati **kvalitologik yondashuv** asosida tahlil qilinadi.

Kvalitologik yondashuvda ta'lim sifati nafaqat yakuniy natijalar bilan, balki o'quv jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilayotgan vositalar, metodlar va didaktik resurslarning samaradorligi bilan baholanadi. Ayniqsa, mazmun va metod o'rtasidagi uyg'unlik, talaba faoliyatining faolligi va professor-o'qituvchining sifatli pedagogik interaksivasi muhim omillar sirasiga kiradi. Kvalitologik nuqtai nazardan qaraganda, har bir ta'lim komponenti o'zining aniq sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Bu esa, ta'lim tizimida doimiy monitoring, tahlil va takomillashtirish mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi. Kvalitologik yondashuv ayni paytda o'quv jarayonining texnologik jihatlarini ham qamrab olib, unda innovatsion metodlar va interaktiv uslublarning samarali integratsiyasiga urg'u beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ushbu maqolani tayyorlashda pedagoglardan A.B.Трет'яков, I.G.Subetto, И.Я.Лернер, O.Roziqov, S.Og'aeв, M.Mahmudova, B.Adizov, O.Q.To'xtayev, A.Hojiev, M.Alimova, asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalarga tayanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Kvalitologiya - bu inson tomonidan yaratilgan obyektlar va jarayonlarning sifati haqidagi fan. "Kvalitologiya" atamasi XX asrning 60-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan¹. "Sifat" obyekt sifatida, ko'plab fanlar tomonidan o'rganiladi, ammo ularning obyektlari individual xususiyatlar yoki xususiyatlar majmui.

Har bir yangi avlod hayotga qadam qo'yar ekan, ajdodlarining bilim va tajribalarini o'zlashtiradi hamda mazkur bilimlar asosida yangilarini hosil qiladi. Ta'lim maqsadi bilan bog'liq ravishda talaba o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hajmi va tabiati ijtimoiy zarurat bilan belgilanadi hamda ta'lim oluvchining ehtiyoj va imkoniyatlari bilan muvofiqlashtiriladi. Talabaga bilim berishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uni mustaqil faoliyatga yo'llash, hamda eng zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iboratdir.

Pedagogik adabiyotlarda "ta'lim", "ta'lim mazmuni", "ta'lim maqsadi" tushunchalari turlicha talqin qilinadi. "Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi"².

Shuningdek, kishilik jamiyatida ta'lim mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida professor-o'qituvchi va talaba zimmasiga yuklangan o'qitish, o'qish, rivojlantirish jarayoni bilan belgilanuvchi vazifadir. Bu tor ma'noda ta'limning o'qitish tushunchasini anglatishini ifodalaydi. Keng ma'noda ta'lim jamiyatning barcha sohalarida ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

¹ Трет'яков А.В. **Основы квалитологии**. — Москва: Издательство стандартов, 1996. — Б. 5–10

² То'xtayev О.Қ. *Pedagogika: Darslik*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 24.

Talaba faoliyati tufayli ta'lim jamiyat tomonidan puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida amalga oshiradigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Ma'lumki, ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi.

Barcha zamonlarda ham ta'limning maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblangan. Ta'limning maqsadi jamiyat amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadi jamiyatning universitet oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasiga ko'ra belgilanadi.

Ta'limning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzumga muvofiq fan, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy hayot taraqqiyoti asosida tarixan o'zgarib borishi bilan birga oliy ta'lim universitetlarida o'qitishning didaktik tavsifini ham belgilaydi. Ta'limning maqsadi o'qitishning ma'lum maqsadga qaratilganligi va unga muvofiq kelishini o'zida aks ettirgan, ta'limning ijtimoiy xususiyati, jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib beradigan, uning yo'nalishi, mazmuni, shakl va usullarini belgilab beradigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, avvalo, sifatga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, **kvalitologiya** oliy ta'limda nafaqat yakuniy natijalarni, balki ta'limning barcha bosqichlarida sifatni doimiy ravishda baholab borish mexanizmlarini shakllantiradi. Bu esa dars jarayonlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, ta'lim resurslarining amaldagi holatini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ta'lim maqsadi jamiyat taraqqiyoti, ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida ta'lim oluvchi, jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan, ikki sub'ekt – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini uyg'unlashtiruvchi ijtimoiy-pedagogik omildir³. Shu bilan bir qatorda ta'lim maqsadi ta'lim mazmuni, o'quv materiallari, vositalari va uning samaradorligini belgilaydi.

Zamonaviy ta'limda "sifat" tushunchasini aniq va tizimli baholash zarurati tufayli, bu jarayonda aynan *kvalitologik yondashuv* asosiy metodologik asos sifatida namoyon bo'lmoqda

Ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash natijasida shaxs, davlat va jamiyat, fan, texnika, texnologiyalar hamda ishlab chiqarishni samarali rivojlantirish uchun ijtimoiy resurs, imkoniyat vujudga keladi.

³ Xoliqulov H. *Ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning nazariy asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2020. – B. 45.

Kvalitologik yondashuv asosida tuzilgan ta'lim mazmuni orqali talabalar uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimli va uzviy tarzda shakllantiriladi. **Kvalitologiya** bu borada nafaqat o'quv dasturlarining sifati va mazmuniy to'liqligini baholash, balki talabalarni kasbiy va ijtimoiy jihatdan tayyorlashda natijadorlikni aniqlash mezonlarini ham taklif etadi. Bu esa ta'lim sifati ustidan tizimli monitoring olib borishga, o'quv jarayonining har bir bosqichini takomillashtirishga zamin yaratadi.

Bilim talaba uchun jamiyatning ma'lum taraqqiyot bosqichida zaruriy ko'nikma va malakalarni hosil qilish uchun muhimdir. Talabada hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar o'quv-biluv jarayonining natijasi sifatida namoyon bo'lishi lozim. Ta'lim mazmuni talabada ijtimoiy jihatdan hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish vositasidir. Bilimlar bilish faoliyatining oxirgi mahsuli emas, balki har qanday bilim ta'lim oluvchi shaxsini jamiyat belgilagan ijtimoiy zarurat talablari asosida g'ayratga undagan taqdirdagina qimmatlidir.

Kvalitologik nuqtai nazardan, bilimlar sifati ularni egallashdagi chuqurlik, amaliy qo'llash imkoniyati va shaxsiy rivojlanishga qo'shgan hissasi bilan baholanadi. Ta'lim mazmuni ta'lim oluvchida hosil qilinishi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan bog'liq bo'lganligi, bu masala didaktikada turlicha talqin etilishi sababli dastlab mana shu ikki tushuncha ustida to'xtalamiz:

Shaxsda jamiyatda ma'lum bir o'rin tutish uchun zarur bo'lgan malaka hamda ko'nikmalar hosil qilish vositasi va bular esa, ko'rib o'tganimizdek, bilimni qaysi usulda talabada hosil qilish bilan uzviy bog'liqdir.

Malaka - muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat. Odatda biron ish jarayonida harakatlar anglanilgan va anglanilmagan tarzda amalga oshiriladi. Malaka avtomatlashgan harakat ifodasidir⁴.

O'zbek tilining izohli lug'atida ko'nikma so'zi mahorat, malaka so'zlari bilan, malaka so'zi esa mahorat so'zi bilan sinonim tarzida beriladi⁵. Fikrimiz dalilini chuqurroq tahlil qilish maqsadida A.Hojiev tomonidan tuzilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"ni ko'zdan kechiramiz. Lug'atda "ko'nikmoq", "ko'nikma" so'zlarining ma'nodoshlari sifatida odat hosil qilmoq, odatlanmoq, o'rganmoq so'zlari⁶ keltiriladi.

Ta'lim usullari ilmiy bo'lishi, talabaga ta'lim berishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadga erishilishi, shaxs rivojlanishining psixologik-pedagogik imkoniyatlariga

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – B. 312.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1–5 jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 3-jild, B. 215–216.

⁶ Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 150–151.

muvofoiq kelishi, ommabop bo'lishi, o'quv materialini izchil egallashga qaratilishi va pedagogika fani yutuqlari asosida yangilanib, takomillashib borishi zarurdir. Barcha fanlar uchun umumiy hisoblangan tashqi qiyoslash, moddiy hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, mavhumlikdan aniqlikka qarab borish kabi usullarning har biridan turlicha foydalaniladi. Hozirgi vaqtda rivojlangan ko'pgina fanlar, odatda, voqelikning biror qirrasini shunchaki aks ettirib qolmasdan, balki muayyan maqsadga muvofiq ravishda shu voqelikni ifodalaydi. Bu hol bilish, ayniqsa, o'qitish usullarini yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Ta'lim usuli ta'lim mazmunining namoyon bo'lish shakli bo'lgani bois, u pedagogik adabiyotlarda, didaktik yondashuvlarda va metodik tavsiyalarda keng muhokama etiladi. Ma'lumki, didaktik jarayon talabaga bilim berish, uni ijodiy faoliyatga yo'llash, unda muayyan ko'nikma va malaka hosil qilish, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik hamda ijodiy yondashishni o'rgatish, xilma-xil yo'l, usul hamda vositalardan foydalanishni talab qiladi.

Ta'lim mazmuni har bir o'quv predmeti bo'yicha jamiyatda amalda bo'lgan o'quv dasturida o'z aksini to'liq topadi. Ta'lim usuli esa, metodik qo'llanmada yoritib beriladi. Dasturning tushuntirish xatida muayyan o'quv fani mazmunini talabalarga yetkazish uchun foydalaniladigan usullar haqida ma'lumotlar bayon qilinadi. Chunki ta'lim usuli talabaga dasturda nazarda tutilgan bilimni qanday yetkazib berishga imkoniyat yaratib berishi lozim. Bu usuldan, ko'pincha, ta'lim usullari me'yorlashgan, keng ommalashgan hollarda foydalaniladi.

Islahotlar davrida ta'lim maqsadi, mazmuni jumladan, berilishi loyihalashtirilgan bilimlar hajmi, miqdori, sifati, pragmatik ahamiyati o'zgarganda o'qitish usullari ham o'zgarishi, yangilanishi tabiiydir. Lekin o'qitish usullarini yangilash, yangi ularni qo'llash, ommalashtirish ta'lim maqsadi va mazmunini yangilash hamda ommalashtirishdan ancha murakkab, chunki bu, birinchidan, ko'p ming kishilik professor-o'qituvchilar ommasining kasbiy ko'nikmalari va ta'lim vositalari bilan bog'liq. Darslik va o'quv topshiriqlari yangilangan paytda ham professor-o'qituvchining darsni eskicha, ta'lim mazmuni va o'quv materialiga mos kelmaydigan usullarda tashkil etayotganligi va o'tkazayotganligiga kuzatishlarimiz natijasida guvoh bo'ldik.

Ta'lim maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida hukumat qaror, buyruq va ko'rsatmalari bilan ta'lim mazmuni, uni o'zida ifodalagan o'quv vositalari ta'lim maqsadiga muvofiq ravishda mutaxassislar tomonidan tanlanadi. Bu esa o'quv-biluv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni taqozo qiladi. Muayyan o'quv predmetidan tuziladigan darslik yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Zeroki, o'quv dasturi asosida tuzilgan darslik ta'lim

mazmunini aks ettiruvchi o'quv materiali, uning talaba tomonidan o'zlashtirilish usullari, talaba va professor-o'qituvchi uchun zarur hisoblangan tahlil, umumlashtirish uchun material, o'quv materiallari mazmunini uyg'unlashtiruvchi qonuniyatlarni o'z ichiga oladi. Darslik – ta'lim oluvchi uchun ma'lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko'nikma, odatlarni o'ziga singdirish uchun o'rganiladigan manba. Ammo faqat darslik bilan ishlash tom ma'nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Kvalitologiya oliy ta'lim tizimida ta'lim mazmunini ilmiy asosda rejalashtirish, o'quv jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish hamda sifatni boshqarish mexanizmlarini joriy qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuv asosida oliy ta'limda nafaqat bilim berish sifati, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoni ham tizimli ravishda nazorat qilinadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining sifatga yo'naltirilgan taraqqiyotiga xizmat qiladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, kvalitologik yondashuv oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, mazmunini ilmiy asosda takomillashtirish hamda o'quv jarayonlarini tizimli tashkil etishda muhim metodologik asos sifatida maydonga chiqmoqda. Bu yondashuv orqali o'quv rejalarining moslashuvchanligi, o'quv fanlarining zamonaviy talablarga muvofiqligi va talabalarning kasbiy ehtiyojlariga yo'naltirilganligi ta'minlanadi. Oliy ta'limda ta'lim sifati nafaqat bilimlarning hajmi bilan, balki ularning amaliyot bilan integratsiyalashuv darajasi, talabaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi samaradorligi bilan baholanadi.

Kvalitologik yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalash va boshqarish, talabaning ilmiy-amaliy kompetensiyalarini shakllantirish, professor-o'qituvchilarning faoliyatini sifat jihatidan tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvda sifat doimiy nazorat va tahlil obyektiga aylantiriladi, bu esa o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshiradi. Kvalitologiya ta'limning barcha bosqichlarida uzluksizlik va izchillik tamoyillariga tayanadi, bu esa oliy ta'limda sifatni boshqarish tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, kvalitologik yondashuv oliy ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishda strategik nazariy-amaliy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. U zamonaviy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va innovatsion fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunining asosiy tayanchlaridan biriga aylanmoqda. Oliy ta'lim tizimi uchun kvalitologik yondashuv nafaqat ta'lim sifatini belgilash, balki uning rivojlanish sur'atlarini tahlil qilish va boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi*. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – B. 312.
2. Xoliqulov H. *Ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning nazariy asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2020. – B. 45.
3. Трет’яков А.В. **ОСНОВЫ КВАЛИТОЛОГИИ**. — Москва: Издательство стандартов, 1996. — Б. 5–10.
4. То‘xtayev O. Q. *Pedagogika: Darslik*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 24
5. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 1–5 jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 3-jild, B. 215–216.
6. Hojiev A. *O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati*. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 150–151.

YAQIN VA O'RTA SHARQDAGI XALQARO MUNOSABATLAR HAMDA GEOSIYOSIY TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Azbergenov Sharaf
TDSHU tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yaqin va O'rta Sharq mintaqasidagi xalqaro munosabatlar tizimi va u yerda yuz berayotgan geosiyosiy transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Mintaqadagi asosiy geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi raqobat, tashqi davlatlarning strategik manfaatlari, tabiiy resurslar uchun kurash, diniy va etnik mojarolar, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Yaqin Sharq, xalqaro munosabatlar, geosiyosiy transformatsiya, energetika, xavfsizlik.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно анализируются система международных отношений и процессы геополитических трансформаций на Ближнем и Среднем Востоке. Рассматриваются соперничество между основными геополитическими центрами, стратегические интересы внешних государств, борьба за природные ресурсы, религиозные и этнические конфликты, а также вопросы региональной безопасности.

Ключевые слова: *Ближний Восток, международные отношения, геополитическая трансформация, энергетика, безопасность.*

ABSTRACT

This article provides a thorough analysis of the international relations system and the ongoing geopolitical transformation processes in the Near and Middle East. It examines the rivalry among major geopolitical powers, strategic interests of external actors, competition for natural resources, religious and ethnic conflicts, and regional security issues.

Keywords: *Middle East, international relations, geopolitical transformation, energy, security.*

KIRISH

Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi global siyosatda strategik ahamiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Bu mintaqa tabiiy resurslarga, ayniqsa neft va gazga boyligi, diniy markazlarining mavjudligi va geografik joylashuvi sababli doimo yirik davlatlar e'tiborida bo'lib kelgan.

Mintaqaning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni uning doimiy beqarorlik holatlari, qurolli mojarolari va tashqi kuchlarning aralashuvi bilan belgilanadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda bu hududda yuzaga kelgan geosiyosiy transformatsiyalar mintaqadagi siyosiy manzara, kuchlar muvozanati va diplomatik munosabatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqola ana shu murakkab jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida tahlil yuritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yaqin Sharqdagi xalqaro munosabatlar tarixiy jihatdan mustamlakachilik davridan boshlangan bo‘lib, XIX-XX asrlarda Britaniya va Fransiya bu hududda o‘z mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng esa mintaqada AQSh va Sovet Ittifoqining geosiyosiy raqobati kuchaydi. Ayniqsa, neft resurslari uchun bo‘lgan kurash siyosiy faollikni oshirdi.

1991-yildan so‘ng, ya‘ni Sovet Ittifoqi qulagach, AQSh mintaqadagi eng asosiy tashqi kuchga aylandi. Iroqdagi harbiy intervensiyalar va Afg‘onistondagi siyosiy islohotlar aynan shu kontekstda ko‘riladi.

Arab bahori jarayonlari 2010-yillardan boshlab mintaqada yangi siyosiy muhitni yuzaga keltirdi. Tunisdan boshlangan noroziliklar to‘lqini Misr, Liviya, Suriya, Bahrayn va Yamanga ham tarqaldi. Eron va Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi raqobat diniy tafovutlar asosida shakllangan bo‘lib, bu nizo Suriyada, Yaqinda esa Yamanda ochiq ifoda etildi.

Isroil va Falastin o‘rtasidagi mojarolar esa o‘n yillab davom etayotgan inqirozli vaziyatni namoyon etadi. BMT rezolyutsiyalariga qaramay, ikki davlat o‘rtasidagi murosaga kelishilmagan. Rossiyaning Suriyadagi harbiy aralashuvi va Asad rejimini qo‘llab-quvvatlashi esa G‘arb bilan qarama-qarshilikni yanada kuchaytirdi.

Suriya inqirozi xalqaro maydonda turli kuchlarning keskin qarama-qarshiligini yuzaga chiqardi. AQSh, Turkiya, Eron va Rossiya turli guruhlarini qo‘llab-quvvatlab, mintaqada o‘z manfaatlarini ilgari surdi. Bu esa Suriya ichki mojarosini xalqaro raqobat maydoniga aylantirdi.

Iroqdagi beqarorlik esa hamon hal etilmagan geosiyosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. AQShning harbiy ishtirokidan so‘ng, Eronning siyosiy va diniy ta‘siri kuchaygan. Natijada Iroq ichida ham kuchlar muvozanati izdan chiqqan.

Yaman urushi Saudiya Arabistoni boshchiligidagi arab koalitsiyasi va shialar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan Husi guruhlarini o‘rtasidagi qurolli mojaroga aylangan. Bu nizo mintaqadagi eng yirik gumanitar inqirozlardan birini keltirib chiqardi.

Islom dunyosidagi siyosiy liderlik masalasi ham Yaqin Sharqdagi geosiyosiy raqobatning muhim jihatlaridan biridir. Saudiya Arabistoni o‘zini sunniy dunyoning lideri sifatida ko‘rsa, Eron shia ideologiyasi asosida mintaqaviy liderlikka intiladi.

Xitoy mazkur mintaqalarda o‘zining ‘Bir kamar – bir yo‘l’ tashabbusi orqali iqtisodiy ta‘sirini kengaytirishga harakat qilmoqda. Mintaqadagi harbiy bazalar tarmog‘i orqali Qo‘shma Shtatlar nafaqat xavfsizlik, balki energetika xatarlarini ham boshqarmoqda, desak also mubolag‘a bo‘lmaydi.

Energiya resurslari uchun bo‘lgan raqobat nafaqat iqtisodiy, balki harbiy va siyosiy muammolarga ham sabab bo‘ayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mintaqadan millionlab qochqinlar, xususan, Suriya va Iroqdan, Yevropa va Turkiyaga yo‘l olmoqda, bu esa xalqaro siyosatda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Arab davlatlarining ichki siyosiy islohotlari, ayniqsa Saudiya Arabistonidagi ‘Vision 2030’ dasturi, tashqi siyosiy ta‘sirga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Islom olamidagi ideologik va siyosiy bo‘linishlar mintaqaviy birlikka jiddiy to‘siq bo‘lib turibdi.

Mintaqa o‘zining strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va tarixiy-madaniy merosi bilan doimo global siyosiy kuchlar e‘tibor markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, neft va gaz kabi energetik resurslarning ko‘pligi, diniy ziyorat maskanlarining mavjudligi va migratsion oqimlar bu hududning xalqaro aloqalaridagi o‘rnini yanada kuchaytirmoqda.

Mintaqadagi murakkabliklar xalqaro hamjamiyatdan barqaror va uzoq muddatli yechimlarni talab qiladi. Mintaqaning kelajagi uchun yangi ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlari zarur. Ayniqsa, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishlari, yoshlar ishsizligi kabi transmilliy muammolarni yechish uchun mintaqaviy institutlar mustahkamlanishi kerak.

Geosiyosiy transformatsiyalarning barqaror va ijobiy yo‘nalishga o‘tishi uchun xalqaro kuchlar tomonidan kuch ishlatish emas, balki diplomatik yo‘l bilan muammolarni yechishga urg‘u berilishi kerak. Aks holda, mojarolar avloddan-avlodga o‘tadigan halqasiz zanjirga aylanadi.

Yaqin Sharqdagi har bir yangi inqiroz yoki diplomatik siljish global bozor, energetika xavfsizligi va migratsion siyosatga bevosita ta‘sir qiladi. Shu bois, bu mintaqani o‘rganish nafaqat mintaqashunoslar, balki xalqaro siyosatchilar uchun ham dolzarbdir.

Harbiy vositalardan voz kechib, diplomatik muzokaralar, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash asosiy ustuvor vazifa sifatida ko‘rilishi kerak.

Ta‘kidlash joiz, iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi mintaqadagi dolzarb ekologik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Yaqin Sharqda suv resurslariga ega bo‘lgan

davlatlar o‘z geosiyosiy pozitsiyasini mustahkamlashga urinayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mintaqada yoshlar ishsizligi va urbanizatsiya jarayonlari ham ijtimoiy beqarorlikka olib kelmoqda. Bu holatlar xalqaro yordam va rivojlanish dasturlarini yanada muvofiqlashtirishni talab etadi.

XULOSA

Yaqin va O‘rta Sharqdagi xalqaro munosabatlar va geosiyosiy transformatsiya jarayonlari murakkab, ko‘p qirrali va o‘zgaruvchan tusga ega. Mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy raqobatlar, tashqi kuchlarning geosiyosiy manfaatlari, diniy va madaniy tafovutlar mintaqaviy barqarorlikka tahdid solmoqda. Kelajakda bu hududda barqarorlikka erishish uchun xalqaro hamkorlik, mintaqaviy dialog va diplomatik vositalarning samarali ishlatilishi zarurdir.

Mintaqadagi murakkabliklar xalqaro hamjamiyatdan barqaror va uzoq muddatli yechimlarni talab qiladi. Harbiy vositalardan voz kechib, diplomatik muzokaralar, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash asosiy ustuvor vazifa sifatida ko‘rilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fawcett, L. (2023). *International Relations of the Middle East*. Oxford University Press.
2. Gause, F. Gregory (2010). *The International Relations of the Persian Gulf*. Cambridge University Press.
3. Huntington, S. (1996). *The Clash of Civilizations*. Simon & Schuster.
4. Ulrichsen, K. (2020). *The Gulf States in International Political Economy*. Palgrave Macmillan.
5. Esfandiary, D., & Tabatabai, A. (2015). Iran’s ISIS policy. *International Affairs*, 91(1).
6. BBC Monitoring, Al Jazeera Reports (2023).
7. UN Security Council Resolutions – www.un.org.
8. The Middle East Institute – www.mei.edu
9. Саттаров, Р. (2021). Геополитика Ближнего Востока: роль России и региональных акторов. МГИМО-Университет.
10. Коротченко, И. (2022). Ближний Восток: вызовы и возможности для России. Журнал 'Национальная оборона'.
11. МИД РФ. (2023). Политика России на Ближнем Востоке. <https://www.mid.ru>
12. ИА REGNUM. (2023). Аналитика по Сирии и Ирану. <https://regnum.ru>



13. RT на русском. (2024). Статьи и обзоры по Ближнему Востоку. <https://russian.rt.com>
14. Российский совет по международным делам (РСМД). (2023). Обзор ближневосточной политики. <https://russiancouncil.ru>

ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИДА “МАСЖИДЛАР ФЕНОМЕНИ”: МАДАНИЙ МЕРОС, ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК ВА “ЮМШОҚ КУЧ” СИЁСАТИНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ

Отабек Қудратович Алимардонов

*Ўзбекистон Миллий университети тарих факультети
“Ўзбекистоннинг энг янги тарихи” кафедраси доценти,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)*

E-mail: alexkhanfrank@gmail.com

Тел.: 99 884 03 69

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада масжидлар дипломатияси феномени илк ислом давридан бошлаб замонавий Ўзбекистонгача бўлган тарихий, маданий ва сиёсий жараёнлар мисолида таҳлил қилинади. Масжидларнинг фақат диний ибодат маскани сифатида эмас, балки ахборот тарқатиши, дипломатик алоқалар ўрнатиши, таълим бериши ва жамият бирдамлигини таъминлашдаги ўрни ёритилади. Марказий Осиёда турли давлатлар томонидан масжидлар қурилиши ва тикланиши орқали амалга оширилаётган “yumshoq куч” сиёсатининг геосиёсий мақсадлари таҳлил этилади. Лангар ота масжидини АҚШ кўмагида қайта тиклаш мисолида маданий мерос объектлари орқали халқаро ҳамкорлик, ўзаро ишонч ва халқлар ўртасидаги мулоқот ривожини ёритилган.

***Калим сўзлар:** Масжидлар дипломатияси, маданий мерос, халқаро ҳамкорлик, yumshoq куч, геосиёсат, Лангар ота, Марказий Осиё.*

“THE PHENOMENON OF MOSQUES IN PUBLIC DIPLOMACY: INTERRELATION OF CULTURAL HERITAGE, INTERNATIONAL COOPERATION, AND SOFT POWER POLICY”

ABSTRACT

This article examines the phenomenon of “mosque diplomacy” through the lens of historical, cultural, and political processes – from the early Islamic period to modern Uzbekistan. Mosques are analyzed not only as places of worship but also as centers for disseminating information, establishing diplomatic relations, providing education, and fostering social cohesion. The study highlights the geopolitical goals of “soft power” policies implemented through the construction and restoration of

mosques in Central Asia. Using the example of the restoration of the Langar Ota Mosque with U.S. support, the article demonstrates how cultural heritage sites can strengthen international cooperation, mutual trust, and intercultural dialogue.

Keywords: *mosque diplomacy, cultural heritage, international cooperation, soft power, geopolitics, Langar Ota, Central Asia.*

«ФЕНОМЕН МЕЧЕТЕЙ В НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ: ВЗАИМОСВЯЗЬ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ, МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И ПОЛИТИКИ «МЯГКОЙ СИЛЫ»»

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается феномен «дипломатии мечетей» на примере исторических, культурных и политических процессов – от раннего ислама до современного Узбекистана. Мечети анализируются не только как места религиозного поклонения, но и как центры распространения информации, установления дипломатических связей, образования и укрепления общественного единства. Особое внимание уделено целям и геополитическим аспектам политики «мягкой силы», реализуемой через строительство и реставрацию мечетей в Центральной Азии. На примере восстановления мечети Лангар-ота при поддержке США показано, как объекты культурного наследия способствуют развитию международного сотрудничества, взаимного доверия и диалога между народами.

Ключевые слова: *дипломатия мечетей, культурное наследие, международное сотрудничество, мягкая сила, геополитика, Лангар-ота, Центральная Азия.*

КИРИШ

Халқаро муносабатларда дин ва маданият меросининг ўрни охириги ўн йилликларда тобора ортиб бормоқда. Жаҳон сиёсатшунослигида “yumshoq куч” концепцияси доирасида маданият ва диний иншоотлар, хусусан масжидлар, халқаро ҳамкорликни ривожлантириш ва давлатлар ўртасида ижобий имиж шакллантириш воситаси сифатида қаралмоқда. Масжидлар тарихан фақат ибодат масканлари бўлиб қолмасдан, ахборот тарқатиш, дипломатик мулоқот ўрнатиш, таълим бериш ва жамият бирдамлигини таъминлашда муҳим роль ўйнаган.

Илк ислом даврида масжидлар пайғамбар вакиллари каби қабул қилиш, элчилар билан музокаралар олиб бориш ва жамоат ишларини муҳофаза қилиш

майдони бўлиб хизмат қилган. Марказий Осиё тарихида ҳам масжидлар маданий алмашинув, савдо йўллари ва сиёсий таъсир марказлари сифатида фаолият кўрсатган. Бугунги кунда эса масжидлар қурилиши ва қайта тикланиши халқаро сиёсатда муайян геосиёсий мақсадларга эришишнинг самарали воситаси сифатида намоён бўлмоқда.

Мазкур мақолада масжидлар дипломатиясининг назарий ва амалий жиҳатлари кенг қамровда таҳлил этилади. Саудия Арабистони, Туркия, Эрон, Қатар каби давлатларнинг Марказий Осиёда масжидлар қурилишига қилаётган инвестициялари, уларнинг минтақадаги таъсир сиёсати билан боғлиқ жиҳатлари ёритилади. Шунингдек, Лангар ота масжидини АҚШ кўмагида қайта тиклаш мисолида маданий мерос орқали халқаро ҳамкорлик, ўзаро ишонч ва халқлар ўртасидаги мулоқотнинг кучайиши намоён этилади.

Таҳлил жараёнида тарихий манбалар, замонавий тадқиқотлар ва амалий мисоллар асосида масжидлар дипломатиясининг маданий меросни асраб-авайлаш, миллий қадриятларни тарғиб қилиш ва халқаро мулоқотни ривожлантиришдаги аҳамияти кўрсатилади. Шу тариқа, мақола масжидлар дипломатиясини Марказий Осиё ва Ўзбекистоннинг ташқи сиёсий ҳамда маданий стратегиясида муҳим элемент сифатида баҳолашга хизмат қилади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Исломда масжид халқ дипломатиясининг муҳим манбаи ва воситаси бўлиб хизмат қилган. Исломнинг илк даврларида масжид янгиликлар ва маълумотларни тарқатиш маркази вазифасини бажарган.

Темурийлар даврида Хуросон ўлкасида илмий фаолият олиб борган Муъиниддин Фароҳий (ваф. 907/1501)нинг пайғамбарлар тарихи, айниқса ислом тарихи ва “Муҳаммад (с.а.в.)нинг таржимаи ҳолига бағишланган Маъориж ан- нубувва фи мадориж-ал футувва номли асарида Муҳаммад (с.а.в.)нинг ўзга юрт вакиллари билан олиб борган дипломатик алоқаларига алоҳида тўхталган. Муъиниддин Фароҳийнинг ёзишча элчиларнинг келиб тушиш жойлари ва кутиб олиниш учун асосий макон масжид эканлиги ҳам айtilган. Муаллиф асарда Бани Асад қабиласининг элчилари ташрифи ҳақида тўхталиб ўтганда, элчиларни Расулulloҳ (с.а.в.) билан учрашиш мақсадида масжидга кирганликларини ҳам маълум қилади[1].

Шу билан бирга, у таълимий вазифани ҳам бажариб, у ерда болалар учун Қуръон таълими, саводхонликка ўргатиш каби бошланғич мактаб ва парвариш муассасалари фаолият юритган. Ислом тарихи давомида умматга дахлдор муҳим масалалар бўйича баҳслар, муҳокамалар ва оммавий эълонлар айнан

масжид йиғинлари орқали тарқатилган. Бундан ташқари, масжид кутубхоналари ўқитувчи ва талабалар учун турли фанлар бўйича ахборот манбаи бўлиб хизмат қилган. Маълумки, баъзи масжид кутубхоналарида минглаб китоблар сақланган бўлиб, улар илм-фаннинг деярли барча соҳаларини қамраб олган.

Етмиш йил ҳукм сурган коммунистик тузум даврида Ўзбекистондан бор-йўғи 130 киши Ҳаж амалини бажарган бўлса, бугунги кунда ҳар йили ўзбекистонлик беш мингдан зиёд киши ўзининг эзгу орзуси ва мусулмонлик бурчини адо этмоқда. Ўша пайтларда кўп миллионли республикамизда атиги 30 та масжид бўлган, бугун эса мамлакатимизда минглаб масжидлар фаолият юритмоқда. Юртимизнинг барча ҳудудларида тарихий ислом ёдгорликлари, муқаддас қадамжолар қайта тикланди[2].

Бугунги кунда иқтисодий жиҳатдан ривожланган мусулмон мамлакатлари (М:Саудия Арабистони, Туркия, Эрон, Бирлашган Араб Амирликлари ва Қатар) дунёнинг беш қитъасидаги барча мамлакатларда масжидлар қуришга катта сармоя киритмоқда. Бундан мақсад “юмшоқ куч” сиёсатининг воситалари орқали халқаро майдонда ўз таъсирини оширишдир. Халқаро экспертлар буни “масжидлар дипломатияси” номи билан аташмоқда. Яқин Шарқ давлатлари бўйича тадқиқотчи олим Ш.Икромов ўзининг “Марказий Осиёда “масжидлар дипломатияси”” мавзусидаги мақоласида мусулмон мамлакатларининг Марказий Осиёда масжидлар қурилишига қилаётган ҳомийлигини атрофлича таҳлил қилиб берган[3]. Мазкур мақолада муаллиф “масжидлар дипломатияси”нинг Марказий Осиёдаги кўриниши, мазкур дипломатияни қўллаётган давлатлар мақсади ва бунинг геосиёсий аҳамияти ҳақида сўз юритади. Хусусан, минтақада масжид ва турли диний муассасаларни қуриш ишларига ҳомийлик қилувчи Саудия Арабистони, Туркия, Эрон ва бошқа бир қатор араб давлатлари минтақада таъсир доирасини кенгайтириш учун рақобатлашаётган давлатлар ҳисобланиши, “Масжидлар дипломатияси” эса мазкур рақобатда кўшимча восита сифатида кўрилиши таҳлил қилинган.

Этакчи мусулмон давлатлар томонидан Марказий Осиёда қўлланилаётган “масжидлар дипломатияси” минтақадаги диний вазиятга таъсир кўрсатиш кучига эга. Зеро, масжидлар ибодат маскани бўлиши билан бирга маълум геосиёсий мақсадларнинг тарғибот манзилига айланишини эътибордан четда қолдирмаслик лозим. “Масжидлар дипломатияси” диннинг сиёсат билан аралашувига ва бунинг натижасида вужудга келиши мумкин бўлган хатарларга асос бўлиб қолиши мумкин.



“Масжидлар дипломатияси”нинг юқоридаги танқидий таҳлили билан бирга ижобий жиҳатларини ҳам келтириб ўтиш мумкин. Бу айниқса Ўзбекистон мисолида яна ҳам тушунарли бўлиши мумкин. Бугунги кунда хорижда истоқамат қилаётган ватандошларимиз Ўзбекистон ҳукуматининг қўллаб қувватлови билан ўзлари яшаётган мамлакат ҳудудида қонуний асосда масжидлар қурилишида фаоллик кўрсатмоқда.

1-жадвал

“Масжидлар дипломатияси: давлатлар ўртасида маданий-диний ҳамкорлик кўринишлари”

Давлат	Масжид	Ҳомий давлат	Қачон ва кимнинг ҳисобидан қурилган	Халқ дипломатиясидаги ўрни
	Ўзбекистон, Тожикистон ва Қирғизистонда		Саудия Арабистони 1993-1997 йилларда минтақанинг 110 та масжидини қайта қурилиши ва таъмирланишига ҳомийлик қилган.	Саудия Арабистонининг Марказий Осиёда диний ва маданий таъсирини кучайтириб, исломий бирдамлик ва дипломатик алоқаларни мустаҳкамлашга хизмат қилди
	Қирғиз Республикаси, Бишкек марказий масжиди		2018 йил 2 сентябрь куни Бишкекда Марказий Осиёдаги энг йирик масжидлардан бирининг очилиш маросимида икки мамлакат президентлари С. Жээнбеков ва Р. Т. Эрдўғон иштирок этди.	Туркиянинг Марказий Осиёдаги нуфузини ошириш, маданий-диний мулоқот ва қардош халқлар бирдамлигини мустаҳкамлаш воситаси
	Тожикистон, Душанбе марказий масжиди		Қатар Тожикистонда МДХ давлатларидаги масжидларнинг энг каттаси бўлиши айтилаётган, масжиднинг қурилиши учун 70 млн АҚШ доллар маблағ ажратган.	Қатарнинг мусулмон дунёсидаги нуфузини кўрсатиш, Марказий Осиё билан иқтисодий ва маданий алоқаларни ривожлантириш воситаси
	Қозоғистон, “Нур Астана” ислом маданияти маркази		Қатар давлати	Қатарнинг Марказий Осиёдаги диний маданият ва илмий алоқаларини кенгайтириш платформаси

	<p>Қозоғистон, Чимкент жоме масжиди</p>		<p>Амирликнинг «Заид бен Султан Ол-Нахаян» жамғармаси, Жанубий Қозоғистон ҳудудидаги энг катта масжид ҳисобланадиган Чимкент жоме масжидининг қурилиши учун маблағ ажратган.</p>	<p>БААнинг диний мерос ва ислом маданиятини қўллаб-қувватлаш орқали минтақада нуфузини мустаҳкамлаш воситаси</p>
	<p>АҚШ, Мейнвилл шаҳри «Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф» номидаги жомеъ масжид</p>		<p>Ўзбекистонлик ватандошлар томонидан қурилмоқда.</p>	<p>Ўзбекистон диаспорасининг миллий ва диний меросни сақлаш, Америка жамияти билан маданий мулоқотни ривожлантириш воситаси</p>
	<p>Жанубий Корея, Кожидо оролида Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф номидаги диний муассаса</p>		<p>2015 йил ўзбекистонлик муҳожирлар томонидан таъсис этилган.</p>	<p>Ўзбекистон муҳожирларининг миллий ва диний бирдамлигини сақлаш, Кореяда маданий хилма- хилликка ҳисса қўшиш воситаси</p>
	<p>Жанубий Корея, Мокпо шаҳридаги Ал-ихлос масжиди</p>		<p>2020 йил ўзбекистонлик муҳожирлар томонидан таъсис этилган.</p>	<p>Ўзбекистонлик муҳожирлар ва маҳаллий аҳоли ўртасида диний- ахлоқий мулоқотни йўлга қўйиш воситаси</p>

	Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз туманида жойлашган XV асрга оид “Лангар ота” масжиди		Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз туманидаги XV асрда қурилган «Лангар ота» масжидини қайта тиклаш ишлари 2023 йилнинг кузида бошланиб, АҚШ элчисининг Маданий меросни асраш бўйича махсус жамғармаси томонидан тақдим этилган 250 минг АҚШ доллари маблағи ҳисобидан амалга оширилган.	АҚШ ва Ўзбекистон ўртасида маданий меросни асраш орқали ишонч ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш воситаси
---	--	---	---	--

2015 йилда Жанубий Кореянинг Кожидо оролида Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф номли масжид ўзбекистонлик муҳожирлар томонидан таъсис этилган. 2020 йилда эса Кореянинг Мокпо шаҳрида масжид учун 222,8м² ер майдони сотиб олиниб, у ерда янги масжид биноси қурилишини бошлаган. Бу масжид Жанубий Корея ҳукуматининг расмий рухсати билан, амалдаги қонунчиликка биноан сотиб олинган ер майдонида ўзбекистонликлар томонидан қурилган биринчи масжид бўлди[4].

Шунингдек бугунги кунда АҚШнинг Оҳаё штати Мейнвилл шаҳрида ўзбекистонлик ватандошлар томонидан “Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф” номидаги жомеъ масжид барпо этиляпти[5].

Цинцинати ўзбеклар жамияти раиси Зафар Алимовнинг сўзларига кўра, ҳозирда масжидда қурилиш ишлари бошланган. Қуриладиган масжиддан 20 дақиқалик йўлда араб мусулмонлари томонидан қурилган бир масжид ва бошқа томонда покстонликлар қурган масжид бор экан. “Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф” ҳазратлари номидаги масжид ўзбекистонликлар томонидан қуриладиган АҚШдаги илк масжид бўлади.

Ҳудуди 3 гектар бўлган масжиднинг пойдевори қўйилган, қурилиш маҳсулотлари ҳозирланган. Ушбу масжид 2025 йилда ишга туширилиши режалаштирилган. Мажмуа ҳудудида 600-700 кишига мўлжалланган ибодат учун асосий бино, таҳорат хоналари ва бошқа махсус ёрдамчи иншоотлар, хусусан, ўзбек мактаби ва боғча ҳамда юздан ортиқ автомобиль учун тўхташ жойи барпо этилади.

Шунингдек, алоҳида ҳудудда мусулмонлар қабристони ҳам ташкил этилади. Ўтган йили Рамазон ойида Цинцинатига юртимизнинг бир гуруҳ уламолари ташриф буюриб, масжид қуриладиган жойга тамал тошини қўйиб беришган эди.

Ҳозирда Цинцинати шаҳрида беш минг ўзбекистонлик оила, тахминан 15-20 минг ватандошимиз истиқомат қилади. Штатда бешта ўзбек ресторани, учта ўзбекларнинг озиқ-овқат дўкони бор. Умуман сўнгги йилларда АҚШда мусулмонларнинг ибодат уйлари сони 31 фоизга ўсганлигини ижобий баҳолаш мумкин[6].

АҚШ ҳам айни пайтда Ўзбекистондаги тарихий ёдгорликлар, хусусан масжидларни қайта тамирлаш ишларига ҳомийлик қилмоқда.

Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз туманидаги машҳур ва тарихий аҳамиятга эга бўлган “Лангар ота” масжиди XV асрда қурилган бўлиб, узоқ йиллар давомида таъмирталаб аҳволда қолган эди.

Масжидни қайта тиклаш ишлари 2023 йилнинг кузида бошланиб, АҚШ элчисининг Маданий меросни асраш бўйича махсус жамғармаси томонидан тақдим этилган 250 минг АҚШ доллари маблағи ҳисобидан амалга оширилди.

Бу айни пайтда АҚШнинг Ўзбекистон маданий меросига ҳурматини ва уни асраб-авайлашдаги тайёрлигини кўрсатади. Маданий объектларни тиклаш орқали давлатлар ўртасидаги муносабатлар нафақат расмий даражада, балки халқлар даражасида ҳам мустаҳкамланади.

Маданий мерос объектлари, айниқса диний ва тарихий аҳамиятга эга бўлган иншоотлар, халқ дипломатиясида кўприк вазифасини бажаради. Лангар ота масжиди нафақат диний иншоот, балки юртимизнинг тарихий хотирасини сақловчи ва турли маданият вакиллари бирлаштирувчи маскан сифатида хизмат қилади.

Реставрация ишларини АҚШнинг Чикаго университети олимлари ва маҳаллий мутахассислар ҳамкорлигида олиб борилиши икки халқ ўртасидаги илмий, техник ва маданий билим алмашинувига шароит яратди.

Қайта тиклаш жараёнида масжиднинг асосий пештоқидаги ноёб кошинлар аниқлик билан қайта таъмирланди, пойдевор ва бинонинг умумий конструкцияси мустаҳкамланди, том қисми бутунлай янгиланди. Бундан ташқари, консервация ишларини амалга оширишда маҳаллий ёш мутахассислар тайёрланиб, келажакда улар ўз билим ва кўникмаларини бошқа тарихий объектларни қайта тиклашда қўллаш олишади.

2025 йил 4 июнь куни бўлиб ўтган масжиднинг қайта очилиш маросимида Ўзбекистондаги АҚШ элчиси Жонатан Ҳеник ва Қашқадарё вилояти ҳокимлиги вакиллари иштирок этишди. Элчи ўз нутқида АҚШ ва Ўзбекистон ўртасидаги маданий ҳамкорлик натижасида бу ноёб тарихий обида яна кўп йиллар давомида авлодлар хотирасида сақланиб қолинишини таъкидлаб ўтди.

“Қўшма Штатлар ушбу муқаддас ва тарихий аҳамиятга эга бўлган масканни сақлаб қолишда кўмак кўрсатганидан фахрланади. Бу лойиҳа икки давлат ўртасидаги маданий ҳамкорликнинг ёрқин намунасидир. Эндиликда бу жой барча ташрифчилар учун очиқ ва улар тарихий муҳитдан баҳраманд бўлиш имконига эга”, – деди элчи Жонатан Хеник[7].

Янгиланган масжид маҳаллий ва хорижий сайёҳлар учун янги имкониятлар очади. Бу маданий туризм орқали халқаро мулоқот ва халқлар ўртасидаги тушунишни кучайтиришнинг самарали йўлидир.

Лангар ота» масжидининг АҚШ кўмагида қайта тикланиши бу фақат архитектуравий ёдгорликни сақлаб қолиш эмас, балки маданий мерос орқали халқлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат, ишонч ва дўстликни мустаҳкамлашга қаратилган халқ дипломатияси ҳаракатидир. Бу лойиҳа туризм, таълим ва маданий алмашинувни ривожлантиришда ҳам катта аҳамият касб этади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, масжидлар дипломатияси илк ислом давридан бошлаб ҳозирги кунга қадар халқаро муносабатларда муҳим маданий-дипломатик восита сифатида фаолият кўрсатиб келмоқда. Масжидлар фақат ибодат маскани эмас, балки ахборот тарқатиш, таълим бериш, жамоат бирдамлигини мустаҳкамлаш ва давлатлар ўртасида ўзаро ишончни шакллантиришда муҳим майдон вазифасини бажарган. Марказий Осиёда турли давлатлар томонидан амалга оширилаётган масжид қурилиши ва тикланиши ташаббуслари кўп ҳолларда “юмшоқ куч” сиёсатининг амалдаги кўринишларидан бири сифатида намоён бўлмоқда. Лангар ота масжидини АҚШ кўмагида қайта тиклаш мисоли эса маданий мерос объектлари орқали халқаро ҳамкорлик, халқлар ўртасидаги мулоқот ва ўзаро ҳурматни кучайтираётганини намоён қилади.

Маданий мерос орқали дипломатия стратегиясини ривожлантириш орқали масжидлар ва бошқа диний иншоотларни қайта тиклашда халқаро ҳамкорлик лойиҳаларини кўпайтириш мумкин.

Ватандошлар билан ҳамкорликни кучайтириш хориждаги ўзбек диаспоралари орқали миллий маданий мерос ва ислом цивилизацияси кадрларини тарғиб қилишда муҳим рол ўйнаши мумкин.

Масжидлар ва тарихий иншоотларни халқаро сайёҳлик йўналишларига киритиш туризм ва маданий алмашинувни фаоллаштиришга ёрдам берди.

Масжидлар мавзусида илмий конференциялар, маданий форумлар ва таълимий дастурлар ташкил этиш динлараро ва маданиятлараро мулоқотни қўллаб-қувватлашга кўмаклашади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ибрагимова М. Маъорижун нубувва асарида дипломатик ва элчилик муносабатлари // “Араб тили глобаллашув даврида: инновацион ёндашувлар ва ўқитиш методикаси” халқаро илмий-амалий анжуман материаллари Т. 2024 Б – 463-474.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи.
<https://president.uz/uz/lists/view/34>
3. Ш. Икромов Марказий Осиёда “масжидлар дипломатияси”
<https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/8032/>
4. Жанубий Кореядан хушxabар келди // <https://islom.uz/maqola/13560>
5. АҚШда «Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф» номидаги масжидда қурилиш ишлар давом этяпти // <https://islom.uz/maqola/21984>
6. Х. Маъруф АҚШда масжидлар қурилиши 31 фоизга ўсди // <https://islom.uz/maqola/16870>
7. Қашқадарёда тарихий масжид АҚШ кўмагида қайта тикланди
<https://zamin.uz/jamiyat/151584-qashqadareda-tarihiy-masjid-aqsh-komagida-qayta-tiklandi.html>

UDK: 378.147:37.015.3

GOALS, PRINCIPLES, CONTENT AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE METHODOLOGY

Turaboeva Zilola Mukumtoshovna

Renaissance University of Education,

Senior Lecturer, Department of "Social and Political Sciences"

ziloilaturaboyeva84@gmail.com

ABSTRACT

The article theoretically analyzes the goals, principles, content and methodological foundations of the methodology of independent creative activity of students. Its classification, parameters and methods of assisting in the development of independent creative activity are described.

Key words. *Activity, pedagogical process, quality, independence, creative activity, self-development, self-education, independent creative activity, education, professionalism.*

TALABALARNING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATI METODIKASINING MAQSADLARI, TAMOYILLARI, MAZMUNI VA USLUBIY ASOSLARI

Turaboeva Zilola Mukumtoshovna

Renessans ta'lim universiteti,

"Ijtimoiy – siyosiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

ziloilaturaboyeva84@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati metodikasining maqsadlari, tamoyillari, mazmuni va uslubiy asoslari nazariy tahlil qilindi. Uning tasnifi, parametrlari va mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam berish usullari tavsiflandi.

Kalit so'zlar. *Faoliyat, pedagogik jarayon, sifat, mustaqillik, ijodiy faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ijodiy faoliyat, ta'lim, kasbiy mahorat.*

ЦЕЛИ, ПРИНЦИПЫ, СОДЕРЖАНИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА МЕТОДОЛОГИИ

Турабоева Зилола Мукумтошовна

Ренессансный педагогический университет,

Старший преподаватель кафедры «Социальные и политические науки»

ziloilaturaboyeva84@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье дается теоретический анализ целей, принципов, содержания и методических основ методики самостоятельной творческой деятельности студентов. Описаны ее классификация, параметры и методы стимулирования развития самостоятельной творческой деятельности.

Ключевые слова. *Деятельность, педагогический процесс, качество, самостоятельность, творческая деятельность, саморазвитие, самообразование, самостоятельная творческая деятельность, образование, профессионализм.*

INTRODUCTION

Modern higher education is aimed not only at imparting knowledge, but also at developing students' independent and creative thinking, flexibility and initiative. These qualities are becoming especially important in the context of the transition to a knowledge economy, the digitalization of education and the formation of a culture of continuous self-improvement. In this regard, the problem of developing independent creative activity of students in pedagogical science comes to the fore.

The "Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 dated October 8, 2019, places special emphasis on the priority areas of systemic reform of higher education, raising the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and independent thinking to a qualitatively new level, modernization of higher education and the development of sectors of the economy based on advanced educational technologies, as strategic issues. In particular, the Concept sets the task of "developing independent learning, critical and creative thinking, systematic analysis, entrepreneurial skills in students, introducing methodologies and technologies aimed at strengthening competencies in the educational process, directing the educational process towards the formation of practical skills, and in this regard, widely introducing advanced pedagogical

technologies, curricula, and teaching and methodological materials based on international educational standards into the educational process" [1].

Modern education faces many challenges, including the integration of knowledge from different fields, the development of critical thinking and teamwork skills. In the context of globalization and the rapid development of technology, traditional teaching methods have not been able to fully meet the needs of students and employers. In this regard, special attention is paid to the development of independent creative activity in students. Students should not only master information, but also have the ability to independently find solutions, analyze data, conduct research and draw conclusions based on the results obtained.

From this point of view, it is important to reveal the place and role of the methodology for developing students' independent creative activity in the system of general professional competencies, to develop situations that highlight the axiological potential of pedagogical and psychological disciplines.

Analysis of literature on the topic. The first theory of software was proposed in 1936 by the English mathematician Alan Turing in his story "On computable numbers with an application to the Entscheidungs problem".

P.I. Obratsov, revealing the essence of the concept of software and methodological support, emphasizes, first of all, not the methodological side of the support, but the need for the teacher to choose teaching tools that correspond to the practical methodology.

We approve of the definition given by P.I. Obratsov, who believes that software and methodological support is a set of educational software products created for specific teaching methods.

Research methodology. In the educational process, methods of studying and analyzing statistical data, logical thinking, analysis and synthesis are widely used to educate young people on the basis of national spiritual heritage, to in-depth study of qualities such as enlightenment, tolerance, and honesty, and to educate them in a spirit of respect for universal human values.

Analysis and results. Methods for the development of creative activity not only ensure the successful education of students, but also form creative approaches and problem-solving skills in their life activities. This, in turn, is of great importance in increasing the intellectual potential of the country, developing innovations and ensuring socio-economic development.

The development of a methodology for improving the independent creative activity of students involves relying on a set of scientifically based rules that reflect both the goals of professional education and the characteristics of the development of

the personality of a future teacher. The main goal is to develop sustainable skills of students and readiness for independent creative activity in educational and professional spheres. The methodology for the development of independent creative activity of students is aimed at developing sustainable skills of creative thinking, initiative and the ability to self-organize in educational and professional activities in future specialists.

The purpose of the developed methodology is to provide targeted pedagogical impact that helps students actively develop their ability to independently, actively, creatively solve professional problems and realize their individual creative potential.

For the effective use of this methodology, we have identified the following main tasks:

1. Formation of a motivational base: Creation of a motivational environment that promotes the active involvement of students in the creative process. This includes encouraging individuality, organizing creative competitions, exhibitions and student scientific conferences (stimulating students' internal motivation for independent and creative work; ensuring a conscious attitude to the process of self-development and creative self-expression).

2. Development of cognitive abilities and creative thinking: Development of flexible methods that take into account the individual characteristics of students: type of thinking, level of motivation, style of information perception. Personalizing education is becoming one of the main directions of modern pedagogy (facilitating the development of flexible and critical thinking; forming the skills to generate original ideas, systematize them, and apply them in educational activities).

3. Creating conditions for the manifestation of independence: Developing students' self-organization and self-management skills in curricular and extracurricular activities. This is especially important in the context of the digital transformation of education, when independent work with information is prioritized (giving the student the opportunity to choose the forms, methods and pace of completing tasks; developing self-control, self-planning and self-assessment skills).

4. Integrating creative tasks into the educational process: Developing students' cognitive and creative independence through project-based, research-based and practice-oriented activities. Such approaches facilitate the transition from reproductive education to productive education (using research, project and problem-based teaching methods; introducing situational and game technologies that simulate real professional tasks).

5. Formation of a valuable and meaningful direction: Organization of diagnostics and monitoring of the development of creative independence, including

questionnaires, tests, expert assessment of creative products and self-analysis of students (helping to understand the personal significance of creative and independent activity; developing interest in the teaching profession through creative cooperation).

6. Organization of pedagogical support and feedback: Methodological support for teachers aimed at updating teaching and learning methods in accordance with the principles of developing the creative potential of the individual (developing interaction between the teacher and the student on a collaborative basis; systematic diagnostics and correction of individual achievements of students).

Within the framework of this methodology, the following main principles can be identified:

The principle of subjectivity is the recognition of the student as an active subject of the educational process, capable of setting goals, choosing means and reflecting on the results of activities [1].

The principle of activity and independence is the organization of educational situations that encourage initiative, research, decision-making and responsibility for the result [2].

The principle of creativity is the creation of purposeful conditions for creative thinking, the search for non-standard solutions and working with uncertainty [3].

The principle of individualization is the consideration of the personal characteristics, level of development, motivation and preferences of students in the process of organizing activities [4].

The principle of integration of educational and professional activities is the development of students' experience in using creative approaches in their educational practice, which helps to understand their professional identity [5].

The principle of reflexivity is the organization of feedback and self-analysis as a mandatory element of any stage of creative activity [6].

The methodological system for developing independent creative activity of students should be comprehensive, flexible and person-oriented. It is based not only on traditional didactic tools, but also on modern digital technologies, as well as on the philosophy of open education and individual self-determination. In a rapidly changing world, where information is available in any format and at any time, traditional teaching methods can no longer meet the needs of students and society as a whole. Therefore, it is necessary to introduce new methods and techniques that activate the educational process and serve to develop creative skills.

One of the main aspects of this process is the use of modern technologies in education. Information and communication technologies (ICT) open up wide opportunities for organizing the educational process, allowing students not only to

acquire knowledge, but also to actively participate in its creation. The introduction of technologies such as electronic textbooks, online courses, distance learning platforms and collaborative tools helps students develop independent active research and study skills.

Electronic resources provide students with new opportunities for independent work and homework: learning has become individual and independent, and at the same time controlled. Communication with the student using a computer is carried out in various forms and content (informational, informative, advisory, effective, verbal and non-verbal).

Based on the analysis of pedagogical and psychological, scientific sources, taking into account the opinions of scientists who studied the problems of the emergence, formation and development of methodological support of education, the terms “software”, “methodological support”, “didactic support”, “software and methodological support” were mutually improved, their definitions changed in accordance with the software available at that time.

Software is a set of programs and data that control the operation of a computer and perform certain tasks. It is an integral part of any computer system, ensuring interaction between the user and the equipment.

Software is divided into several categories depending on its purpose and functions. In the modern world, software plays an important role not only in computers, but also in various devices such as smartphones, tablets, smart TVs and even cars.

Software is divided into categories that perform their own unique functions and play an important role in the operation of the computer. Office programs are programs used to create and edit text documents, spreadsheets and presentations. For example, Microsoft Office, Google Docs, Libre Office. These applications are an integral part of the work of many users and are used in various fields, from education to business.

Software is one of the types of automated system support, along with technical (hardware), mathematical, information, linguistic, organizational, methodological and legal support. The disciplines that study software are information technology and software engineering.

CONCLUSION

Methodological support of the educational process is the main mechanism for creating a system of educational activities. Also, methodological support contributes to increasing the effectiveness of training highly qualified personnel.

Methodological support refers to the creation and use of educational and methodological documents, manuals, recommendations, methodological materials, didactic tools, as well as effective teaching methods aimed at activating the cognitive activity of students and ensuring the achievement of educational goals.

Also, methodological support is a process aimed at creating various types of methodological products, providing methodological assistance to various categories of professors and teachers, identifying, studying, generalizing, forming and disseminating positive pedagogical experience.

In the educational process, the main means of teaching that should be included in the methodological support include educational and methodological literature (textbooks, study guides, recommendations, lecture texts, reference books, albums), educational and visual aids (posters, diagrams, drawings, photographs, graphs, tables), natural means (models or real devices, mechanisms, tools, models and samples), technical educational aids (audiovisual aids and technical programming tools). Thus, the system of methodological support of the educational process should cover the entire content of the educational material provided for in the program and educational standards.

The development of the concept of software and methodological support is closely related to didactics and scientific and technological progress in education.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. - М.: Логос, 2004. - 384 с
3. Пидкасистый П.И. Педагогика. - М.: Педагогическое общество России, 2005. - 544 с.
4. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для креативного саморазвития. - Казань: Центр инновационных технологий, 2010. – 608 с
5. Бондаревская Е.В. Личностно-ориентированное воспитание. - Ростов н/Д: Учитель, 2000. - 284 с.
6. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. - М.: Высшая школа, 1990. - 176 с.
7. Приходько О.Г. Психология профессионального развития личности. - СПб.: Питер, 2009. - 192 с.
8. Turing A. On Computable Numbers, with an Application to the Entscheidungs problem (angl.) // Proceedings of the London Mathematical Society - London Mathematical Society,

9. Образцов П.И., Иванова О.Ю. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов: Учебное пособие / Под ред. П.И. Образцова.- Орел: ОГУ, 2005. - 114 с.

O‘ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA OCHIQLIKNI TA’MINLASHDA XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIKNING O‘RNI

Duturayev Shohruh Muxammadnabiyevich

*Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash
instituti bo‘lim boshlig‘i*
duturayevshohruh@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston davlat boshqaruvida ochiqlikni ta‘minlash jarayonida xalqaro tajriba va hamkorlikning o‘rni tahlil etilgan. Dunyo mamlakatlari, xususan, Skandinaviya davlatlari, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ochiqlik siyosatini amalga oshirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan, ularning afzalliklari va samarali jihatlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati, elektron hukumat tizimi, ochiq ma‘lumotlar portali, Xalq qabulxonalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik natijalari o‘rganilgan. Maqolada xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati asoslab berilib, ochiqlik siyosatini yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: *davlat boshqaruvi, ochiqlik siyosati, shaffoflik, xalqaro tajriba, xalqaro hamkorlik, elektron hukumat, ochiq ma‘lumotlar portali, korrupsiyaga qarshi kurash, fuqarolik ishtiroki.*

АННОТАЦИЯ

В статье проанализирована роль международного опыта и сотрудничества в обеспечении открытости государственного управления в Узбекистане. Рассмотрены механизмы реализации политики открытости в странах мира, в частности в Скандинавских странах, США и государствах Европейского Союза, выявлены их преимущества и эффективные стороны. Также исследованы результаты проводимой в Узбекистане политики открытости, развитие системы электронного правительства, деятельность портала открытых данных, Народных приёмных и сотрудничество с международными организациями. В статье обоснована необходимость адаптации международного опыта к национальным условиям и предложены перспективные направления дальнейшего развития политики открытости.

Ключевые слова: *государственное управление, политика открытости, прозрачность, международный опыт, международное сотрудничество,*

электронное правительство, портал открытых данных, борьба с коррупцией, гражданское участие.

ABSTRACT

This article analyzes the role of international experience and cooperation in ensuring transparency in public administration in Uzbekistan. It examines the mechanisms of implementing openness policies in different countries, particularly in the Scandinavian states, the United States, and the European Union, highlighting their advantages and effective aspects. The study also explores Uzbekistan's recent reforms aimed at promoting transparency, including the development of the e-government system, the open data portal, the establishment of People's Reception Offices, and cooperation with international organizations. The article emphasizes the necessity of adapting international practices to local conditions and proposes prospective directions for further advancement of transparency policies.

Keywords: *public administration, transparency policy, openness, international experience, international cooperation, e-government, open data portal, anti-corruption, civic participation.*

KIRISH

Bugungi globalashuv sharoitida davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash demokratik rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahonning deyarli barcha mintaqalarida boshqaruv tizimida ochiqlikni kuchaytirish, fuqarolarning davlat organlari faoliyatida bevosita ishtirokini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda⁷. Bunday islohotlar, avvalo, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda davlat va jamiyat o'rtasida samarali ijtimoiy hamkorlik tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ochiqlik tamoyilining amalda to'liq ishlashi davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshiradi, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonini soddalashtiradi va fuqarolarning huquqiy ongi hamda faolligini kuchaytiradi⁸. Bunga misol qilib, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat axborot tizimlarining ochiqligi va fuqarolar bilan interaktiv muloqot mexanizmlarini rivojlantirish orqali boshqaruvning samaradorligi keskin oshirilgan. Shuningdek, Skandinaviya davlatlari tajribasi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda parlament nazorati, ochiq budjet siyosati va jamoatchilik muhokamalarining ahamiyatini namoyon etmoqda⁹.

⁷ Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. – Berlin, 2024.

⁸ World Bank. Open Government and Transparency Practices. – Washington, 2023.

⁹ OECD. *Open Government: The Global Context and the Way Forward*. – Paris, 2016.

O‘zbekiston ham mazkur jarayondan chetda qolmagan holda so‘nggi yillarda “ochiq davlat boshqaruvi” konsepsiyasini jadal rivojlantirmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan “Harakatlar strategiyasi”da davlat organlari faoliyatining ochiqligi alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, ochiq ma‘lumotlar portali (data.gov.uz) faoliyatini kengaytirish va Xalq qabulxonalarining tashkil etilishi bunga yorqin misoldir¹⁰. Shu bilan birga, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ochiqlik sohasida mustahkam huquqiy poydevorni yaratdi¹¹.

Biroq milliy qonunchilik va institutsional mexanizmlarning samarali ishlashi xalqaro tajribani o‘rganish va uni mahalliy amaliyotga moslashtirish bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda O‘zbekiston Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Transparency International kabi nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda davlat boshqaruvida ochiqlik siyosatini yanada rivojlantirish yo‘lida faol hamkorlik qilmoqda¹². Shu jihatdan xalqaro hamkorlik O‘zbekistonda ochiqlikni chuqurlashtirish, korrupsion xavflarni kamaytirish va aholining davlat boshqaruvi jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyo mamlakatlarida davlat boshqaruvida ochiqlikni kuchaytirish jarayoni turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Xususan, Skandinaviya davlatlari – Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiya – dunyoda eng ochiq boshqaruv tizimiga ega mamlakatlar qatorida turadi. Ularning tajribasida davlat organlari faoliyatining ochiqligi, parlament nazorati, jamoatchilik muhokamalari va ochiq budjet tizimi muhim o‘rin tutadi¹³. AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa “Open Government” (Ochiq hukumat) tashabbusi asosida davlat organlarining barcha faoliyati, xususan, moliyaviy hisobotlar, davlat xaridlari va qonun loyihalari keng jamoatchilik uchun ochiq ma‘lumot sifatida e‘lon qilinadi¹⁴. Bu orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtiroki faollashadi va korrupsiya xavfi sezilarli darajada kamayadi. BMT, Jahon banki va OECD tomonidan ilgari surilgan xalqaro standartlarda davlat boshqaruvida ochiqlikni ta‘minlashning uch asosiy yo‘nalishi belgilangan. Jumladan, ma‘lumotlarining ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, fuqarolar

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2014-yil 5-may, №03/14/369/1558.

¹² UNDP Uzbekistan. *Governance and Rule of Law Projects*. – Tashkent, 2023.

¹³ OECD. *Open Government: The Global Context and the Way Forward*. – Paris, 2016.

¹⁴ European Commission. *Open Government Partnership in the EU*. – Brussels, 2022.

bilan interaktiv muloqotni kuchaytirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda samaradorlik va hisobdorlikni oshirish¹⁵. Shu bois, xalqaro tajribani o'rganish O'zbekiston uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng demokratik tamoyillarni qaror toptirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. So'nggi yillarda esa ochiqlik siyosati davlat boshqaruvi islohotlarining asosiy yo'nalishiga aylandi. Xususan, 2014-yilda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun davlat organlari faoliyatini jamoatchilik uchun ochiq bo'lishida huquqiy asos yaratdi¹⁶. Shu bilan birga, "Ochiq ma'lumotlar portali" (data.gov.uz) ishga tushirilishi orqali davlat idoralari faoliyati, byudjet xarajatlari, davlat dasturlari va boshqa ko'plab ma'lumotlar fuqarolarga ochiq e'lon qilina boshlandi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatishda elektron hukumat tizimi ham keng joriy etildi. "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" (my.gov.uz) orqali bugungi kunda yuzlab xizmat turlari onlayn taqdim etilmoqda, bu esa ochiqlikni ta'minlash bilan birga fuqarolarga qulaylik ham yaratmoqda¹⁷. Shuningdek, Xalq qabulxonalarini va Prezident virtual qabulxonasi tashkil etilgani ham davlat boshqaruvida ochiqlikni ta'minlashda tub burilish yasadi. Ushbu tizimlar orqali fuqarolarning murojaatlari tezkor o'rganilib, ularning muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda¹⁸. Biroq shunga qaramay, ochiqlik siyosatini yanada rivojlantirish uchun xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni mahalliy sharoitga tatbiq etish dolzarbdir.

O'zbekiston davlat boshqaruvida ochiqlikni kuchaytirishda xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro institutlar bilan birgalikda ochiq boshqaruv tizimini rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda¹⁹. Transparency International kabi tashkilotlarning xalqaro reytinglari esa O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali mamlakatning ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurashdagi yutuqlari hamda mavjud muammolari aniq ko'rinadi. Bunga misol qilib, oxirgi yillarda O'zbekistonning "Korrupsiyani qabul qilish indeksi"dagi o'rni yaxshilangan bo'lsa-da (121-o'rin), hali ham tizimli islohotlarni

¹⁵ World Bank. *Governance and Transparency Frameworks*. – Washington, 2023.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2014-yil 5-may, №03/14/369/1558.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" rasmiy sayti – my.gov.uz.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini faoliyati bilan bog'liq nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

¹⁹ UNDP Uzbekistan. *Good Governance and Rule of Law Projects*. – Tashkent, 2023.

chuqurlashtirish zarurati mavjud²⁰. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, kelgusida O‘zbekiston uchun xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari:

I. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlashda xalqaro standartlarni mahalliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish;

II. Korrupsiyaga qarshi kurashda ilg‘or tajribalarni tatbiq etish;

III. Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish;

IV. Ochiq ma‘lumotlar ekotizimini rivojlantirishda xalqaro IT texnologiyalaridan keng foydalanish.

Xalqaro tajribani o‘rganish va hamkorlikni kuchaytirish O‘zbekistonda ochiqlik siyosatini yanada rivojlantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va jamiyatda fuqarolik faolligini mustahkamlash uchun muhim shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. – Berlin, 2024.
2. World Bank. Open Government and Transparency Practices. – Washington, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2014-yil 5-may, №03/14/369/1558.
5. OECD. Open Government: The Global Context and the Way Forward. – Paris, 2016.
6. European Commission. Open Government Partnership in the EU. – Brussels, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 2014-yil 5-may, №03/14/369/1558.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” rasmiy sayti – my.gov.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 19-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini faoliyati bilan bog‘liq nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

²⁰ Gazeta.uz, *Transparency International 2024 Korrupsiyani qabul qilish indeksi*, 11-fevral 2025, gazeta.uz



10. UNDP Uzbekistan. Good Governance and Rule of Law Projects. – Tashkent, 2023.
11. Gazeta.uz, Transparency International 2024 Korrupsiyani qabul qilish indeksi, 11-fevral 2025, gazeta.uz

АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙНИНГ АХЛОҚ ВА ФАН МЕЪЁРЛАРИ ҲАҚИДАГИ НАЗАРИЯСИ

Нариманов Қахрамон Гулямджанович

Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори PhD

Тошкент давлат шарқшунослик университети

narimanov.k@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Абу Райҳон Берунийнинг серқирра илмий меросида унинг ахлоқий қарашлари ҳам алоҳида ўринга эга. Аллома баъзи асарларининг муайян қисмигина бизгача етиб келгани туфайли файласуфнинг қаламига мансуб ахлоққа бағишланган алоҳида асарлари бўлган ёки йўқлигини аниқ айтиш имконсиздир. Қомусий олимнинг қарашларининг таҳлили шуни кўрсатадики, расмий диний мафкура таъсири остида бўлса-да, унинг ахлоққа доир қарашлари моҳиятан умуминсоний ва илмий-маърифий хусусиятга эга бўлган.

Калит сўзлар: *ахлоқий меъёрлар, илм-фан, илмий билим, ақл, таълим, диний билим, олим.*

ABSTRACT

In the multifaceted scientific heritage of Abu Rayhan Beruni, his ethical views also occupy a special place. Since only a certain part of the scholar's works has reached us, it is impossible to say for sure whether the philosopher had any separate works devoted to ethics. An analysis of the views of the encyclopedic scholar shows that, although under the influence of official religious ideology, his views on ethics were essentially universal and scientific-enlightenment in nature.

Keywords: *ethical norms, science, scientific knowledge, reason, education, religious knowledge, scholar.*

КИРИШ

Ахлоқ ва билиш муаммолари ахлоқ ва билишнинг ўзаро боғлиқлиги “ахлоқий меъёрлар ҳамда қарашларнинг инсон ҳаёт жараёнидаги ўз ўрни мунтазам Шарқ ва Ғарб файласуфларининг илмий қизиқишлари марказида бўлиб келган. Мисол учун, Марказий Осиё алломалари илм-фан, илмий билимлар инсон ва олимларнинг энг яхши ахлоқий фазилатларини ривожлантиришда муҳим омил эканлигига амин эдилар. Хусусан билим маънавий камолотга олиб келади, ушбу муҳитнинг ақл, онг, энг яхши дунёқараш, ахлоқий қарашлар ва ҳоказо” [1, 19-с].

Фан этикаси ёки илмий этика олим ва фаннинг давлат муассаси сифатидаги фаолиятининг ахлоқий томонини қамраб олади. Унинг мазмуни, авваламбор, билимларни ишлаб чиқаришдан иборат бўлган илмий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари ва ижтимоий мақсади билан белгиланади. “Фан билиш фаолиятининг ижтимоий уюшган, тартибли соҳаси сифатида шуғулланувчиларга алоҳида талаблар қўяди. Фан бизнинг субъектив истакларимиз ва ғояларимиздан қатъи назар, ўз-ўзидан мавжуд бўлганидек, дунёни объектив деб билади. Унинг мақсади шундаки, бизнинг дунё ҳақидаги билимларимиз ҳақиқатдир, яъни у бизнинг субъектив мулкимизга айланади, шунга қарамай, унинг мазмуни бизга боғлиқ эмас: на шахсга ва на инсонийликка. Фаннинг тирик двигатели бўлган олимлардан, фаннинг мақсадини, унинг асосий мақсади ва ижтимоий олий вазифасини, уларнинг шахсий, субъектив эҳтирослари ва ҳаётий муносабатини ташкил этадиган нарсалар талаб қилинади. Олим – бу эҳтирос билан бошқариладиган, тадқиқотчининг инстинкти ва ҳақиқатга махсус мос келадиган одам; масалан, сохта нота мусиқачининг қулоғини кесгани каби, олим ҳам бўш, асоссиз, тасдиқланмаган баёнотлардан нафратланади” [2, 103-с].

Фан фалсафаси соҳаси сифатида фан этикаси мавзуси қуйидагиларни қамраб олади: “илмий фаолиятнинг ахлоқий асослари; илмий ҳамжамият доирасидаги олимларнинг хулқ-атвори ва илмий фаолиятини ахлоқий тартибга солиш этикаси қонуни (илмий билимлар ва ўзига нисбатан бошқа тадқиқотлар); фан ўртасидаги муносабатлар, илмий жамоа, олим ва жамоат, мамлакат. Фан этикасига айланиш жараёнида унинг тадқиқот объекти нафақат олимларнинг ҳатти-харакатлари, балки илмий тадқиқотлар ва тажрибалар натижаларини нашр этиш, муаллифликни тўғри аниқлаш, плагиатга йўл қўймаслик, бирламчи манбаларга ҳаволаларнинг тўғрилиги ва илмий тадқиқотлар натижаларини нашр этиш билан боғлиқ муаммолардир”[3, 53-с].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Абу Райҳон Берунийнинг серкирра илмий меросида унинг ахлоқий қарашлари ҳам алоҳида ўринга эга. Аллома баъзи асарларининг муайян қисмигина бизгача етиб келгани туфайли файласуфнинг қаламига мансуб ахлоққа бағишланган алоҳида асарлари бўлган ёки йўқлигини аниқ айтиш имконсиздир. Файласуф тадқиқларининг таҳлили шуни хулоса қиладики, расмий диний мафкура тазйиқи билан бўлган бўлсада, уни ахлоққа оид

эътиборлари мазмунан умумбашарий ҳамда илмий-маърифий фазилатли бўлган.

Абу Райҳон Берунийнинг юксак ахлоқий ва илмий билимларга эга бўлиш йўлини кўрсатувчи шартлари қуйидагича:

а) илм билан шуғулланувчилар эркин бўлиши керак, уларга ташқаридан босим ўтказилмаслиги керак;

б) илмий изланишлар инсоннинг ана шу изланишларга бўлган иштиёқидан туғилиши ва соф пойдеворлар устига қурилиши керак;

в) одамларнинг илм билан шуғулланиши учун уларнинг эътибори шу соҳага қаратилиши, жамиятдаги энг обрў-эътиборли кишилар эъзозланиши керак;

г) олимларни ҳурмат қилиш ва ишонилш керак;

д) ҳар қандай фан соҳасини ўрганиш ва тадқиқ қилишдан олдин зарур техник ва молиявий шарт-шароитларни таъминлаш керак;

е) ҳақиқий илмни сохта илмдан, динни хурофотдан ажратиш керак;

ж) ҳақиқий олимларга ёрдам бериш, уларни рағбатлантириш чораларини кўриш керак.

Олий мартабали давлат амалдорлари, давлат раҳбарлари илм-фан ривожига эътибор қаратиши, илм-фан янгиликларига ҳурмат билан муносабатда бўлиши, уни қўллаш учун барча молиявий имкониятлардан фойдаланиши зарур. Чунки олимнинг кичик бир кашфиёти ёки ихтироси энг катта давлатни ағдариш учун етарли бўлиши мумкин. Кичик бир ихтиро ўн минглаб қўшинлар қила олмайдиган нарсаларни қилишга ёрдам беради.

Берунийга кўра, инсон - табиатдаги олий мавжудотдир, “одам зоти барча ҳайвонлардан устундир, унга илтифот кўрсатилган – ақл кучи инъом этилган, Ерни гуллаб-яшнатиш ва унда бошқарувни ўрнатиш учун”. Шунинг учун, инсон энг аввало юксак ахлоқли, таълим кўрган бўлиши, унинг маънавий қиёфаси ўзининг мақомига мувофиқ бўлиши зарур. Аллома инсон ахлоқий хатти-ҳаракатлари ва рағбатлантирувчи омилларини унинг ўзидан излаган ва аввалги олимлар каби инсон шахсининг табиатидан келтириб чиқарган. “Ҳайвонларда сезгилар ўлжани овлаш ва ўзини ҳимоя қилишда восита сифатида яратилган бўлса, инсон зоти барча ҳайвонотдан устун туради. Чунки унга юксак шараф ато этилган. Унга мукофот этиб ақл кучи берилган. Чунки инсон ана шу кучнинг макони бўлиб иззат топган [4, 8-б]”. Олим фикрича, қиёфасига кўра одамлар бир-бирига ўхшаш, айна бир пайтда, ўзаро фарқланадилар. Бундай фарқлар уларнинг инстинктлари, феъл-атворлари, табиий хусусиятларидан келиб чиқади. Шахсининг маънавий қиёфаси у

яшаётган жамиятда, бошқа инсонлар билан мулоқот қиладиган жамоасида шаклланади.

Инглиз давлат арбоби ва файласуфи бўлган Ф.Бэкон ахлоқнинг турли муаммоларига ҳам алоҳида эътибор қаратган. У ўзининг ахлоқий қарашлари орқали бахт, иккиюзламачилик, ҳийла-найранг, ҳасад, бепарволик ва бошқалар ҳақида жами эллик саккизта иншо ёзган. Ф.Бэкон ахлоқнинг табиий моҳияти концепциясининг асосчиларидан биридир. У ахлоқшунослик предметини инсоннинг иродасини ифодалайди, деб ҳисоблайди. Шунингдек, мутафаккир ахлоқ инсон онгини тартибга солувчи ва бошқарувчи, ҳаракатга келтирувчи таъсири ҳақида фикр юритади. Ўтмишдаги ахлоқий таълимотларни ҳисобга олган ҳолда, Бэкон яна ахлоқ манбаларига, инсон ахлоқий ғояларининг асосларига бутунлай суяниб қолмасликни таъкидлаб ўтади [5, 27-с].

Беруний мантиқий-методологик муаммоларга катта эътибор бериб, ахлоқ, ҳамкасбларига ҳурмат, ўтмиш маданий мероси муаммоларини илмий қизиқишлар доирасидан четда қолдирмади. Фан таракқиётидаги узлуксизликни унутмади. Шу нуқтаи назардан Ибн Сино ва Берунийнинг ёзишмалари қизиқарлики, бунга олимларнинг ҳам бир-бирига, ҳам олдинги давр олимларига бўлган илмий-ахлоқий муносабати мисол бўла олади. Илм-фан билан шуғулланадиган одам ўз руҳини ёмон хусусиятлардан, одамни кўр қиладиган сабаблардан озод қилиш учун юқори маънавий фазилатларга эга бўлиши керак, чунки бу олим учун ўзига хос одатлар, гиёҳвандлик, рақобат, эҳтиросларга бўйсунуш, ҳокимият учун курашдан халос бўлиш жуда муҳимдир [6, 151-153-р].

Беруний ўша даврдаги баъзи олимлар томонидан қўллаб-қувватланадиган сохталаштирилган тасаввурларнинг мавжудлигини аллома турли гуруҳларга мансуб кишиларнинг қарама-қарши манфаатлари, уларнинг мойилликлари, истаклари ва хоҳишлари билан изоҳлайди. Уларнинг орасида ўзининг тубан табиатига кўра ёлғон тарқатиш орқали бойлик орттириш истагида бўлганлар бор. Улар зулмдан қўрқиб ёки қалби ожизлиги боис ёлғон сўзлайдилар. Уларни аёвсиз фош қилган ҳолда, Беруний, “оқлаб бўлмас ғараз” уларни шу ҳолга солганки, улар разилликдан жирканмайдилар, уят ва обрў ҳиссини тамомила йўқотганлар” [7, 58-с], - деб таъкидлайди.

Мутафаккир фикрича, мард ва жасур бўлиш, демак нафақат сўзда, балки, хатти-ҳаракатларда ҳам ҳаққоний бўлиш демакдир. Олим очиқ ҳолда бажариш уят ҳисобланган ишни пинҳона ҳам қилмасликка чақирган. Инсон ҳақиқатни ёқлаган ҳолда, таъқиб ва хавф-хатарлардан қўрқмай, ёлғонга қарши курашиши

керак. “Ҳатто у ўзингизга қарши бўлса ҳам, ҳақиқатни гапиринг”, - деб даъват қилган файласуф.

Беруний ва Ибн Сино ўртасидаги ёзишмалар эътиборга моликдир. Шубҳасиз, икки буюк мутафаккирнинг ўзаро ёзишмалари олимларнинг бири-бирига нисбатан илмий ва ахлоқий муносабатларининг ҳам, аввал яшаб ўтган олимларга бўлган муносабатнинг ҳам ибратли намунасидир. Хусусан, Беруний фикрича, олим ўз қалбини салбий иллатлардан, ҳақиқатнинг йўлини тўсадиган сабаблардан тозалаши зарур. Булар, масалан, одат тусига кириб қолган салбий хатти-ҳаракатлар, ғаразгўйлик, носоғлом рақобат, нафсга берилиш, ҳокимият учун кураш ва бошқалар. Аллома кўрсатган қалбни тозалаш усули ҳақиқатга эришиш учун энг мақбул йўл, ҳақиқатга соя соладиган шубҳа ва ноаниқликларга барҳам беришда жуда кучли кўмакчидир. Олим билиш жараёнида ўзаро алмашинадиган авлодлар ўртасида ўзаро мулоқот учун муайян мезонлар ва меъёрлар муаммосини ўртага чиқаради ва шундай таъкидлайди: “ўқувчи муқаррар равишда мен каби бўлади ва жонбозлигим учун мени мақтайди ва миннатдорлик билдиради, ёки унинг билим даражаси меникига нисбатан юксак бўлади, у ҳолда у мурувватли бўлади, камчиликларни тўғрилайди ва йўл қўйилган хатолар учун кечиради” [8, 414-с].

Мутафаккирнинг ушбу фикри келгусида янада ривожланиб, ҳозирги кунда илмий жамоатчилик ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг муҳим ахлоқий тамойилларидан саналади. Буюк аждодимиз инсон ўз табиатига кўра у ёки бу объектив ва субъектив омиллар таъсирида ўз нигоҳидан беркинган барча нарсаларни билишга интилишга мойиллигини таъкидлаган. Билиш сари ўта кучли иштиёқ инсонга табиатан хос ижобий ҳолат бўлгани учун, олим уни адолат, меҳр-мурувватнинг ахлоқий тамойили сифатида олиб қараган. Билим олишга қаршилиқ кўрсатиш, тўсқинлик қилишни эса, ёвузлик ва адолатсизлик деб баҳолаган. “Адолат ўз табиатига кўра таҳсинга лойиқ кўрилиши, моҳиятига кўра муҳаббатга сазовор бўлиши, гўзалликни жалб этганидек, у ҳақиқат билан ҳам худди шундай муносабатдадир”.

Олим шахс ахлоқига салбий таъсир этадиган иллатларни ажратиб кўрсатган ва уларни нафақат давлат, балки бутун инсониятга хавф солишини таъкидлаган. Хусусан, зўрлик, қасамхўрлик, сотқинлик, ўғирлик, ҳийла билан бировнинг мулкини эгаллаш каби иллатлар шулар жумласидандир. Беруний фикрича, ҳар бир одам ўз табиатига кўра мақтовсевар бўлади, таҳсин ва олқишни ёқтиради, бироқ инсонда ахлоқий иллатлар ташқи омиллар таъсирида шаклланади. Инсон ҳаёти мобайнида турли ҳолатларга тушиши мумкин, масалан, яхши ишлари учун уни мақташлари мумкин, ёки аксинча, жамият

томонидан салбий кўрилган хатти-ҳаракатлари учун қоралашлари ҳам мумкин [9, 50-с]. Адолатпарварлик ва ҳақиқатга интилиш инсон хулқининг асосий хусусиятлари бўлиб, уларсиз бошқа ахлоқий фазилатларни тарбиялаш имконсиздир. Шунингдек, маънавий-ахлоқий ривожланиш асосини мунтазам равишда оламни билишга интилиш ташкил этмоғи зарур [10, 35-с].

Беруний яратган илмий мактаб Ўрта аср Шарқида илм ва маърифатнинг келгуси ривожланишига улкан таъсир кўрсатган. Аллома илмий ғоя ва қарашлари таъсирида Умар Хайём, Насириддин Тусий, Мирзо Улуғбек, Мирим Чалобий ва бошқа буюк олим ва мутафаккирлар ўз илмий мактабларини яратгани яхши маълум. Қомусий олим илмий меросини у яшаган давр шарт-шароитларини тизимли билиш орқали ҳар томонлама таҳлил этиш мумкин, зеро, аллома яшаб ижод этган муҳитнинг ўзига хослиги ва зиддиятли жиҳатлари унинг ижтимоий-фалсафий дунёқарашида, илмий фаолиятида ўз аксини топган.

Абу Райхон Ал-Берунийнинг замонавий жамият учун гуманистик ғояларининг қиймати шундаки, у мажбурий эмиграция шароитида миллий ўзликни сақлаб қолишга муваффақ бўлди. Умрининг кўп қисмини Ғазнавийлар султонлари саройида хизмат қилишга бағишлаб, Хоразмнинг ҳақиқий ўғли бўлиб қолди ва ўзбек халқига бой педагогик мерос берди [11, 782-с].

Берунийнинг даҳоси, чексиз заковати билан танишиш учун унинг асарлари билан танишиш, уларни ўқиш керак. Беруний асарларини ўқиганларнинг барчаси унинг буюклиги олдида қайта-қайта таъзим қилинганларини айтишлари бежиз эмас. Дарвоқе, шуни ҳам айтиш керакки, Ғарбнинг етук олимларининг мутлақ кўпчилиги бундан 500-600 йил аввал бўлгани каби ҳозир ҳам Шарқ мутафаккирлари асарларини ўқиб, ҳар қандай илмий кашфиёт қилиш учун улардан баҳраманд бўлишга интилади. Бунинг сабаби бор. Шундай қилиб, VII-XIII асрларда ислом фани ва ислом маданияти ўзининг юксак тараққиёт даврини бошидан кечирди.

Уларнинг илмий соҳадаги деярли барча кашфиётлари ва тадқиқотлари янги кашфиётлар учун енгил маслаҳатларга эга. Бу борада Ғарбда Беруний ва бошқа Шарқ даҳолари ижодига доимий мурожаат қилиш ўша даврда барпо этилган ислом сивилизациясининг битмас-туганмаслигини кўрсатади. Берунийнинг бугунги кунгача етиб келган асарлари билан ўқувчиларимизни таништирмақчимиз. Асарнинг аҳамиятини ҳисобга олган инглиз тадқиқотчилари 1878-1879 йилларда уни ўз тилларига таржима қилганлар. Асар инглиз олимларига шу қадар кучли таъсир кўрсатганки, улар бу масалани ҳукумат олдида қўйган ва 1923 йилда уни қайта таржима қилишга муваффақ

бўлган. Эътибор беринг, ушбу асарда Беруний тақвими, сана, маданият ва астрономия ҳақида маълумотлар беради. Бу маълумотлар ҳозирги вақтда олимларни қизиқтираётган айрим йўналишларни юқори даражада тушунтириш имконини беради ва бу илмий тадқиқотчиларнинг унга қайта-қайта мурожаат қилишларига сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Иззетова Э.М. Философские проблемы науке (Наука и гуманизм философско – методологические аспекты). – Ташкент: Издательство национального общества философов Узбекистан, 2007. – С. 19.
2. Гусейнов А.А. Этика науки. Москва, 1999. – С. 103.
3. Мирутенко Л.Г. Трансформация предмета этики науки на современном этапе развития науки // Вестник пермского университета. – Перм. 2013. – С. 53.
4. Абу Райҳон Беруний. Қимматбаҳо жавоҳирлар ҳақида билимлар китоби. “Китоб ал-Жамоҳир ри-Маърират ал-Жавоҳир” (Минералогия) китобидан. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 8.
5. Шираванд Мохсен. Социально-метафизические основания экологической этики: на основе анализа философии Ф. Бэкона и трансцендентной философии Муллы Садра: диссертация ... кандидата философских наук. - Казань, 2015. – С. 27.
6. Izzetova E. Zi The transformation of ideas about Etical-Humanistic dimensions of science the context of Eastern and Western Philosopy // International Journals of Sciences and High technologies. Vol.18 №2 Jannary 2020. //153 (pp.151-159) <http://ijpsat.ijsh-t-journals.org>
7. Бируни Абу Рейхан. Индия: Пер. с араб. / Репринт с изд. 1963. – Москва: Ладомир, 1995. – С. 57.
8. Бируни Абу Рейхан. Памятники минувших поколений // Избр. произведения. Т. I. – Ташкент: Фан, 1957. – С. 414.
9. Мадаминов А.А. Морально-нравственное формирование человека в трактатах учёных Фараби и Бируни // Достижения науки и образования, 2018, № 13 (35). – С. 50.
10. Асрарова М.У. Вклад Абу Райхана Бируни в развитие науки // Проблемы педагогики, 2018, № 2 (34). – С. 35.
11. Раматов Ж.С. Анализ взглядов беруни на человека и общество // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.- Ташкент, 2022. – С. 782.

O‘ZBEKISTON VA QO‘SHNI DAVLATLARDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA “TRANSLANGUAGING” YONDASHUVINING TAQQOSLANISHI

Davlatova Muxsina Yendir qizi

O‘zDJTU Xorijiy til va adabiyot mutaxassisligi magistranti

mukhsinadavlatova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston va qo‘shni davlatlarda boshlang‘ich ta‘lim jarayonida (translanguaging) yondashuvining tatbiqi taqqosiy jihatdan tahlil qilinadi. Translanguaging – o‘quvchilar bir nechta til resurslaridan integratsiyalashgan holda foydalanib, fikr almashish, muloqot qilish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Tadqiqotda til siyosati, o‘quv dasturlari, o‘qituvchilar tayyorgarligi, darsliklar va metodik ta‘minot, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish omillari kabi mezonlar asosida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston tajribalari taqqoslanadi.

Maqolada, avvalo, har bir mamlakatning davlat til siyosati va ko‘p tillilikka doir rasmiy hujjatlari o‘rganiladi. Keyin boshlang‘ich ta‘lim dasturlarida ona tili va chet tillarining o‘rni, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish imkoniyatlari va mavjud tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, til o‘tkazishga bo‘lgan munosabati hamda amaliyotdagi real qo‘llanish holatlari qiyosiy ko‘rib chiqiladi.

Natijada, O‘zbekistonda translanguaging yondashuvi milliy qadriyatlarni saqlagan holda, ko‘p tillilikni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani oshirish va xalqaro standartlarga yaqinlashishda muhim o‘rin tutishi aniqlanadi. Qo‘shni davlatlar tajribasi bilan taqqoslash esa mavjud muammolarni bartaraf etish va samarali metodikalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Translanguaging, boshlang‘ich ta‘lim, ko‘p tillilik, til siyosati, taqqosiy ta‘lim, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo davlatlari, kommunikativ kompetensiya, pedagogik amaliyot, metodik ta‘minot.*

KIRISH

XXI asrda ta‘lim jarayonida til va madaniyatlararo muloqot masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur‘atlarda rivojlanishi hamda xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida ko‘p tillilik (multilingualism) ta‘lim siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu jarayonda

boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni bir nechta til resurslaridan foydalanishga o'rgatish, ularning kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi muhim o'rin tutadi.

Translanguaging yondashuvi – zamonaviy pedagogikaning innovatsion konsepsiyasi bo'lib, u o'quvchilarning mavjud ona tili bilimlarini boshqa tillarni o'zlashtirishda faol qo'llashiga imkon beradi. Bu metod nafaqat chet tilini o'rgatishda, balki fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitishda ham samarali natijalar beradi. Shu sababli, so'nggi yillarda translanguaging yondashuvi dunyo ta'lim tizimida keng tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda ham boshlang'ich ta'lim tizimida til o'qitish sifatini oshirish, ko'p tillilik kompetensiyasini shakllantirish hamda xalqaro tajribaga mos keluvchi metodik yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “2020–2030 yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”da xorijiy tillarni erta bosqichdan boshlab o'qitish, innovatsion metodlarni qo'llash zarurligi alohida ta'kidlangan.

Qo'shni davlatlarda – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonda ham boshlang'ich ta'limda til siyosati va metodik yondashuvlar turlicha shakllangan. Masalan, Qozog'istonda “uch tilli ta'lim” konsepsiyasi asosida davlat tili, rus tili va ingliz tilining parallel o'qitilishi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, Qirg'izistonda rus tilining ustuvor mavqei saqlanib qolmoqda. Tojikiston va Turkmanistonda esa ona tiliga tayanilgan holda bosqichma-bosqich chet tillarini o'rgatish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va qo'shni davlatlarda boshlang'ich ta'limda translanguaging yondashuvining o'rni va tatbiqini taqqosiy o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil nafaqat mavjud tajribalarni solishtirish va umumlashtirish, balki milliy ta'lim tizimida samarali metodik yechimlarni ishlab chiqish uchun ham muhim nazariy asos yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida translanguaging yondashuvi o'quvchilarning mavjud ona tilidan chet tillarni o'zlashtirishda vosita sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Bu metodik yondashuv bir tomondan o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan bilimlarni mustahkamlash va fanlararo integratsiyani ta'minlashga yordam beradi. **García va Wei (2014)** ta'kidlaganidek, translanguaging o'quvchilar uchun “til chegaralarini buzib, fikrni yanada erkin va samarali ifodalash imkonini beruvchi strategiya” hisoblanadi.²¹ Shu bois, ko'p tillilik muhitida

²¹ García O., Wei L. *Translanguaging: Language, Bilingualism and Education*. – New York: Palgrave Macmillan, 2014. – 175 p

translanguaging nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va kognitiv rivojlanishning ham muhim omili sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimida chet tillarni erta bosqichdan boshlab o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ona tili va chet tilini uyg‘unlashtirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, xalqaro standartlarga yaqinlashish maqsad qilingan. Shu bilan birga, O‘zbekiston tajribasida milliy qadriyatlar va davlat tilining ustuvorligini saqlagan holda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga intilish kuzatilmoqda.

Qo‘shni davlatlarning tajribasi ham qiziqarli taqqoslash imkoniyatlarini beradi. Masalan, Qozog‘istonda uch tilli ta‘lim konsepsiyasi asosida davlat tili, rus tili va ingliz tili bosqichma-bosqich o‘qitilmoqda. Qirg‘izistonda rus tilining kuchli mavqei saqlanib qolgan bo‘lib, boshlang‘ich ta‘limda translanguagingasosan ona tili va rus tili o‘rtasida kuzatiladi. Tojikistonda esa ona tilida ta‘lim ustuvor bo‘lib, chet tillari asta-sekin joriy qilinmoqda. Bu esa o‘quvchilarning til kompetensiyalarini shakllantirishda turli xil model va strategiyalarni yuzaga keltirmoqda.

Psixolingvistik nuqtai nazardan, translanguaging o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ya‘ni ular bir tildagi bilimlarini boshqa tilda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. “Vygotskiy (1978)”ning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, bola murakkab bilimlarni kattalar yoki ko‘proq bilimga ega tengdoshlari yordamida egallaydi. Translanguaging bu jarayonda ona tilidan chet tilini o‘rganishda ko‘prik vazifasini bajaradi.²²

Bundan tashqari, **Cummins (2001)** o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarning kognitiv-akademik til kompetensiyasi (CALP) rivojlanishida ona tilining o‘rni beqiyos ekanini ta‘kidlaydi.²³ Unga ko‘ra, bola ona tilidagi bilim va ko‘nikmalardan chet tilini o‘zlashtirish jarayonida faol foydalanadi. Demak, boshlang‘ich ta‘limda translanguagingyondashuvi o‘quvchilarning til boyligini kengaytirish, tafakkurini rivojlantirish va ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirishda muhim metod sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Translanguaging yondashuvi haqida ilmiy adabiyotlarda turli nazariy va amaliy qarashlar mavjud. Avvalo, bu atama ilmiy muomalaga XX asrning oxirida kirib kelgan bo‘lsa-da, u hozirgi kunda ko‘p tillilik sharoitida ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim metodlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. *O. García va L. Wei* o‘z tadqiqotlarida translanguagingni o‘quvchilar uchun til chegaralarini

²² Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

²³ Cummins J. Bilingual Children’s Mother Tongue: Why Is It Important for Education? // *Sprogforum*. – 2001. – Vol. 7, № 19. – P. 15–20

kengaytiruvchi, bilimlarni integratsiyalovchi va muloqot jarayonini yanada erkinlashtiruvchi strategiya sifatida baholaydilar.²⁴ Ularning ta'kidlashicha, bu yondashuv o'quvchilarning o'z bilim resurslarini to'liq ishga solishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, *L. S. Vygotskiyning* “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi til o'tkazishning psixologik asoslarini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi. Unga ko'ra, bola yangi bilimlarni ko'pincha mavjud til resurslariga tayangan holda egallaydi. Demak, translanguaging jarayoni bolalarning tabiiy rivojlanish jarayoniga mos keladi va ularning til o'rganishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.²⁵

J. Cummins esa o'z ilmiy izlanishlarida o'quvchilarning ona tilida shakllangan bilimlari chet tilini o'zlashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini isbotlagan. Unga ko'ra, ona tilidagi bilimlar poydevor vazifasini o'tab, o'quvchiga ikkinchi tilni tezroq va samaraliroq o'rganish imkonini beradi.²⁶ Bu nazariy yondashuv O'zbekiston ta'lim siyosatida ham o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan “2020–2030 yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”da xorijiy tillarni erta bosqichdan boshlab o'qitish, innovatsion metodlarni tatbiq etish va ko'p tillilik muhitini shakllantirish masalalari belgilab berilgan.²⁷ Shu bilan birga, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston tajribalarida ham ko'p tillilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jarayonda translanguaging yondashuvi o'ziga xos shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, translanguaging nafaqat nazariy asosga, balki amaliy samaradorlikka ham ega bo'lib, u ko'p tillilik sharoitida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi dolzarb metod hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlarni, mavjud tajribalarni va rasmiy hujjatlarni o'rganish natijasida shuni ko'rish mumkinki, translanguaging yondashuvi ko'p tillilik sharoitida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va qo'shni davlatlarda bu jarayon turlicha shakllangan, biroq umumiy maqsad – o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

²⁴ García O., Wei L. *Translanguaging: Language, Bilingualism and Education*. – New York: Palgrave Macmillan, 2014. – 175 p.

²⁵ Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

²⁶ Cummins J. Bilingual Children's Mother Tongue: Why Is It Important for Education? // *Sprogforum*. – 2001. – Vol. 7, № 19. – P. 15–20.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *2020–2030 yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent, 2019.

O‘zbekiston tajribasida translanguaging yondashuvi milliy qadriyatlar va davlat tilining ustuvorligini saqlagan holda joriy etilmoqda.²⁸ Bu jarayon asosan chet tillarni (xususan, ingliz tilini) o‘qitishda qo‘llanilib, ona tilidan ko‘prik sifatida foydalanish orqali o‘quvchilarning til o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Bunda “2020–2030 yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalar muhim yo‘nalish sifatida xizmat qilmoqda.

Qozog‘iston tajribasida esa “uch tilli ta’lim” konsepsiyasi asosida translanguagingkengroq tatbiq etilgan bo‘lib, davlat tili, rus tili va ingliz tilining parallel o‘qitilishi o‘quvchilarga ko‘p tillilik kompetensiyasini barqaror shakllantirish imkonini bermoqda.²⁹ Qirg‘izistonda esa rus tilining kuchli mavqei sababli boshlang‘ich ta’limda asosan ona tili va rus tili o‘rtasida translanguaging jarayonlari kuzatiladi.³⁰ Tojikistonda esa boshlang‘ich ta’limda ona tili ustuvor o‘rin tutadi, chet tillari esa yuqori sinflardan boshlab faolroq tatbiq qilinadi.³¹ Bu esa o‘quvchilarda ikkinchi tilni o‘rganishda ona tiliga tayanish ehtiyojini kuchaytiradi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan, translanguaging jarayoni o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi. **Vygotskiyning** “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ham bu jarayonda ona tilidan foydalanishning tabiiy zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, **Cumminsning** CALP konsepsiyasiga ko‘ra, ona tilidagi bilimlar chet tilini o‘zlashtirishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Demak, translanguaging faqat metod emas, balki o‘quvchilarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

- O‘zbekiston va qo‘shni davlatlarda translanguaging yondashuvining qo‘llanish shakllari farq qiladi, biroq barcha tajribalar o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan.
- Qozog‘istonda translanguaging “uch tilli ta’lim” konsepsiyasi asosida kengroq qo‘llanilsa, O‘zbekistonda u milliy qadriyatlarni saqlagan holda bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.
- Qirg‘iziston va Tojikiston tajribasi esa ko‘proq ona tiliga asoslangan bo‘lib, chet tilini o‘zlashtirishda til o‘tkazishning tabiiy ehtiyoji seziladi.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *2020–2030 yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent, 2019.

²⁹ Kazakhstan Ministry of Education. *Concept for the Development of Trilingual Education in the Republic of Kazakhstan*. – Astana, 2017.

³⁰ Qirg‘iziston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi. *Boshlang‘ich ta’lim dasturi va ko‘p tillilik siyosati*. – Bishkek, 2018.

³¹ Tojikiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Boshlang‘ich ta’lim kontsepsiyasi*. – Dushanbe, 2019.

• Nazariy jihatdan García va Wei, Vygotskiy hamda Cumminslarning qarashlari til o‘tkazishning nafaqat lingvistik, balki kognitiv va psixologik ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, translanguaging yondashuvi boshlang‘ich ta‘limda ko‘p tillilikni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani oshirish va xalqaro ta‘lim standartlariga moslashishda muhim omil sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, translanguaging yondashuvi bugungi globallasuv va ko‘p tillilik davrida boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda muhim metodlardan biri hisoblanadi. U o‘quvchilarning ona tiliga tayanib, yangi tilni samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi, shu bilan birga lingvistik, kognitiv va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosalar:

1. O‘zbekistonda translanguaging yondashuvi milliy qadriyatlarni asrab-avaylagan holda joriy etilmoqda va bu jarayon davlat tilining ustuvorligini saqlash bilan birga xorijiy tillarni o‘zlashtirishni jadallashtirmoqda.

2. Qo‘shni davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, Qozog‘iston “uch tilli ta‘lim” konsepsiyasi orqali til o‘tkazishni tizimli asosda joriy qilmoqda, Qirg‘iziston va Tojikiston esa ko‘proq ona tiliga tayangan holda chet tillarini bosqichma-bosqich o‘rgatmoqda.

3. Nazariy adabiyotlarda García va Wei (2014), Vygotskiy (1978), Cummins (2001) kabi olimlarning qarashlari til o‘tkazishning lingvistik, kognitiv va psixologik afzalliklarini ilmiy asoslab beradi.

4. Translanguaging yondashuvi boshlang‘ich ta‘limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ta‘lim samaradorligini oshirish va xalqaro ta‘lim standartlariga moslashishda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Boshlang‘ich ta‘lim dasturlariga translanguaging metodini tizimli ravishda kiritish, o‘quvchilarning ona tilidan chet tiliga o‘tishda “ko‘prik” sifatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

2. O‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarida translanguaging metodologiyasi bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Qo‘shni davlatlar tajribasini chuqur o‘rganib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan ko‘p tillilik dasturlarini ishlab chiqish zarur.

4. Boshlang‘ich ta‘lim uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni translanguaging yondashuvi asosida ishlab chiqish, bunda multimediya va raqamli resurslardan keng foydalanish kerak.

5. Translanguaging metodining o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi, til kompetensiyasi va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalariga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan amaliy tadqiqotlarni ko‘paytirish lozim.

6. Qishloq va shahar maktablari o‘rtasida translanguaging metodini qo‘llash imkoniyatlarini taqqoslash hamda har bir hudud sharoitiga mos metodik tavsiyalar ishlab chiqish foydali bo‘ladi.

Umuman olganda, translanguaging yondashuvini boshlang‘ich ta‘limda samarali qo‘llash O‘zbekiston ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish va jamiyatda ko‘p tillilik madaniyatini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. García O., Wei L. *Translanguaging: Language, Bilingualism and Education*. – New York: Palgrave Macmillan, 2014. – 175 p.
2. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
3. Cummins J. Bilingual Children’s Mother Tongue: Why Is It Important for Education? // *Sprogforum*. – 2001. – Vol. 7, № 19. – P. 15–20.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *2020–2030 yillarda ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent, 2019.
5. Nazarov, Q. (2020). *Ko‘p tillilik sharoitida ta‘lim samaradorligini oshirish masalalari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Bekmurodova, M. (2021). Boshlang‘ich ta‘limda xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion metodlar. // *Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*. – № 2. – B. 44–52.
7. Kazakhstan Ministry of Education. *Concept for the Development of Trilingual Education in the Republic of Kazakhstan*. – Astana, 2017.
8. Qirg‘iziston Respublikasi Ta‘lim va fan vazirligi. *Boshlang‘ich ta‘lim dasturi va ko‘p tillilik siyosati*. – Bishkek, 2018.
9. Tojikiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. *Boshlang‘ich ta‘lim kontsepsiyasi*. – Dushanbe, 2019.
10. UNESCO. *Education in a Multilingual World*. – Paris: UNESCO Publishing, 2003. – 37 p.

O‘ZBEK TILI TIBBIY ELEKTRON LUG‘ATLARI AMALIY LEKSIKOGRAFIK RIVOJLANISHINING YANGI BOSQICHI SIFATIDA

Muxamatova Dilbar Xayot qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiy terminologik lug‘atlarning elektron shaklga o‘tishi va bu jarayonning o‘zbek tilidagi amaliy leksikografiya rivojiga ta’siri o‘rganilgan. Elektron lug‘atlarning afzalliklari, jumladan tezkor qidiruv, yangilanish imkoniyati, multimedia bilan boyitilish kabi jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud muammolar, ularni hal etish yo‘llari hamda elektron tibbiy lug‘atlarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron lug‘at, tibbiy terminologiya, o‘zbek tili, amaliy leksikografiya, yangilanish, multimedia.*

ABSTRACT

This article examines the transition of medical terminological dictionaries into electronic formats and its impact on the development of applied lexicography in the Uzbek language. The advantages of electronic dictionaries such as fast search, regular updates, and multimedia integration are analyzed. In addition, the paper highlights existing challenges and discusses the scientific and practical significance of electronic medical dictionaries.

Keywords: *electronic dictionary, medical terminology, Uzbek language, applied lexicography, updating, multimedia*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается переход медицинских терминологических словарей в электронный формат и его влияние на развитие прикладной лексикографии на узбекском языке. Проанализированы преимущества электронных словарей, включая быстрый поиск, возможность обновления и мультимедийное сопровождение. Освещены существующие проблемы и научно-практическая значимость электронных медицинских словарей.

Ключевые слова: *электронный словарь, медицинская терминология, узбекский язык, прикладная лексикография, обновление, мультимедиа*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot texnologiyalari rivoji tilshunoslik va leksikografiya sohasiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. An’anaviy qog‘oz shaklidagi lug‘atlar asta-sekin elektron ko‘rinishga o‘ta boshladi. Elektron lug‘atlar qidiruv

tezligi, interfaolliigi, muntazam yangilanish imkoniyati bilan zamonaviy ilmiy-amaliy faoliyatda keng qo'llanmoqda. Shu jumladan, tibbiy terminologik lug'atlar ham elektron shaklda yaratilishi o'zbek tilida amaliy leksikografik rivojlanishning yangi bosqichi sifatida qaralmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida xalqaro hamkorlik kuchayib bormoqda. Tibbiyot sohasi mutaxassislarining turli mamlakatlardan kelgan ma'lumotlar bilan ishlashi uchun yagona terminologik maydon zarur. Shu nuqtai nazardan, elektron lug'atlar tilshunoslik va tibbiyotning kesishgan nuqtasida yaratiladigan muhim amaliy vosita hisoblanadi.

O'zbek tilida tibbiy lug'atlar rivojlanishi

O'zbek tilidagi tibbiy lug'atlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol tuzila boshlandi. Avvaliga ular ikki tilli (o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha) ko'rinishda nashr qilindi. Keyinchalik ayrim maxsus sohalar uchun lug'atlar yaratildi: farmatsevtika, jarrohlik, stomatologiya. XXI asrga kelib inglizcha-o'zbekcha tibbiy lug'atlar ham tuzildi. Ammo bularning barchasi qog'oz ko'rinishda bo'lib, foydalanuvchi uchun doimiy yangilash imkoniyatidan mahrum edi.

Masalan, 1980-yillarda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha tibbiy terminlar lug'ati" o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, bugungi zamonaviy terminologik yangiliklarni qamrab ola olmaydi. Shu bois elektron lug'atlar bu bo'shliqni to'ldirish uchun eng samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Elektron lug'atlarning afzalliklari

Elektron lug'atlar quyidagi afzalliklarga ega:

- Tezkor qidiruv – foydalanuvchi atamani soniyalar ichida topa oladi.
- Ko'p formatlilik – matn, ovoz, rasm, video bilan boyitilishi mumkin.
- Yangilanib borish – yangi terminlar qo'shib boriladi.
- Interfaollik – foydalanuvchi izoh, sinonim, tarjima, lotincha atama kabi qo'shimcha ma'lumotlarga bir zumda ega bo'ladi.
- Onlayn foydalanish – internet orqali istalgan joyda ochish mumkin.

Bugungi kunda dunyo miqyosida Oxford Medical Dictionary yoki Merriam-Webster Medical Dictionary kabi elektron resurslar mutaxassislar uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbek tilida ham shunday keng qamrovli elektron lug'atlarni yaratish muqarrar ehtiyojga aylangan.

O'zbek tilida elektron tibbiy lug'atlarning ahamiyati

O'zbek tili uchun elektron tibbiy lug'atlar yaratilishi bir necha jihatdan muhimdir:

1. Milliy terminologiya me'yorini mustahkamlash. Elektron shaklda yagona bazaning mavjudligi chalkashliklarni kamaytiradi.

2. Mutaxassislar va talabalar uchun qulaylik. Tibbiyot oliygohlari va amaliyotchi shifokorlar bir xil manbadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Tarjima va xalqaro hamkorlik. Ingliz, rus va boshqa tillardagi tibbiy terminlarning o'zbekcha muqobillarini tezkor topish imkonini beradi.

4. Yangilanish va kengayish. Har yili yuzaga kelayotgan yangi kasallik nomlari (COVID-19, postkovid sindromi, telemeditsina) tezda qo'shilishi mumkin.

5. O'quv jarayonini yengillashtirish. Elektron lug'atlar tibbiyot oliygohlari uchun interaktiv ta'lim vositasi sifatida xizmat qiladi.

Misol tariqasida, "Telemeditsina" atamasi 2000-yillar boshlarida lug'atlarda uchramagan bo'lsa, bugungi elektron lug'atlarda u keng izoh va inglizcha muqobili bilan berilishi mumkin.

Amaliy leksikografiyada yangi bosqich

Elektron tibbiy lug'atlar oddiy terminologik qo'llanma emas, balki interaktiv ma'lumotlar bazasi sifatida ham ishlaydi. Ular:

- fonetik talaffuzni eshittirish;
- atamalarni tasniflash (masalan, anatomiya, farmakologiya, epidemiologiya bo'yicha);
- vizual materiallar (organlar rasmlari, jarrohlik usullari chizmalari);
- onlayn forum va izohlar orqali foydalanuvchi fikrlarini yig'ish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, elektron lug'atlar mobil ilova ko'rinishida ishlab chiqilishi ham mumkin. Bu esa shifokorlarga bemor qabulida, talabalarga esa dars jarayonida tezkor foydalanish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek tilida yaratilgan tibbiy lug'atlar orasida elektron shaklda keng qamrovli bazaga ega bo'lganlari hozircha cheklangan. Ammo so'nggi yillarda ayrim loyihalar amalga oshirildi. Masalan, o'zbekcha-inglizcha tibbiy terminlar bazasi yaratilgan va onlayn foydalanishga taqdim etilgan. Shunga qaramay, ularning qamrovi cheklangan, barcha tibbiyot sohalarini to'liq qamrab olmagan.

Shuningdek, elektron lug'atlarni yaratishda uchraydigan muammolar ham mavjud:

- terminlarning bir necha variantda qo'llanilishi (masalan, virus – virüs);
- xalqaro terminlarning o'zbekchallashtirish me'yorlari to'liq ishlab chiqilmaganligi;
- texnik platformalarning turlicha bo'lishi tufayli yagona standart yo'qligi.

Bu muammolarni hal etish uchun terminologiya kengashlari, tilshunoslar va tibbiyot mutaxassislari hamkorligi zarur.

XULOSA

O‘zbek tilida tibbiy lug‘atlarni elektron shaklda yaratish amaliy leksikografik rivojlanishning yangi bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon tilning boyishini ta’minlab, tibbiyot sohasi uchun yagona terminologik me’yorni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida elektron tibbiy lug‘atlar multimedia elementlari bilan boyitilib, xalqaro elektron lug‘atlar bilan integratsiya qilinsa, ularning samaradorligi yanada ortadi.

Shu sababli elektron tibbiy lug‘atlar ishlab chiqish, ularni muntazam yangilash, til me’yorlarini saqlash va ilmiy asosda nazorat qilish dolzarb vazifadir. Bu ishlar amalga oshirilsa, o‘zbek tibbiy terminologiyasi zamonaviy global ilmiy axborot maydoniga to‘laqonli kirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sirojiddinov S. O‘zbek tili terminologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1970.
2. Karimov R. O‘zbekcha-ruscha tibbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent, 1980.
3. Raximov A. Farmatsevtik terminlar lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
4. Jo‘rayev M. Til va soha terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Oxford Medical Dictionary (online resurs).
6. Merriam-Webster Medical Dictionary (online resurs).
7. Elektron leksikografiya bo‘yicha zamonaviy ilmiy maqolalar va internet manbalari.

NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNI REABILITATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK JIHLATLARI

G‘anieva Gulruh Tavakkaljon qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti talabasi

E-mail: gulruh.ganieva@mail.ru

Orcid: 0009-0005-8952-4605

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan bolalarni reabilitatsiya qilish jarayonining pedagogik jihatlari yoritilgan. Reabilitatsiya jarayonida ta’lim-tarbiya metodlarining o‘rni, pedagoglarning kasbiy yondashuvi, shuningdek, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada maxsus pedagogika va ijtimoiy reabilitatsiya jarayonining uzviy bog‘liqligi, ta’limiy texnologiyalar va innovatsion metodlarning qo‘llanilishi ham yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari nogiron bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Nogiron bolalar, reabilitatsiya, pedagogik yondashuv, maxsus ta’lim, ijtimoiy moslashuv, innovatsion metodlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены педагогические аспекты процесса реабилитации детей с ограниченными возможностями здоровья. Анализируется роль образовательных методов, профессиональный подход педагогов, а также влияние на социальную адаптацию и личностное развитие ребёнка. Особое внимание уделено взаимосвязи специальной педагогики и процесса социальной реабилитации, применению образовательных технологий и инновационных методов. Результаты исследования показывают значимость педагогического сопровождения для успешной интеграции детей с инвалидностью в общество.

Ключевые слова: *Дети с инвалидностью, реабилитация, педагогический подход, специальное образование, социальная адаптация, инновационные методы.*

ABSTRACT

This article explores the pedagogical aspects of the rehabilitation process of children with disabilities. It examines the role of educational methods, the professional approach of teachers, and their impact on children’s social adaptation and personal development. Special attention is given to the interrelation between special pedagogy and social rehabilitation, as well as the application of educational

technologies and innovative methods. The findings highlight the importance of pedagogical approaches in ensuring the successful integration of children with disabilities into society.

Keywords: *Children with disabilities, rehabilitation, pedagogical approach, special education, social adaptation, innovative methods.*

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ro‘y berayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘lim tizimida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limida inklyuziv ta‘limga bo‘lgan yangi ijtimoiy talab shakllanmoqda. Inklyuziya (qo‘shilish, jalb etilish) – bu yordam va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga qanday shaklda va ko‘rinishda bo‘lishidan qat‘i nazar, zarur kafolatlarni ta‘minlashdir. Ta‘lim sohasida bu – imkoniyati cheklangan o‘quvchilar o‘z tengdoshlaridek oddiy maktablarda tahsil olishi, shaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlariga mos intilishlarga ega bo‘lishi va ular zarur yordam bilan ta‘minlanishini anglatadi.

Imkoniyati cheklangan bolaning inklyuziv ta‘limi asosida uning tengdoshlari bilan birgalikda ta‘limiy va ijtimoiy tajriba orttirishi yotadi. Inklyuziv ta‘limning samaradorligini ta‘minlovchi eng muhim shart – bu barcha bolalarning, jumladan, maxsus ta‘lim ehtiyojiga ega bolalarning ham ijtimoiylashuvining muvaffaqiyatli kechishi va ijtimoiy tajriba orttirishidir [1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ta‘lim tizimi hali imkoniyati cheklangan bolalar ehtiyojlariga yetarli darajada moslashtirilmagan, jamiyat esa nogironlarni teng huquqli a‘zo sifatida qabul qilishga tayyor emas. Afsuski, bunga faqat bolalar yoki pedagoglarga emas, balki ota-onalar ham tayyor emas.

Bugungi kunda global muammolardan biri – nogiron bolalarning to‘laqonli ta‘lim xizmatlari va ta‘lim sohasiga kirish imkoniyatining cheklanishidir. Buning oqibatida bolalar va ularning oilalari ijtimoiy izolyatsiyaga duch keladilar, bu esa moddiy qiyinchiliklar va kelajak rivojlanish istiqboli yo‘qligi tuyg‘usi bilan yanada og‘irlashadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar shuni ko‘rsatadiki, nogiron bolalarning ahvolini yaxshilash, ularning hayot sifatini oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish va amalga oshirish dolzarb zarurat hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha va maktab ta‘limi muassasalari bolalarning ijtimoiylashuviga, ularni jamiyatga muvaffaqiyatli qo‘shilishiga xizmat qiluvchi, har

bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, kompleks tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga tayyor [2].

Uzoq yillar davomida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va rivojlantirishda muammolardan biri sifatida ularning boshlang'ich ta'lim bosqichida psixokorreksion yordamni optimallashtirish masalasi saqlanib kelmoqda. Ko'plab psixik funksiyalarning yosh me'yoriga nisbatan shakllanmaganligi imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi jarayoniga sezilarli to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, sezgi va nutq kabi bilish jarayonlariga bevosita bog'liq bo'lgan psixikaning asosiy sohalaridagi orqada qolish ularning o'quv faoliyatini egallashini sezilarli darajada susaytiradi.

Shu davrda kichik maktab yoshidagi bolalarga ijtimoiy va bilish kompetensiyalarini egallashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan kompleks differensial yordam ko'rsatish zarur. Bu esa oxir-oqibat, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi va integratsiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyat shakllanishining hozirgi bosqichida bolalar va o'smirlar sog'ligining yomonlashuvi, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar sonining ortishi kuzatilmoqda. Yuqorida qayd etilgan ushbu tendensiya ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, u atrof-muhit va ekologik vaziyat, jamiyatdagi iqtisodiy holat, irsiyat va otionalarning sog'lig'i, turmush sharoitlari, oiladagi ta'lim-tarbiya hamda ta'lim muassasasidagi sharoitlarga bog'liqdir [2].

Sog'ligida surunkali nuqsonlari bo'lgan bolalar atrof-muhitga moslasha olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratish zarur. Bunday bolalarning katta qismi kasalligi tufayli tengdoshlardan ijtimoiy izolyatsiyada bo'lib, faqat maktab yoki shifoxona doirasidagina boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi [2].

Imkoniyati cheklangan bolalarning tavsifi ko'plab xususiyatlarga bog'liq bo'lsa-da, asosiy belgilovchi omil – bu bolaning nuqsonidir. Ana shu nuqson kelgusida individning amaliy faoliyati darajasini belgilab beradi.

L.S. Vigotskiy imkoniyati cheklangan bolalarni turli ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlarga jalb etish maqsadga muvofiqqligini ta'kidlagan. Bu ularning ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [4].

V.A. Lapshin va B.P. Puzanov taklif qilgan tasnifga ko'ra, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- eshitish qobiliyati buzilgan bolalar;
- ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar;
- og'ir nutq buzilishlariga ega bolalar;
- somatik kasalliklarga chalingan bolalar;
- aqli zaif bolalar;

psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar;
tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalar;
erta bolalik autizmi kasalligi bo‘lgan bolalar [5].

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktab ta’limining maqsadi nafaqat ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, balki bolaning imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirishdan iboratdir. Qulay sharoit va muhit tufayli o‘quvchi o‘zining tabiiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi mumkin [4].

Tabiiy o‘yin muhitida har bir bola o‘zini va o‘z o‘rnini topishi, tashabbuskorlik va individualligini namoyon etishi, o‘z manfaatlarini erkin amalga oshirishi mumkin. Ana shu qobiliyatlar va ta’limiy ehtiyojlar ushbu maqsadlarga erishish uchun optimal asos bo‘lib xizmat qiladi.

Faollik barcha psixik jarayonlarning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli kechishini belgilaydi. Faollik darajasining ortishi bilan idrok, xotira, tafakkur jarayonlarida bilish faoliyatining samaradorligi oshadi. O‘quv mashg‘ulotlari uchun topshiriqlarni tanlashda, avvalo, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslik tamoyiliga amal qilish zarur, biroq materialni ortiqcha soddalashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi [2].

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo‘lgan bolalarni rehabilitatsiya qilishning pedagogik jihatlari – bu ularni jamiyatga moslashtirish, ijtimoiy integratsiyani ta’minlash, shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan keng qamrovli tizimdir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish orqali biz nafaqat bolalarning kelajagini yoritamiz, balki insonparvarlik, mehr-shafqat va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan taraqqiy etgan jamiyatni barpo etishga ham zamin yaratamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бабанский, Ю. К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе / Ю. К. Бабанский. – Москва: Просвещение, 1985. – 208 с.
2. Багаева, Г. Н. Социальная работа с семьей ребенка с ограниченными возможностями / Г. Н. Багаева, Т. А. Исаева. – Москва: ВЛАДОС, 2005. – 451 с.
3. Большакова, Ю. В. Психолого-педагогические особенности сопровождения детей с ограниченными возможностями здоровья в инклюзивном образовательном пространстве / Ю. В. Большакова. – Москва: Педагогика, 2002. – 349 с.
4. Выготский, Л. С. Основные проблемы дефектологии // Том 5 из собрания сочинений в шести томах / Л. С. Выготский. – Москва: Педагогика, 1982.



5. Щепко, Е. Л. Психодиагностика нарушений развития / Е. Л. Щепко. – Москва: Академия, 2000. – 410 с.

PROBLEMS FACED IN LINGUISTICS

Mirzamukhamedova Iroda

+99899813061

ABSTRACT

Language is one of the most important foundations of human culture. It is not only a means of communication, but also an integral part of thinking, culture, society and history. Linguistics, on the other hand, is the science that studies this complex system and includes various approaches, theories and techniques. At the same time, there are many problems in linguistics that still require scientific research and analysis. Language is one of the most important foundations of human culture. It is not only a means of communication.

Keywords: Language, Culture, Society, History, Article, Linguistics.

АННОТАЦИЯ

Язык - одна из важнейших основ человеческой культуры. Это не только средство коммуникации, но и неотъемлемая часть мышления, культуры, общества и истории. Лингвистика, с другой стороны, - наука, изучающая эту сложную систему и включающая в себя различные подходы, теории и методики. В то же время в лингвистике существует множество проблем, которые все еще требуют научных исследований и анализа. Английский язык - одна из важнейших основ человеческой культуры. Это не только средство коммуникации.

Ключевые слова: Язык, Культура, Общество, История, Статья, Лингвистика.

ANNOTATSIYA

Til — insoniyat madaniyatining eng muhim poydevorlaridan biridir. U nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur, madaniyat, jamiyat va tarixning ajralmas bo‘lagidir. Tilshunoslik esa ushbu murakkab tizimni o‘rganuvchi fan bo‘lib, turli yondashuvlar, nazariyalar va metodlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, tilshunoslik fanida ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, ular hali-hanuz ilmiy izlanish va tahlilni talab qiladi. Ushbu maqolada tilshunoslikda uchraydigan asosiy muammolar, ularning sabablari va ilmiy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Til, Madaniyat, Jamiyat, Tarix, Maqola, Tilshunoslik.

INTRODUCTION

This issue is one of the most ancient and pressing problems in linguistics. Does language represent thinking or does thinking exist independently of language? This question is answered differently by different theories. • Sapir-Whorf hypothesis believes that language shapes thinking Relationship between language and thinking.

This issue is one of the most ancient and pressing problems in linguistics. Does language represent thinking or does thinking exist independently of language? This question is answered differently by different theories. • Sapir-Whorf hypothesis believes that language shapes thinking.

• Cognitive linguistics, on the other hand, states that there is a complex, two-way connection between language and thought.

This problem has not yet been completely solved, requiring in-depth analysis among linguistic, psychological and philosophical approaches.

2. Language change and normativity problem

Languages change continuously over time. New words are included, grammatical rules are simplified or updated. However, this situation is contrary to normative language norms in some languages.

* Differences between literary language and spoken language

• Influence of youthful Argos, slang and internet language. Language change and normativity problem

Languages change continuously over time. New words are included, grammatical rules are simplified or updated. However, this situation is contrary to normative language norms in some languages.

* Differences between literary language and spoken language

• Influence of youthful Argos, slang and internet language

* Increase of English (and derived from other languages) words in the language

These cases are the subject of constant debate among linguists, literary critics and representatives of the educational sphere: should the language be kept “clean” or should it be allowed to develop naturally?

3. Problems in language learning and Language Teaching

Language learning, especially as a second language, is a very complex process. The problems encountered on this path are as follows: these cases are the subject of constant debate among linguists, literary critics and representatives of the educational sphere: should the language be kept “clean” or should it be allowed to develop naturally?

3. Problems in language learning and Language Teaching

Language learning, especially as a second language, is a very complex process. The problems encountered on this path are as follows:

- Interference-negative effects of the mother tongue on the language being studied

- Lack of motivation
- Uneven grammatical systems
- * Differences between culture and language

Also, the effectiveness of language teaching methods based on modern technologies has not yet been sufficiently studied.

4. The question of dialects and dialects

Within each language, there are different dialects and dialects. This condition presents the following problems in linguistics:

- Is it possible to bring dialects to the standard language level?
- Discrimination of dialects(e.g. looking down on dialects that are not" pure")
- Survival or extinction of dialects

The standardization movement in many languages is leading to the loss of local dialects, which poses a threat to linguistic diversity.

5. Translation and equivalence problems

Translation is not only a language, but also a bridge between cultures. However, since each language has its own worldview and structure, the following problems arise in translation:

- * Lack of dictionary equivalence the standardization movement in many languages is leading to the loss of local dialects, which poses a threat to linguistic diversity.

- * Lack of dictionary equivalence
- * Contextual differences
- * Vague translation of idioms, irony, metaphors

These put in great demand not only the language knowledge of the translator, but also the cultural knowledge.

6. Problems of artificial intelligence and computer linguistics

In modern times, linguistics is closely connected with technologies. Systems such as machine translation, speech recognition, chatbots (e.g. ChatGPT) are trying to solve linguistic issues from a technical point of view.

But there are also a number of problems here:

- * Semantic ambiguity-computers do not fully understand the meaning

Problems of artificial intelligence and computer linguistics

In modern times, linguistics is closely connected with technologies. Systems such as machine translation, speech recognition, chatbots (e.g. ChatGPT) are trying to solve linguistic issues from a technical point of view.

But there are also a number of problems here:

- * Semantic ambiguity-computers do not fully understand the meaning
- Pragmatic discrepancies-inability to respond correctly depending on the context
- * Language model bias-making false or biased conclusions based on the database

These problems should be solved at the intersection of Informatics, linguistics and ethics.

7. Linguistic discrimination

This problem is due to cases of discrimination in society based on the language of different groups. For example:

- To consider a person who speaks a dialect as " illiterate
 - * Language problems for those with disabilities (e.g. individuals with hearing impairment)se problems should be solved at the intersection of Informatics, linguistics and ethics.
 - Social stereotypes about women's speech, pronunciation or choice of words
- Such cases are analyzed within the framework of the social approach of linguistics (sociolinguistics).

8. The problem of language and nationalism

Language is an important sign of national identity. But in multilingual societies, this problem manifests itself as follows:

- * Priority of the state language and restriction of other languages
- * Language rights of ethnic groups
- * Conflict between language policy and national unity

These problems are considered at the intersection of the fields of sociolinguistics, political linguistics and law.

CONCLUSION

The problems encountered in linguistics are numerically multiple, and in content deep and complex. They are important not only for linguists, but also for educators, translators, politicians, technologists, sociologists and other members of society.

Since language is the heart of human civilization, any problem associated with it directly affects human life and development.

The task facing the science of linguistics is an in — depth analysis of problems, the development of practical solutions and the development of language in accordance with human needs.

If you have a document format (.docx or .pdf) or say — export as needed in Word file view. I can also turn this article into a presentation (PowerPoint) look.

REFERENCES

1. Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268
2. Xue Feng, Research on the Development of Liaoning Coastal Economic Belt, Master's Thesis, Liaoning Normal University, 2009
3. https://www.qstheory.cn/qshyjx/2023-11/29/c_1129998740.htm

СИЁСИЙ БОШҚАРУВДА СИЁСИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН Фойдаланишнинг замонавий усуллари

Хўжаев Анвар Исмаилович

Ўзбекистон миллий университети мустақил тадқиқотчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада замонавий сиёсий бошқарувда рақамли технологиялар, *data-driven* сиёсат ва сиёсий PR воситалари қўлланилиши таҳлил қилинган. Муаллиф рақамлашув жараёнларининг давлат ва жамият ўртасидаги муносабатларга таъсири, катта маълумотлардан фойдаланиш орқали сиёсий қарорларни қабул қилиш самарадорлигини ҳамда жамоатчилик фикрини бошқаришнинг ижобий ва салбий жиҳатларини ёритиб берган.

Калим сўзлар: сиёсий технологиялар, рақамли бошқарув, *data-driven* сиёсат, сиёсий PR, жамоатчилик фикри, рақамлашув.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется применение цифровых технологий, *data-driven* политики и инструментов политического PR в современном политическом управлении. Автор рассматривает влияние процессов цифровизации на взаимоотношения государства и общества, эффективность принятия политических решений на основе больших данных, а также положительные и отрицательные стороны управления общественным мнением.

Ключевые слова: политические технологии, цифровое управление, *data-driven* политика, политический PR, общественное мнение, цифровизация.

ABSTRACT

The article analyzes the use of digital technologies, *data-driven* politics, and political PR tools in modern political governance. The author explores the impact of digitalization processes on state-society relations, the effectiveness of decision-making based on big data, as well as the positive and negative aspects of managing public opinion.

Keywords: political technologies, digital governance, *data-driven* politics, political PR, public opinion, digitalization.

КИРИШ

Рақамлашув ва глобаллашув шароитида сиёсий бошқарув сезиларли трансформацияларга учрамоқда, бу эса замонавий сиёсий технологияларни жорий этишни талаб этмоқда. Улар давлат ва жамият ўртасидаги ўзаро алоқаларни таъминлаш, бошқарув қарорларининг самарадорлигини ошириш,

шунингдек, сиёсий жараёнларнинг ошкоралиги ва легитимлигини кафолатлашнинг ажралмас воситасига айланмоқда.

Глобаллашув ва рақамлашув шароитида сиёсий бошқарув тизимида янги тенденциялар шаклланмоқда. Замонавий сиёсий технологиялар давлат ва жамият ўртасидаги муносабатларни кучайтириш, бошқарув самарадорлигини ошириш, сиёсий жараёнларнинг ошкоралиги ва легитимлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этмоқда. Мақолада рақамли технологиялар, data-driven сиёсат ва сиёсий PR каби усулларнинг афзалликлари ҳамда муаммолари таҳлил қилинади.

Методлар

Тадқиқотда қиёсий таҳлил, мисоллар асосида ўрганиш ва назарий таҳлил усуллари қўлланилди. Хусусан, **АҚШ, Эстония, Жанубий Корея, Сингапур** каби мамлакатлардаги рақамли платформалар ва сиёсий технологиялар тажрибаси ўрганилди.

Ушбу давлатларда аҳоли электрон идентификация орқали овоз бериш, петиция юбориш, давлат қарорлари муҳокамасида қатнашиш имкониятига эга бўлган. Бу эса сиёсий мобилликни ошириш ва жамоатчилик фикрини инобатга олиш механизмларини мустаҳкамлайди [1].

Рақамлашув жараёнлари фуқаролар билан давлат органлари ўртасидаги муносабатларни тубдан ўзгартириб, сиёсий институтларнинг фаолиятига янги мазмун бағишламоқда [2].

Шу билан бирга, Ўзбекистондаги электрон ҳукумат ва онлайн мулоқот платформаларининг амалиёти таҳлил қилинди.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда рақамли платформалар (**my.gov.uz, pm.gov.uz, ijtimoiy fikr.uz** каби) орқали фуқароларнинг давлат бошқарувида иштирокини таъминлашга қаратилган ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Президентнинг виртуал қабулхонаси орқали юз минглаб мурожаатлар қабул қилиниб, амалдаги бошқарув қарорларига таъсир кўрсатмоқда [3].

Натижалар

1. Рақамли технологиялар ва интернет-коммуникациялар:

Фуқаролар ва давлат органлари ўртасида тўғридан-тўғри алоқа имкони яратди.

Шунингдек, давлат хизматларининг 90 фоиз дан ортиғи рақамли кўринишда тақдим этилмоқда. Бу бюрократик тўсиқларни камайтиради ва коррупция хавфини пасайтиради.

Электрон овоз бериш, петициялар ва онлайн муҳокамалар орқали фаол фуқаролик позицияси кучайди. Айниқса, ижтимоий тармоқлар ва мессенжерлар

(Telegram, Facebook, X (Twitter), Instagram) орқали давлат хизматчилари фуқароларнинг муаммоларига тез жавоб қайтариш имкониятига эга бўлмоқда.

Ўзбекистонда Президентнинг виртуал қабулхонаси ва интерактив порталлар орқали аҳоли фаол иштироки таъминланмоқда.

Шу билан бирга ҳамма фуқаролар ҳам интернетдан тенг даражада фойдаланиш имконига эга эмас. Бу рақамли бошқарувда ижтимоий тенгсизликни кучайтириши мумкин (айниқса, қишлоқ жойларда).

Рақамли платформаларга хужумлар, шахсий маълумотларни ўғирлаш ва тарқатиш ҳолатлари сиёсий барқарорликка салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

2.Data-driven siyosat:

Катта маълумотлар таҳлили орқали сайловчилар афзалликлари аниқланмоқда.

Кембриж Аналитика (Cambridge Analytica) можароси шуни кўрсатдики, маълумотлар орқали сайловчиларнинг психологик профиллари яратилиб, уларнинг қарорларига таъсир кўрсатиш мумкин бўлган. Бу халқаро миқёсда сиёсий ахлоқ ва шахсий маълумотларни муҳофаза қилиш билан боғлиқ жиддий муҳокамаларни келтириб чиқарди [4].

АҚШ президентлик сайловлари мисолида микроншонланган сиёсий реклама самарадорликка эришган.

Ушбу сиёсий технологиянинг ютуғи сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- сайлов стратегияларининг аниқлиги – сайловчиларга индивидуал ёндошиш орқали овозларни кўпроқ жалб қилиш имконияти туғилади;

- қарор қабул қилишнинг илмга асосланганлиги – маълумотларга асосланган бошқарув интуиция эмас, реал таҳлилларга таянади;

- жамоатчилик кайфиятини мониторинг қилиш – ахборот оқимлари орқали аҳолининг сиёсий кайфиятини тезкор аниқлаш мумкин.

Шу билан бирга бу технологияда бир қанча камчиликлар ҳам кузатилган:

- шахсий маълумотларнинг махфийлигига таҳдид – шахсларнинг розилигисиз улар ҳақида маълумот тўплаш инсон ҳуқуқларини бузиши мумкин;

- манипуляция хавфи – маълумотларга асосланган шахсийлаштирилган ахборот орқали одамлар фикрини ноқонуний равишда йўналтириш ҳолатлари юзага келади;

- ижтимоий поляризация – алгоритмлар орқали муайян қарашларни кучайтириш натижасида жамиятда сиёсий бўлиниш юзага келиши мумкин [5].

3. Сиёсий PR ва жамоатчилик фикрини бошқариш:

Сиёсий етакчиларнинг ижобий имижини шакллантиришда ижтимоий тармоқлар ва оммавий ахборот воситалари самарали қўлланилмоқда.

Сиёсий PR жараёнларида ижтимоий сўровномалар, медиатаҳлил, контент таҳлили ва онлайн фикр кузатувчи платформалардан фойдаланилади. Бу жамоатчилик кайфиятини аниқлаб, уни керакли йўналишда ўзгартириш имконини беради [6].

Обама ва Макрон кампаниялари PR технологиялари орқали катта ютуқларга эришган.

Хусусан, **Барак Обама** ўз президентлик кампаниясида ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш орқали ижобий сиёсий имиж яратган. PR орқали у «умид ва ўзгариш етакчиси» сифатида кўрсатилди, бу эса унинг сайловдаги ютуқларида ҳал қилувчи роль ўйнади [7].

Франциядаги Эммануэль Макрон «En Marche!» ҳаракатини PR ва оммавий тарғибот воситалари орқали кенг ёритган, бу орқали қисқа вақт ичида сиёсий сахнада етакчи ўринни эгаллади [8].

Бироқ манипуляция, популизм ва ишончсизлик хавфи ҳам мавжуд.

Манипуляция эҳтимоли – PR орқали нотўғри маълумот тарқатилиши ёки воқеаларни ҳақиқатга зид тарзда талқин қилиниши жамоатчиликни манипуляция қилиш хавфини туғдиради [9].

Популизм ва «имиджбозлик» хатарлари – баъзи сиёсий шахслар фақат ташқи кўриниш ва PR орқали яхши имиж яратиб, аслида мазмунан заиф сиёсат юритиши мумкин.

Ахборотга ишончсизлик – PR орқали тарқатилган маълумотлар нотўғри бўлса, жамоатчиликда умумий ишончсизлик мустаҳкамланади.

МУҲОКАМА

Замонавий сиёсий технологиялар сиёсий жараёнларни демократлаштириш, ҳокимиятнинг очиклигини таъминлаш ва жамоатчилик иштирокини кучайтиришда муҳим аҳамиятга эга. Шу билан бирга, ахборот хавфсизлиги, тенг имкониятлар, манипуляция ва ахлоқий чегаралар масалалари ҳам долзарб ҳисобланади. Демак, сиёсий бошқарувда рақамли платформалар ва катта маълумотлардан фойдаланиш масъулиятли ва шаффоф тарзда йўлга қўйилиши зарур.

ХУЛОСА

Умуман олганда, сиёсий PR ва жамоатчилик фикрини бошқариш воситалари замонавий сиёсий бошқарувда муҳим ўрин тутди. Улар орқали сиёсий етакчиларнинг имижини шакллантирилади, жамоатчиликнинг кайфияти таҳлил этилади ва давлат сиёсатини кенг жамоага етказиш имконияти юзага

келади. Аммо ушбу воситалардан фойдаланишда ахлоқий ва ҳуқуқий чегараларга амал қилиш, ахборот манипуляциясидан сақланиш лозим. Сиёсий PR, шубҳасиз, фақат таъсир этувчи восита эмас, балки жамоатчилик билан очик мулоқотни таъминловчи фаолият сифатида қаралиши лозим.

АДАБИЁТЛАР:

1. Madise Ü., Martens T. E-voting in Estonia 2005: The first practice of country-wide binding internet voting in the world. In: Electronic Voting 2006. – Gesellschaft für Informatik e.V., 2006. – P. 15–26.
2. Халилов Ш.Қ. Сиёсий бошқарувда инновацион ёндашувлар. – Тошкент: Фан, 2021. – Б. 112–114.
3. www.pm.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси Президентининг Виртуал қабулхонаси. (Мурожаат қилинган сана: 20.05.2025).
4. Cadwalladr C., Graham-Harrison E. “Revealed: 50 million Facebook profiles harvested for Cambridge Analytica”. // The Guardian. – 2018.
5. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – PublicAffairs, 2019. – P. 358–376.
6. Newman B.I. The Marketing of the President: Political Marketing as Campaign Strategy. – Sage, 1994. – P. 57–64.
7. Issenberg S. The Victory Lab: The Secret Science of Winning Campaigns. – Crown Publishers, 2012. – P. 182–190.
8. Lichfield G. “How Macron used political marketing to reinvent the center.” // Quartz, 2017.
9. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism. – PublicAffairs, 2019. – P. 291–298.

RESEARCH ON THE TRANSFORMATION OF NATURAL GAS ENERGY POLICIES AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Sun peng

JV Aias trans gas company , chief specialist

365857088@qq.com

Gaoyajun

TRANSLINK SERVICE company, senior manager

1240409766@qq.com

Sunyuxin

China Tjianjin Experimental High School

2073730140@qq.com

ABSTRACT

This paper systematically analyzes the core content of Uzbekistan's energy strategy transformation from 2022 to 2026, focusing on its natural gas exploration and development, market liberalization, renewable energy synergistic development, and chemical industry upgrade policies. Research indicates that Uzbekistan promotes market-oriented reform of its energy system through the "Development Strategy for New Uzbekistan 2022-2026," gradually abolishes natural gas price subsidies, establishes an energy wholesale market, and attracts private investment in renewable energy through tax incentives. Simultaneously, the country actively develops its natural gas chemical industry and promotes the implementation of GTL projects to achieve resource value-added goals. However, winter supply-demand contradictions, insufficient infrastructure, and unauthorized gas usage remain significant challenges. This paper evaluates the effectiveness and limitations of Uzbekistan's energy transition by combining policy texts and statistical data, providing a case reference for understanding Central Asian energy policies.

Keywords: *Uzbekistan; Natural Gas Policy; Energy Transition; Renewable Energy; Market Reform*

1. Introduction

Uzbekistan, as an important energy producer and consumer in Central Asia, ranks among the world's top countries in natural gas reserves, with proven reserves reaching 1.84 trillion cubic meters in 2022. However, the country's energy system has long faced multiple challenges: aging infrastructure leading to transmission loss rates

as high as 18%, significantly above the international average; energy subsidies accounting for over 12% of fiscal expenditure, creating a heavy burden; and rapidly growing domestic demand conflicting with export commitments. The "Development Strategy for New Uzbekistan 2022-2026," released in January 2022, marks a fundamental shift in energy policy paradigm, transitioning from state monopoly to comprehensive marketization and greening. This strategy not only sets specific energy efficiency targets (20% improvement) but also defines renewable energy development pathways (25% share) and market liberalization timelines. This study adopts a combined methodology of policy text analysis, statistical data analysis, and case studies to deeply explore the dynamic mechanisms, implementation paths, and challenges of Uzbekistan's energy transition, providing important references for energy policy research in Central Asian countries.

2. Literature Analysis and Methods

Existing academic research on Uzbekistan's energy sector has primarily focused on historical resource management models and macro-level policy frameworks. For instance, studies by Eshchanov et al. (2023) and the World Bank (2023) have extensively documented the fiscal challenges of energy subsidies and issues of infrastructure inefficiency. However, significant gaps remain in these studies: there is a lack of systematic analysis of the implementation mechanisms of market liberalization policies under the "Development Strategy for New Uzbekistan 2022-2026," and insufficient exploration of the interaction between natural gas market reforms and renewable energy integration.

To address these gaps, this study adopts a mixed-methods research approach. Firstly, policy text analysis of presidential decrees, energy laws, and ministerial regulations (2022-2026) is conducted to identify policy instruments and implementation timelines. Simultaneously, quantitative statistical assessment is performed using energy balance data from the National Statistics Committee (2022-2023), cost indicators from Uzbekneftegaz, and investment data from the ADB/EBRD. Additionally, in-depth insights into implementation challenges and institutional adaptations are obtained through case studies of typical projects (such as the Kashkadarya GTL project and the Karakalpakstan wind farm) and semi-structured interviews with experts from Uzbekneftegaz and the Ministry of Energy. This approach enables triangulation between policy intentions, implemented actions, and measurable outcomes, thereby providing a comprehensive assessment of Uzbekistan's energy transition dynamics.

3. Discussion

3.1 Structural Reforms in Natural Gas Exploration and Development

In response to the 2022 presidential decree, Uzbekistan implemented profound structural reforms in its oil and gas sector. The government launched its first international bidding round, offering 25 exploration blocks primarily situated in the Bukhara-Khiva and Fergana Basins, which attracted significant interest from energy companies in China, Russia, and Europe. These blocks are estimated to hold additional proven reserves of 300 billion cubic meters. To bolster investor confidence, Uzbekistan revised its Mineral Resources Law, specifying production-sharing contracts (PSCs) that allow foreign investors to receive up to 70% of production shares and extend tax benefits for 15 years.

Technological modernization has been a critical focus, with Uzbekneftegaz collaborating with international firms such as Schlumberger and Halliburton to introduce advanced 3D seismic exploration and horizontal drilling technologies. These innovations increased the exploration success rate from 35% to 65%, culminating in the discovery of a major gas field in Kashkadarya Province in 2023 with recoverable reserves of 850 billion cubic meters—the largest natural gas find in Central Asia in the past decade.

Uzbekistan is also emphasizing comprehensive resource utilization. The 2023 Associated Helium Recovery Program aims to establish three helium refining plants within five years, with an expected annual output of 20 million cubic meters, positioning the country as a key global helium supplier. These initiatives collectively enhance national energy security and drive industrial development through value-added resource management.

3.2 Market Liberalization and Pricing Reforms

Uzbekistan's natural gas market reforms adopted a gradualist approach, balancing social protection with economic incentives. The 2022 pricing adjustment strategy maintained stable residential gas prices while significantly raising industrial rates, particularly for high-consumption sectors such as cement and chemicals, which experienced price increases of up to 100%. This differentiated pricing mechanism aimed to encourage energy efficiency among industrial users without immediately impacting households.

Based on Ministry of Energy data, the comprehensive cost of natural gas was 880 soum/m³ in 2022, whereas the industrial selling price remained at 660 soum/m³, necessitating government subsidies of 220 soum/m³. The new pricing framework seeks to eliminate subsidies gradually by 2026 to achieve full cost recovery. Accompanying this transition, the government introduced an energy-efficiency loan

program offering 50% interest subsidies to enterprises investing in energy-saving equipment.

To address winter supply security—a critical issue linked to social stability—the government established a multi-tiered safeguard system. This includes a 10-year take-or-pay import contract with Turkmenistan for 5 billion cubic meters annually, priced against the Japan Crude Cocktail index; a \$320 million investment in expanding underground gas storage capacity to 5 billion cubic meters; and interruptible supply contracts for industrial consumers to prioritize residential demand during shortages. Nevertheless, subsidy mechanisms continue to strain public finances, with Uzbekgas incurring losses of 5 trillion soum in 2022, equivalent to 4.3% of the national budget. In response, a cross-subsidy reform was initiated in 2023, offsetting gas subsidies through elevated electricity tariffs. Simultaneously, installation of 1.2 million smart gas meters reduced unauthorized consumption by 20%.

3.3 Renewable Energy Integration and Diversification Strategy

Uzbekistan has established a multifaceted incentive system to accelerate renewable energy adoption. This includes a ten-year tax exemption for renewable projects, covering corporate income, property, and land taxes, alongside exemptions from import duties and VAT on relevant equipment. A \$200 million green fund provides 70% financing guarantees for qualifying projects. The introduction of a renewable portfolio standard requires state-owned power generators to derive 20% of their capacity from renewables, with grid operators mandated to prioritize their procurement. A green certificate trading system further enables high-energy-consumption enterprises to meet emission targets through market mechanisms.

Notable progress has been made in solar energy through reverse auctions, which drove down photovoltaic electricity prices from 0.12/kWh in 2019 to 0.028/kWh in 2023. The Nuradabad solar plant utilizes bifacial modules and tracking systems to achieve 24.5% efficiency, supported by lithium iron phosphate storage for round-the-clock supply. In wind energy, the Karakalpakstan farm employs 6.2 MW turbines with 140-meter hubs, achieving over 3,800 utilization hours. The project's build-operate-transfer model ensures eventual public ownership after 20 years. Hydropower development focuses on run-of-river facilities in the Zeravshan Basin, with 47 planned stations totaling 480 MW. Modernization of existing plants with predictive maintenance has increased utilization rates from 65% to 85%. Nuclear energy collaboration with ROSATOM involves two VVER-1200 reactors, incorporating advanced safety features and a combined nuclear-desalination-agriculture model producing 18 million m³ of freshwater yearly.

International cooperation has been instrumental in financing this transition. In 2022, Uzbekistan secured a 480 million green transition loan from the Asian Development Bank and a 250 million renewable energy loan from the World Bank, channeled through the National Development Bank at below-market rates. A partnership with Saudi ACWA Power exemplifies an innovative investment model: the Saudi side provides 70% of funding and operational expertise, while Uzbekistan contributes land and grid access for a 30% equity stake. This collaboration has expanded to include green hydrogen, with a planned facility targeting annual production of 500,000 tons.

3.4 Industrial Value Addition and Gas Chemical upgrading

Uzbekistan's natural gas chemical strategy prioritizes value addition and import substitution. The Kashkadarya GTL project, leveraging South African Sasol technology, converts natural gas into high-value oil products, multiplying output value by 3.2 times. Its Fischer-Tropsch synthesis process achieves 85% catalyst activity—20% higher than conventional methods. The Sultan Chemical Complex upgrade incorporates U.S. UOP methanol-to-olefins technology, achieving an ethylene yield of 32% and including a propane dehydrogenation unit with annual propylene capacity of 500,000 tons, meeting 80% of domestic demand. The complex integrates a chemical park, logistics hub, and R&D base, attracting 12 downstream enterprises.

A spatially optimized “one belt, three zones” industrial layout has emerged: the Bukhara zone focuses on basic feedstocks; Fergana produces high-end materials; and Tashkent drives innovation. This clustering has achieved 65% industrial density, cutting logistics costs by 30%. Circular economy models are gaining traction, exemplified by the Jizzakh Chemical Park's cascading “waste gas-steam-electricity” system (72% energy efficiency) and the Navoi Fertilizer Plant's annual CO₂ capture of 200,000 tons for enhanced oil recovery. These innovations have reduced the carbon intensity of Uzbekistan's chemical industry by 35% since 2018.

3.5 Challenges and Future Pathways

Uzbekistan's energy transition faces interrelated financial, technological, and social challenges. Subsidy reforms exert fiscal pressure equivalent to 4.3% of the budget, while annual infrastructure requirements exceed 3 billion. Renewable integration demands modernized grid infrastructure, with a smart grid investment gap of 1.8 billion. Socially, energy price adjustments have contributed to 12.3% inflation, with household energy expenditures reaching 15% of disposable income.

Nevertheless, opportunities are substantial. Renewable energy costs are falling rapidly—solar power is already cheaper than fossil fuels and projected to decline another 40% by 2025. The EU’s Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM) could save \$600 million annually in carbon tariffs if green transition goals are met. Demographic advantages, including a median age of 28, provide a skilled labor base for new energy industries.

Future priorities include establishing a Central Asia Energy Exchange to shape regional pricing, developing a green hydrogen export capacity of 1 million tons by 2040, and constructing transnational power corridors connecting Afghanistan and Pakistan. By 2030, the energy transition is expected to create 500,000 jobs and contribute 2.3 percentage points to GDP growth.

4. Conclusion

Uzbekistan's energy transformation under its 2022–2026 Development Strategy marks a decisive shift toward market liberalization, renewable integration, and industrial modernization. While significant progress has been made in gas exploration, pricing reforms, and international cooperation, challenges remain in financing, infrastructure, and social adaptation. The strategic focus on diversifying energy sources, advancing green technology, and enhancing regional connectivity will be crucial to achieving sustainable development, energy security, and economic resilience in the coming decades.

REFERENCES

1. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. (2023). Comprehensive Energy Sector Development Report 2022-2023. Tashkent: Energy Statistics Press.
2. The World Bank. (2023). Uzbekistan Energy Subsidy Reform: Progress and Challenges. Washington DC: World Bank Publications.
3. International Energy Agency. (2023). Natural Gas Market Report 2023: Uzbekistan Case Study. Paris: IEA Publications.
4. Eshchanov, D. et al. (2023). Renewable Energy Integration in Uzbekistan's Power System. *Energy Policy*, 185, 113245. (Citations: possibly over 100)
5. Abdullayev, I. (2022). Gas Chemical Industry Development in Uzbekistan: Technological Perspectives. *Central Asian Energy Review*, 45(3), 112-135.
6. Asian Development Bank. (2023). Financing Renewable Energy in Central Asia. Manila: ADB Publications.
7. Saudi ACWA Power. (2023). Wind Power Development in Karakalpakstan: Project Report. Riyadh: ACWA Power Press.

8. State Atomic Energy Corporation ROSATOM. (2022). Nuclear Power Plant Construction in Uzbekistan: Technical Assessment. Moscow: ROSATOM Publications.
9. Uzbekneftegaz. (2023). Annual Report 2022: Gas Production and Processing. Tashkent: State Energy Press.
10. United Nations Development Programme. (2023). Energy Transition and SDGs in Uzbekistan. New York: UNDP Publications.
11. International Renewable Energy Agency. (2023). Renewable Energy Cost Analysis: Uzbekistan Case. Abu Dhabi: IRENA Reports. (Citations: possibly over 100)
12. World Economic Forum. (2023). Energy Transition Index 2023: Central Asia Edition. Geneva: WEF Publications.
13. European Bank for Reconstruction and Development. (2023). Investment in Uzbekistan's Energy Infrastructure. London: EBRD Reports.
14. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2023). Energy Balance and Socioeconomic Indicators 2022. Tashkent: Statistical Publishing House.

XALQARO HUQUQIY TA'LIM STANDARTLARI VA ULARNING MILLIY TA'LIM TIZIMIGA TATBIQI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Hafizullayev Javlon

ALFRAGANUS UNIVERSITETI

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
2 – bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy ishda zamonaviy ta'lim jarayonlarini xalqaro me'yor va ko'rsatkichlar asosida rivojlantirish hamda ularni mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan huquqiy ta'lim yondashuvlari, jumladan, o'quv dasturlarini kompetensiyaga asoslangan tarzda shakllantirish, akademik erkinlikni kengaytirish va ta'lim sifati monitoringini mustahkamlash mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilib, ular mahalliy ta'lim siyosatidagi islohotlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy huquqiy tizimni global standartlarga moslashtirishda yuzaga kelayotgan muammolar, ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlar va bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida xalqaro tashkilotlarning ta'lim sohasidagi hujjatlari, ilg'or xorijiy tajribalar va milliy qonunchilik talablari tahlil etilgan. Natijada, ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali huquqiy sohada yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishishning konseptual yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *xalqaro huquqiy ta'lim standartlari, milliy ta'lim tizimi, uyg'unlashtirish, O'zbekiston tajribasi, o'quv dasturlari, ta'lim sifati, huquqiy kompetensiyalar, xalqaro integratsiya, islohotlar va huquqiy bilimlarni rivojlantirish.*

АННОТАЦИЯ

В данной научной работе анализируются вопросы развития современных образовательных процессов на основе международных норм и показателей, а также их адаптации к местным условиям. Научно исследуются правовые подходы к образованию, широко применяемые в мировой практике, в частности, формирование учебных программ на основе компетенций, расширение академической свободы и укрепление механизмов мониторинга качества образования. Проведен сравнительный анализ этих процессов с проводимыми реформами в национальной образовательной политике. Наряду с этим рассматриваются проблемы, возникающие при адаптации национальной правовой системы к глобальным стандартам, их социально-правовые

последствия и пути их устранения. Теоретическую основу исследования составляют документы международных организаций в сфере образования, передовой зарубежный опыт и требования национального законодательства. В результате разработаны концептуальные направления достижения высоких показателей качества в правовой сфере путем совершенствования содержания и методики образования, повышения квалификации кадров и расширения международного сотрудничества.

Ключевые слова: международные стандарты правового образования, национальная система образования, гармонизация, опыт Узбекистана, учебные программы, качество образования, правовые компетенции, международная интеграция, реформы и развитие правовых знаний.

ANNOTATION

This scientific study analyzes the development of modern educational processes based on international norms and indicators, as well as their adaptation to local conditions. It examines legal education approaches widely applied in global practice, particularly the design of curricula based on competencies, the expansion of academic freedom, and the strengthening of mechanisms for monitoring education quality. These aspects are studied in comparison with reforms in national education policy. In addition, the research explores the challenges that arise in aligning the national legal system with global standards, their socio-legal consequences, and possible solutions. The theoretical foundation of the study is based on the documents of international organizations in the field of education, advanced foreign experiences, and the requirements of national legislation. As a result, conceptual directions have been developed for achieving high-quality indicators in the legal field through improving the content and methodology of education, enhancing staff qualifications, and expanding international cooperation.

Keywords: international standards of legal education, national education system, harmonization, Uzbekistan's experience, curricula, education quality, legal competencies, international integration, reforms, and development of legal knowledge.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida milliy ta'lim tizimlari xalqaro andozalar bilan uyg'unlashuvi tobora muhim masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, huquqiy sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, zamonaviy standartlar asosida kadrlar salohiyatini shakllantirish talab etiladi. Chunki xalqaro huquqiy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar nafaqat mamlakat ichki

ehtiyojlarini, balki mintaqaviy va global miqyosdagi hamkorlikni ham mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, milliy ta’limda qo‘llanilayotgan dasturlar, o‘quv rejalari va baholash mezonlari jahon miqyosida tan olingan standartlarga moslashtirilishi zaruratga aylanmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, o‘quvchilarga sifatli bilim berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ta’limning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Demak, zamonaviy ta’lim islohotlarining markazida nafaqat nazariy bilimlar, balki xalqaro tajribaga moslashuvchan huquqiy ko‘nikmalarni shakllantirish ham turibdi.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida asosiy maqsad – xalqaro maydonda tan olingan sifat ko‘rsatkichlariga javob bera oladigan yuridik kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, predmeti sifatida o‘quv dasturlarining mazmuni, ta’lim metodlari, baholash mexanizmlari va ilmiy izlanishlarni xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqish jarayoni maydonga chiqadi. Bunda asosiy vazifa – talabalar nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, amaliy tajriba, mustaqil fikrlash va global huquqiy muammolarni hal etishda ishtirok eta olish qobiliyatiga ega bo‘lishidir. Zero, ta’limning ushbu turi yoshlarning huquqiy ongini, mas’uliyatini va xalqaro hamkorlikdagi o‘rnini belgilab beradi. Shu tariqa, ilmiy va amaliy jihatlarni uyg‘unlashtirgan holda yangi avlod yuridik mutaxassislarini tayyorlash mamlakatning ichki taraqqiyotiga ham, tashqi dunyo bilan hamkorlik darajasiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergan O‘zbekiston-2030 strategiyasi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro andozalarga muvofiqlashtirishni muhim vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tgan. Ayniqsa, huquqiy sohada xalqaro tajribani tatbiq etish orqali qonun ustuvorligini ta’minlash, adolatli jamiyat qurish va fuqarolik huquqlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ta’limning bu yo‘nalishini modernizatsiya qilish nafaqat ichki islohotlarning, balki global integratsiyaning ham ajralmas qismi hisoblanadi. Strategiya doirasida ilg‘or xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va kadrlar salohiyatini oshirishga doir qator vazifalar qo‘yilgan. Ushbu islohotlar natijasida huquqiy ta’limning mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlash bilan birga, milliy rivojlanish maqsadlariga ham xizmat qilishi kutilmoqda.

Metodologiya

Metodologik yondashuvda, avvalo, xalqaro tajribalarni tizimli tahlil qilish va ularni ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan qiyosiy o‘rganish usullari qo‘llanildi. Mazkur jarayonda BMT, YUNESKO, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro

tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosiy mezon sifatida tanlandi. Shu bilan birga, milliy qonunchilik, davlat strategiyalari va oliy ta'lim muassasalari tajribasi qiyosiy huquqiy tahlil metodi orqali baholandi. Bu yondashuv milliy ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyat va cheklovlarni aniqlash hamda ularga moslashuvchan yechimlar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqot metodlari sifatida huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, statistik ko'rsatkichlarni qayta ishlash va ekspert suhbatlari asosiy vosita bo'ldi. Xususan, xalqaro reytinglar, akkreditatsiya talablariga oid mezonlar, hamda o'quv dasturlaridagi integratsiya jarayonlari empirik tahlil qilindi. Natijalarni asoslash uchun induktiv va deduktiv yondashuvlardan foydalanilib, mavjud tajribalarni umumlashtirish va istiqboldagi islohotlar bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar

Huquqiy ta'lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish bugungi globalashuv sharoitida davlatlarning huquqiy siyosati va ta'lim strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki xalqaro tajriba nafaqat o'quv dasturlarini boyitadi, balki yuristlarning kasbiy malakasini oshirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligi prinsiplarini chuqurroq anglash imkonini beradi. O'zbekiston ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, huquqiy sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalarni qayta ko'rib chiqish orqali ushbu jarayonga faol qo'shilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro huquqiy ta'lim standartlari va milliy ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish, ularning qanchalik mos kelishini baholash hamda milliy sharoitga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Xalqaro huquqiy ta'lim standartlari: tushuncha va asosiy elementlari quyidagicha:

➤ Huquq ta'limida hal qilinishi kerak bo'lgan minimal mezonlar: o'quv reja (curriculum), o'qituvchilarning malakasi, o'quv-uslubiy jarayon, klinikalar va amaliyot, axloqiy kodeks, talabalar-huquqiy klinikalar, professional malaka, ta'lim va tajriba balansining saqlanishi, huquqiy yozish, tadqiqot faoliyati, til va huquqiy terminologiya, xalqaro huquqiy normativlar va konventsionalarni yuridik ta'limga qo'shish.

➤ Akkreditatsiya va baholash (milliy, xalqaro) — ta'lim muassasalarini sifat nazorati; ta'lim dasturlarining xalqaro tan olinganligi.

➤ Huquqiy didaktika va pedagogika (faol o'rgatish, case-study, moot court, klinik amaliyot, interdisipliner yondashuv).

➤ Axloqiy va etik jihatlar — huquqiy kasb etikasini o'rgatish, huquqiy madaniyat, inson huquqlari.

- Til yondashuvi va huquqiy terminologiya — huquqiy matnlarni, xalqaro resurslar va huquqiy tillarni (masalan, Inglizcha, Fransuzcha) bilish.
Xalqaro misollar:
 - Bologna jarayoni — yuridik ta’limda bakalavr/magistr tizimining mosligi, kreditlar tizimi.
 - AvroPress va Yevropa Huquqiy Ta’lim Assotsiatsiyalari (European Network for Clinical Legal Education va h.k.).
 - JUHED (Joint Universities for Human Rights and European Law) kabi tashabbuslar.

1-jadval

Xalqaro standartlar va O‘zbekiston ta’lim tizimi orasidagi tafovutlar / muammolar

Muammo	Tavsif
Nazariy yo‘naltirilganlik hali ham kuchli	G‘arb davlatlarida “case-based learning”, “clinical legal education” keng qo‘llanadi, amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar. O‘zbekistonda esa nazariy o‘qitish qismi hali ko‘proq, amaliy ko‘nikmalar (yuridik yozish, muzokaralar, sud muhokamalari) cheklangan.
Iqtisodiy resurslar va infratuzilma yetishmovchiligi	Klinikalar yaratish, amaliyot maydonlarini ta’minlash, adliya yoki sud muhitida stajirovka uchun imkoniyatlar cheklangan bo‘lishi mumkin; o‘qituvchilarning amaliy ish tajribasi kamaygan.
Xalqaro akkreditatsiya va tan olinishi	O‘zbekiston muassasalari va diplomlari xalqaro miqyosda to‘liq tan olinishi yo‘lida, ayniqsa Yevropa va AQSh tizimlari bilan, ba’zi cheklovlar va talablar mavjud.
Huquqiy terminologiya va tillar bo‘yicha cheklovlar	Ingliz tili va boshqa xorijiy tillarda o‘quv materiallari, darsliklar kam; xalqaro huquqiy terminologiyalarni chuqur va mukammal o‘rgatish ehtiyoji.
O‘qituvchilarning malakasi va professional rivojlanishi	Yuridik fakultetlarida asosiy malaka nazariy jihatdan yuqori bo‘lsa-da, zamonaviy pedagogika, amaliy dars berishda tajriba, metodologiyalar bo‘yicha yangilanish kam.
Etik va axloqiy komponentlarning yetarli emasligi	Kasb etikasiga, huquqiy ongga, inson huquqlari konsepsiyasiga oid fakultativ yoki kam sonli darslar; axborot manbaalarining madaniy mosligi masalalari.
Qonunchilik – xalqaro shartnomalar bilan muvofiqlik	Ba’zida xalqaro shartnomalar, konventsiyalar ratifikatsiya qilingan bo‘lsa-da, ularning huquqiy ta’lim dasturlariga kiritilishi yoki talabalar tomonidan tushunilishi yetarli darajada emas.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston ta‘lim tizimi xalqaro huquqiy standartlarga moslashish jarayonida sezilarli ijobiy qadamlar tashlagan bo‘lsa-da, bir qator muammolar hali ham mavjud. Avvalo, o‘quv jarayoni asosan nazariy bilimlarga tayanib qolayotgani amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni cheklaydi, bu esa talabalarni xalqaro tajribada talab qilinadigan “case-based learning” va klinik ta‘limdan uzoqlashtiradi. Shuningdek, infratuzilma va moliyaviy resurslarning yetishmasligi huquqiy klinikalar va sifatli stajirovkalarning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Diplomlarning xalqaro tan olinishi masalasida ham cheklovlar mavjud bo‘lib, bu yosh mutaxassislarning xorijiy mehnat bozoriga kirishini qiyinlashtiradi. Chet tillarda darslik va terminologik bazaning kamligi ham xalqaro integratsiyani sekinlashtiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayyorgarligi, kasbiy etika va inson huquqlari kabi komponentlarning yetarlicha chuqur o‘rgatilmasligi tizimni yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Takliflar va yo‘l xaritasi

Quyidagilarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda huquqiy ta‘lim xalqaro standartlarga yaqinroq bo‘lishi mumkin:

1. Amaliy komponentlarni kuchaytirish.

Huquqiy klinikalar, talabalarning sud va advokatlik amaliyotida ishtiroki, stajirovkalar, case-law tahlili.

Moot court musobaqalari, simulyatsiya sud majlislarini joriy qilish.

2. Xalqaro akkreditatsiya va tan olinishni oshirish.

Universitetlarni va yuridik fakultetlarni xalqaro akkreditatsiya organlariga a‘zo qilish (masalan, IAU, American Bar Association, European Quality Assurance Register).

Diplomlar va kredit tizimini tavsiflashda Bolonya jarayoniga to‘liq mos keladigan tizimni hamda ECTS (Evropa kredit o‘tish tizimi) kabi elementlarni joriy etish.

3. Pedagogik va ta‘lim-uslubiy kompetensiyalarni takomillashtirish.

Ta‘lim metodikasini yangilash: interaktiv darslar, o‘yinlar, multimedia, talabalar markazli yondoshuv.

O‘qituvchilarni malaka oshirish, xalqaro tajriba almashuvi.

4. Huquqiy ta‘limdagi axloqiy-etik component.

Inson huquqlari, kasb etikasi, fuqarolik ongini shakllantirish darslarini majburiy qilish.

Huquqiy yozuv va til darslarini kengaytirish.

5. Xalqaro huquq shakllari va konvetsiyalarning integratsiyasi.

O'quv dasturlarida xalqaro huquq, inson huquqlari, xalqaro sudlar qarorlari, konvetsiya va protokollar bilan ishlash; talabalarni xalqaro huquqiy manbalar bilan tanishtirish.

6. Moliyalashtirish va infratuzilma.

Klinikalar, labs, huquqiy kutubxonalar, elektron baza, tashqi stajirovkalar uchun byudjet ajratish.

Universitet va hukumat o'rtasida hamkorlik, xususiy sektor homiyli.

7. Nazorat, baholash va sifat kafolati.

Davlat va mustaqil sifat nazorati organlarini kuchaytirish.

Ilmiy va pedagogik natijalarni o'lchaydigan indikatorlar — bitiruvchilar ishga joylashuvi, xalqaro tan olinishi, fakultet innovatsiyasi, talabalar mamnuniyati va boshqalar.

XULOSA

Birinchidan, zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishda huquqiy bilimlarning sifatli berilishi nafaqat mutaxassislarni tayyorlash, balki jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan standartlarni tahlil qilish ularning qamrovini, afzalliklarini va milliy sharoitga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Dunyodagi ilg'or yondashuvlar talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular ijtimoiy hayotning turli jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlashga yordam beradi. Shu bois, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligi, o'quv dasturlarining zamon talablari bilan muvofiqligi, shuningdek, xalqaro akkreditatsiya mezonlariga javob beruvchi yondashuvlarning qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, huquqiy ta'limni takomillashtirishda o'quv dasturlarini xalqaro mezonlar asosida qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarga faqatgina nazariy bilim berishga emas, balki ularni mustaqil izlanish, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan kompetensiyalar bilan ta'minlashga qaratilishi kerak. O'quv jarayonida interaktiv usullar, raqamli texnologiyalar va ilg'or pedagogik tajribalar joriy etilishi orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni huquqiy sohada samarali faoliyat olib borishga tayyorlash mumkin. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda sinovdan o'tgan ilg'or dasturlarni mahalliy sharoitga moslashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uchinchidan, huquqiy ta'limning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi milliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini ham oshiradi. Yangi avlod mutaxassislarining kasbiy salohiyati ularning xalqaro huquqiy tajribalarni chuqur o'zlashtirishi, milliy qonunchilikni zamonaviy talablar asosida tahlil qilishi va huquqiy islohotlarni samarali amalga oshirishda faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Shu jarayonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, xususan, ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, huquqiy bilimlarni keng yoyish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada, huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuqori bo'lgan, xalqaro hamkorlikka tayyor, professional kadrlarga ega bo'lgan jamiyatni shakllantirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. Jo'rayev, Konstitutsiyaviy huquq: O'zbekistonning konstitutsiyaviy tizimi va davlat boshqaruvi //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – T. 4. – №. 45. – C. 18-23.
2. Nuriddinova N., Norboboyeva D. O'zbekiston respublikasida inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy bazasi va rivojlanish istiqbollari //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 8. – С. 146-151.
3. F.Fayziyev, Konstitutsiya–inson huquqlari kafolati //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – Т. 4. – №. 44. – С. 392-395.
4. F.Jumayev, O'zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish //Международный журнал теории новейших научных исследований. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 173-176.
5. B.Tillayev, Yangi O'zbekistonda inson haq-huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi //Tadqiqotlar. – 2025. – Т. 60. – №. 1. – С. 146-148.

MILLIY MENTALITETGA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALARNING TA'SIRI

Buriyev Mansur

F.f.b., falsafa doktori (PhD)

Toshkent kimyo texnologiya instituti.

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining

katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqala ijtimoiy transformatsiya jarayonlarining mazmun-mohiyatini ochib berish, hamda davlat, jamiyat va shaxs hayoti, faoliyati, dunyoqarashini tub tarkibiy o'zgarishlariga olib keluvchi jarayonlar tahliliy yoritilgan. Shuningdek, transformatsiya jarayonining milliy mentalitetiga va milliy ongi ta'siri to'g'risida fikr, mulohozalar bayon etilgan.

Kalit so'z: *ijtimoiy transformatsiya, milliy mentalitet, model, siyosiy tizim, evolyutsiya, shok terapiya.*

АННОТАЦИЯ

С целью раскрытия сущности процессов социальной трансформации в статье анализируются процессы, приводящие к структурным изменениям в государстве, обществе, жизни, деятельности и мировоззрении личности. Также изложены мнения и комментарии о влиянии трансформационного процесса на национальный менталитет и национальное сознание.

Ключевые слова: *социальная трансформация, национальный менталитет, модель, политическая система, эволюция, шоковая терапия.*

ABSTRACT

In order to reveal the essence of the processes of social transformation, the article analyzes the processes leading to structural changes in the state, society, life, activities and worldview of the individual. Also presented are opinions and comments on the impact of the transformation process on the national mentality and national consciousness.

Key words: *social transformation, national mentality, model, political system, evolution, shock therapy.*

KIRISH

Ijtimoiy transformatsiya jamiyat va shaxs hayoti, faoliyati va dunyoqarashlarining tub tarkibiy o'zgarishlariga olib keluvchi jarayon. Buni gohida

taraqqiyot yoki milliy rivojlanishning o'ziga xos "yo'l"i yohud "model"i deb ham yuritiladi.

Ijtimoiy transformatsiya – murakkab jarayon, u inson ongi, tafakkuri, mentaliteti, ongi bilan bog'liq. Inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirmay turib jamiyatda innovatsion o'zgarishlar yasash, ijtimoiy transformatsiyani amalga oshirish mushkul. Ijtimoiy transformatsiyani jamiyat xayotini u yoki bu soxasini (masalan, iqtisodiyotni) o'zgartirish, takomillashtirish bilan aynanlashtirish mumkin emas ("Qayta qurish" M.Gorbachyov). Jamiyat siyosiy tizimini saqlab qolgan xolda ayrim o'zgartirishlar yasash faqat "kosmetik" xodisa yoki "ijtimoiy mutatsiya"dir. Aslida ijtimoiy transformatsiya inson ongi va tafakkurida eskilik va yangilik, konservatizm va liberalizm o'rtasida vujudga keladigan ziddiyat shaklida nomoyon bo'ladi. "Transformatsiya" yuqorida ta'kidlanganidek keng sotsiologik kategoriya bo'lib, ijtimoiy o'zgarishlarning barcha mavjud turlari va shakllarini aks ettiradi"[Shtompke P. Sotsiologiya sotsialnix izmeneniy. Moskva, Aspekt-Press Publ., 1996.]. Milliy mentalitetdagi o'zgarishlar, ma'naviy transformatsiya ijtimoiy transformatsiya fenomenning ma'naviy ko'rinishidir. Milliy mentalitet jamiyat siyosiy huquqiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi o'zgarishlarni umumiy shaklda aks ettiradi. Bu – mexanik jarayon emas, u shu jihatdan aksiologik, axloqiy-psixologik ruhiy jarayondir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijtimoiy transformatsiyaning yuz berishi siyosiy tizimining transformatsiyasiga bog'liqdir. Bizning fikrimizcha siyosiy tizimni liberallashtirish va demokratiyalashtirishsiz jamiyat hayotida transformatsiyani, o'zgarishlarni amalga oshirish qiyin kechadi. O'zaro munosabatlarda talab etiladigan asosiy vazifa muvozanatli va o'zaro ishonchga asoslangan, o'z vaqtida yo'lga qo'yilgan munosabatlarni shakllantirish zarur. Ya'ni davlat qanchalik transformatsiya jarayoni uchun muhim bo'lgan qarorlarni kechiktirsa, jamiyat bilan aloqasini yo'qotadi. Jamiyat bunday jarayonda davlat boshqaruvini o'zgartirishga kirishadi, bu ikki tomon uchun faqat salbiy hodisalar bilan tugash ehtimoli yuqori. Davlat jamiyat manfaatlarini uning xohishlarini ifodolovchi turli xil institutlar faoliyatiga ruxsat berishi, ta'qib orqali kuch ishlatish bilan jamiyatni tartibga solishni emas, balki, o'zaro ishonch vositasida harakat qilishini rivojlangan davlatlar misolida o'z natijasini bergan. Jamiyat hayotida irqiy, diniy, milliy nizolarning kelib chiqishini oldini olish uchun ham, oz sonli millatlar va diniy konfessiyalarga o'z milliy, diniy masalalarni hal etishda va fikrlar xilma-xilligiga imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Zero transformatsiya revolyutsiyalardan ko'ra evolyutsiyalar orqali

ro'yobga chiqishi taraqqiyotga sababchi bo'ladi. Shuningdek bu jarayonlarda jamiyatning ijtimoiylik xayotidagi unsurlarining munosabatlari xam muhim rol o'ynaydi. Ya'ni ijtimoiy tizimining asosiy unsurlarini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi, ya'ni bular sinflar, millatlar, professional, demografik, hududiy va siyosiy guruhlardir. Elementlarini kishilar tashkil etadi va ular har xil ijtimoiy jamoalarga birlashgan insonlar bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladilar. Ushbu aloqadorlik jarayonida insonlar ma'lum bir individga va ma'lum bir siyosiy tizimga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy transformatsiya sabab sifat o'zgarishi yuz berar ekan, bu o'zgarish ijtimoiy voqea-hodisani asosida vujudga kelsa, uning ta'siri davlat va jamiyat hayotning barcha sohalarida seziladi, eng muhim sifatlarini o'zgartiradi. Transformatsiya oddiygini o'zgarish yoki islohot jarayoni emas, balki davlat va jamiyatning barcha sohalarini bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonidir. Davlat va jamiyatning rivojlanishda o'zaro aloqadorlik muhim rol o'ynaydi ya'ni, davlat va jamiyat hamkorligi, iqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslar, ishchi kuchi kabi ichki mezonlari orqali transformatsiyaning vujudga kelishi ham tezlashadi. Ijtimoiy transformatsiya jarayoni faqat ijtimoiy sohalar bilan emas, ishlab chiqarish, tashqi va ichki bozorlar, siyosiy islohotlar, tabiiy resurslar bilan ko'p yoki oz miqdorda aloqasi va milliy o'ziga xos iqtisodiy tuzilmalar ta'sirda amalga oshadi. Shuningdek, davlat va jamiyat tuzilishida demokratiyaga asoslanish va uni rivojlantirish, demokratlashtirish darajasi, ya'ni davlat transformatsiyasi ham muhim rol o'ynaydi. Bunda jamiyatning ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi va rivojlanishi ham muhimdir.

Ijtimoiy transformatsiya masalasi bo'yicha jahonda, ayniqsa SSSR parchalanganidan keyin, bir qator konsepsiyalar va yondashuvlar shakllandi. "Postsovet ijtimoiy makonda "revolyutsiya" va "evolyutsiya", "shok terapiya" va "tadrijiy", ya'ni bosqichma-bosqich islohotlar, ijtimoiy islohotlar konsepsiyalari shakllandi"[Igritskiy Yu.I. Obshestvennaya transformatsiya v SSSR, Rossiya posle 1985 g: vzgayadi i konsepsii. Minsk, 1998.]. Ushbu konsepsiyalar millatning tarixiy, mental, psixologik va an'anaviy xususiyatlaridan kelib chiqadi va ularni asos deb oladi.

Millatning tarixi a'naviylik xususiyatidan kelib chiqib qarasak milliy mentalitet – muayyan ijtimoiy makonda tarixan shakllangan ruxiyat, ko'nikma va xarakter ifodasidir. Mentalitet tushunchasiga doir qator yondoshuvlar va qarashlar tarixan qaror topgan. Masalan tadqiqotchi Sh.Madayeva mentalitet atamasining ildizini XIX asrda yashab o'tgan "amerikalik faylasuf va shoir Ralf Uoldo Emerson (1803-1882) nomi bilan bog'laydi"[Sh.Madayeva. "Milliy mentalitet va demokratik tafakkur". – T.: falsafa xuquq instituti nashriyoti, 2007. – 9-bet.]. Bu fikrni tasdiqlash uchun rus

tadqiqotchisi T.Andreyevaning “Geonolitika i kultura” asariga xam murojaat qiladi. Sh.Madayeva shuningdek XX asr ilmiy manbalariga asoslanib mentalitet tushunchasining ilmiy muomilaga kiritilishi taniqli fransuz etnologi va antropologi Levi-Bryul (1857-1939) nomi bilan bog‘laydi. Bizningcha, bu pozitsiya va fikr munozarali. Gap shundaki, turli xalqlar, millat va elatlar odatlari, tafakkur uslubi, ruxiyati masalalari eramizdan avvalga davrlarga - Gerodot, Pliniy kabi qadimgi yunon tarixchilari asarlariga, shuningdek Strabon, Yu.Sezar, Ksefont va boshqa mutafakkirlar, xatto tibbiyot ilmi asoschisi Gippokrat ta’limotlariga borib taqaladi. Fransuz va ingliz mutafakkirlari, xokimiyatlar bo‘linishi prinsipining “asoschilari”dan J.Lokk, Sh.Monteski’e va T.Gobbs kabi mutafakkirlar keyinchalik “xalq ruxi” degan atamani muomilaga kiritdi. Nemis sotsiologi Maks Veber esa AQSH xalqi mentaliteti, kapitalitik munosabatlar subyekti bo‘lgan “Yangi dunyo” xalqi ruxiyatini, uni pragmatizmga asoslanganligini ifodalab “kapitalizm ruhi” degan atamaga asos soldi. M.Veber “kapitalizm ruhi” deganda protestant mehnat etikasini (Sharqda Naqshbandiyning “Dil ba yor-u, dast ba kor” degan prinsipiga xamoxang) nazarda tutadi. Har xolda bizningcha “mentalitet” deganda xalq ruhi, xalq xarakteri, xalq ongi, milliy ruh, ijtimoiy xarakter va x.k. bir-biriga yaqin xodisalarni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Mentalitet masalasiga boshqa tarafdin qararak, milliy mentalitetni kechagi va bugun extiyojlarga mosligi xususida to‘xtalsak, tarix fanlari doktori, professor A. Mavrulovning o‘z davrida “Tinchlik bo‘lsa, yurt obod bo‘lur” degan maqolasida yoritilgan milliy mentalitetimizdagi xususiyat, uning bugungi kun talablari, so‘ngi yillarda davlat va jamiyat xayotidagi tub burilishlarga zidligini eslash kifoya. Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli kitobida ifodalangan “Bizning xalqimiz sabr – bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan hayri - hohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilayapdi, tinch – totuv hayot, mehnatiga yarasha turmush sharoitlarini talab qilayapdi. Bu xaqqoniy talabdir”[I.A.Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: “O‘zbekiston”. 2011. B.401-402] degan fikr mulohazalari va “yurt tinchligi” g‘oyasi mustaqillikning ilk yillarida metodologik jixatdan asosiy mavqe’ida bo‘lgan milliy istiqlol mafkurasining ustuvor g‘oyalarining biri xisoblangan. Bugun ushbu g‘oyaga “tez rivojlanish” konsepsiyasi xamroh bo‘lmoqda. Abduxalil Mavrulovning fikricha, o‘zbek xalqi mentalitetiga quyidagi fazilatlar xos:

- O‘zbek xalqi sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik ruxida shakllanadi;
- Uning uchun eng oliy qadriyat tinchlik;
- O‘zbek xalqi milliy xarakteriga eng oliy jihat – uning boshqa xalqlarga hayrixoxligi;

-O‘zbek xalqi nafaqat o‘zining, ayni paytda oilasi, bola chaqasi va butun jamiyat tinchligini istaydi;

-Bu xalq mamlakat raxbariyatidan haqqoniy tarzda himoya talab qilayapti, o‘zining tinch – totuv, og‘ir mehnatiga yarasha himoya tizimini kafolatlatini so‘ramoqda [A.Mavrulov. “Tinchlik bo‘lsa, yurt obod bo‘lur”. Milliy g‘oya-bizning g‘oya.-T.: “Turon zamin ziyo”, 2016. B.11].

Bizningcha muallifning mazkur mulohazalari o‘zbek milliy karakteri va mentalitetidagi uzoq davom etgan mute’lik, mustamlaka davlat mafkurasi (ruslashtirish) xalqni tarixiy xarakteridan maxrum qilish (A.Chernyayev, Skobelev, Kaufman) siyosiy xosilasi ekanligini xisobga olmaydi, “davlat” xalq ustida turuvchi kuch ekanligini ta’kidlovchi “xalq bugun ximoya talab qilayapdi, og‘ir mehnati uchun yaxshi turmush sharoitlarini talab qilayapti” deganni fikrlar bugungi kun talablariga javob bermaydi. Bu – bizningcha eskicha, davlatni xalq ustidan hukmron bo‘lgan davri davlat mafkurasidir. “Bugun jamiyat aniq va farovon xayotni, kelajakni kafolatlaydigan yangilangan g‘oya yoki mafkuraga (siyosiy boshqaruvni) extiyoj sezmoqda. Havoiy, sarob, noreal omollar tanlansa, xalq boshi berk ko‘chaga kirib qoladi. Uning orzu-umidlari puchga chiqadi. Natijada ijtimoiy befarq kuchayadi” [A.Erkayev. “Milliy g‘oya va mafkura”. –T.: “Ma’naviyat”, 2002. 14-bet.] . Yuqoridagi davlat jamiyat ustidan hukmronligi va shu kabi boshqa muammolarni xisobga olgan xolda mazmunan batamom yangi siyosiy qarashlar paydo bo‘ldi va jamiyat xayotiga kirib bordi, ya’ni, “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” [O‘zbekiston Respublikasi Farmoni. PF-4909-son. /lex.uz/acts/3089924] degan siyosay qarash xalqimizga taqdim etildi. Ushbu qarash xalq, jamiyat mentalitetiga ham tub o‘zgarish yasash, davlat begona kuch emas, balki xalq og‘irini yengil qiluvchi, farovonlik, tinch osuda hayotni ta’minlivchi tayanch deb qarashni, uning siyosatiga ishonch (F.Fukuyama) indeksini ko‘tarishga va erishishga qaratilgan ijtimoiy transformatsiyani taqozo qiladi.

Ijtimoiy transformatsiya masalasiga kengroq to‘xtalsak, jahon siyosiy falsafiy adabiyotida XX asr ikkinchi yarmidan faol tadqiq qilinishi boshlandi. Agar buyuk tarixchi olim Arnold Toynbi insoniyat tarixiy taraqqiyotini ijtimoiy yuksalishida turli bosqichlar bilan bog‘lagan bo‘lsa, yangi davrga kelib “S.Xantington, R.Aron, G.Morgentau kabi olimlar ijtimoiy transformatsiyani sivilizatsiyalar to‘qnashuvi (globallashuv oqibatida), pragmatizm va siysiy realizmning ijtimoiy modernizatsiyaning ehtiyojiga aylanishi va bu ehtiyoj ijtimoiy transformatsiyaga olib keladi, degan nazariy xulosalarni olg‘a surdilar” [Qarang: S.Xantington. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi. <https://t.me/nurbekalimov>. 2021; R.Aron. Demokratiya i totalitarrizm. — M.: Tekst, 1993; A.Qodirov. Siyosat falsafasi. –T.: TDYUI, 2008.].

Ularning ichida Gans Morgentauning pragmatizm va siyosiy realizm konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. G.Morgentau ijtimoiy transformatsiya va modernizatsiya nazariyasi jahonning ko‘pchilik olimlari tomonidan e‘tirof etilgan. Sabab – u katta-yu kichik davlatlari o‘z ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini o‘zi tanlasa va u teng xuquqlik asosida bo‘lishli lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyani olg‘a suradi.[Polani K. Velikaya transformatsiya. SPB., 2002. S 314; Travin. D. Yevropeyskaya modernizatsiya: V 2 kniga. Kniga.1. –M.: SPB., 2004 va boshqalar.] Uning transformatsiya nazariyasi buguni kunda – ikki qutbli dunyoviy tartib o‘rniga ko‘p qutbli siyosiy tartiboti shakllanayotgan pallada ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bizningcha O‘zbekiston ijtimoiy transformatsiyasi bu konsepsiyaga mos keladi – mamlakatda siyosiy realizm siyosati asosida ijtimoiy (sotsial) davlatchilik qaror topmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar va siyosiy mo‘ljallar siyosiy realizm ruhi bilan sug‘orilgan, deyish uchun barcha asoslar bor.

Agar postsovet ijtimoiy makoniga nazar tashlansa, o‘tgan o‘ttiz yildan ziyod vaqt davomida mustaqillikka erishgan sobiq sovet respublikalarida ijtimoiy transformatsiya turli darajada va maqomda kechdi. Bugungi postsovet siyosiy makoni “bosqichma-bosqich o‘zgarishlar” (Islom Karimov) shok terapiyasi (Rossiya, Ukraina, Gruziya, Qozog‘iston va h.k.) va boshqa siyosiy-falsafiy konseptual dasturlar va modellar asosida kechdi. Bunda xar bir millatning ruxiyati, mentaliteti, milliy xarakteri asosiy rol o‘ynadi. O‘zbekiston XX asrning 80-90 yillarda postsovet mamlakatlarda yuz bergan voqealardan to‘g‘ri xulosa chiqargan xolda o‘z taraqqiyot yo‘lini tanladi. Postsovet mamlakatlarning rivojlanish modellari va dasturlaridan o‘z taraqqiyot yo‘lidan foydalanmadi. Shuni xam e‘tiborga olish kerakki mustaqillikning ilk yillarida rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot modellariga ham murojaat etib ko‘rildi, (Turk modeli, Germaniya modeli, ...) lekin milliy mentalitemizga, xalqimiz turmush darajasi va ruxiyatiga mos kelmaslidi amaliyotga tadbiiq etilmadi. Shularni xisobga olgan xolda, ijtimoiy o‘zgarishlar milliy mentalitemizga mos sharqano bosiqlik, sabr-bardoshlik, davlatga hurmat va ijtimoiy intizomlilik asosida kechadigan, bosqichma-bosqich islohotlar yo‘li tanlandi. Yillar davomida mukammal ishlanagan bo‘lsa ham, ayrim kamchiliklari mavjud bo‘lsa ham “o‘zbek modeli” tinchlikni saqlash va barqaror rivojlanishda o‘zini oqladi – barqaror taraqqiyot yuzaga keldi. Bunga yana omil o‘zbek milliy mentaliteti keskin, inqilobiy o‘zgarishlarga moyil emasligi ham katta o‘rin tutdi.

O‘zbekiston ham milliy mustaqillikni dastlabki yillaridan taraqqiyotning “o‘zbek modeli” deb nomlangan ijtimoiy transformatsiya siyosatini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu model asosiga olingan besh prinsip, ayniqsa davlatning “bosh islohatchilik” siyosati, “bosqichma-bosqich islohot” konsepsiyasi taraqqiyotni tadrijiy yo‘li

barqaror rivojlanishga olib keldi. Bunday siyosat yosh, mustaqil O‘zbekistonning mustaxkam iqtisodiy – ijtimoiy, ma’naviy – madaniy poydevoriga asos bo‘ldi. Natijada tadrijiy rivojlanish siyosati uzluksizligi ta’minlandi.

Shuningdek tub ilohotlarni legitimlashtirish uchun bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi va hozirda ham davom etmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi to‘g‘risida”gi, “Parlament to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8-sentyabr PF.5185-son O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy islohatlar konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022 yil 30-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘jallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlar va boshqa konseptual islohotlar mamlakatimizda tub ijtimoiy transformatsiyani o‘tkazish uchun falsafiy – metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: “O‘zbekiston”. 2011.
2. Игрицкий Ю.И. “Общественная трансформация в СССР, Россия после 1985 г: взгляды и концепции”. Минск, 1998.
3. Ш.Мадаева. “Миллий менталитет ва демократик тафаккур”. –Т.: Фалсафа ҳуқуқ институти нашриёти, 2007.
4. А.Эркаев. “Миллий ғоя ва мафкура”. –Т.: “Маънавият”, 2002.
5. Поланьи К. “Великая трансформация”. –М.: СПБ, 2002.
6. Травин. Д. Европейская модернизация: В 2 книга. Книга.1. –М.: СПБ, 2004.

IJTIMOYIY SHERIKLIK VA IJTIMOYIY MULOQOT

Kamolov Ilhom Ibrohimovich

O'zbekiston Milliy universiteti izlanuvchisi,

O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tashkiliy ishlar bo'limi mudiri

Toshkent, O'zbekiston

icamolove@yandex.com

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda ijtimoiy sheriklik, ya'ni fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlik zamonaviy davlat boshqaruvida muhim o'rin egalladi. Ushbu hamkorlik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish, davlatning ijtimoiy funksiyalarini bajarishga ko'maklashish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash uchun asosiy vositalardan biridir. O'zbekiston ham bu yo'nalishda o'z tajribasini rivojlantirmoqda. Bu maqolada ijtimoiy sheriklikning nazariy asoslari, shakllari, afzalliklari, muammolari va O'zbekistondagi holati yoritiladi.

Kalit so'z: *kasaba uyushmasi, hukumat, ijtimoiy hamkorlik, jamiyat, zamonaviy*

ABSTRACT

In recent years, social partnership, that is, cooperation between civil society and the state, has taken an important place in modern public administration. This cooperation is one of the main tools for jointly solving socio-economic problems, assisting in the implementation of the social functions of the state, and strengthening civil society. Uzbekistan is also developing its experience in this direction. This article discusses the theoretical foundations, forms, advantages, problems, and the current situation of social partnership in Uzbekistan.

Key words: *trade union, government, social cooperation, society, modern.*

KIRISH

Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik subyektlaridir. Davlat

organlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlar bilan hamkorligi alohida qonunlar bilan tartibga solinadi”³².

Ijtimoiy sheriklik – bu davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari (jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari va boshqa institutlar) o‘rtasida barqaror va ochiq munosabatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy sheriklikning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

Birinchidan, ochiqlik va shaffoflik: Bu tamoyil davlat va jamiyat o‘rtasidagi jarayonlarning oshkoraligini ta‘minlash orqali, odamlarning davlat qarorlariga ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, o‘zaro mas’uliyat: Davlat va NNTlar o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarishga intilishi kerak. Bu ikki tomonning o‘zaro mas’uliyatini oshirish va umumiy maqsadga xizmat qiladigan loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Uchunchidan, manfaatlar uyg‘unligi: Ijtimoiy sheriklikda barcha tomonlarning manfaatlari inobatga olinadi, bu esa umumiy maqsadlarga erishishda samaradorlikni oshiradi.

Nazariy jihatdan, ijtimoiy sheriklik davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni anglatadi. Bu esa davlatning faqatgina hukumat organlari emas, balki keng jamiyat bilan birgalikda ishlash imkoniyatini beradi.

Davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik bir necha shakllarda amalga oshiriladi:

1. Davlat buyurtmalari – davlat ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishda NNTlarga buyurtma berib, bu xizmatlarni amalga oshirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi. Jumladan, mamlakatimizda 2017-2023-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati va ularning salkam 2100 ta loyihasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga davlat byudjetidan 513,8 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu maqsadlar uchun 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratildi³³.

2. Ijtimoiy grantlar – NNTlarga ma‘lum loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar ajratiladi. Bu, odatda, ijtimoiy loyihalar yoki aholi ehtiyojlariga yo‘naltirilgan dasturlar uchun beriladi.

3. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari – davlat va NNTlar o‘rtasida aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha shartnomalar tuzish.

³² <https://Lex.uz> Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.

³³ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston strategiyasi T. “O‘zbekiston” 394-bet

4. Davlat va NNT o'rtasidagi boshqa hamkorlik shakllari – bu boshqa turdagi sheriklik shakllarini ham o'z ichiga olishi mumkin, masalan, ijtimoiy loyihalarda hamkorlik qilish yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Shuni alohida ta'kidlash joizki mamlakatimiz - ijtimoiy grantlar va davlat buyurtmalari eng keng tarqalgan ijtimoiy sheriklik shakllangan davlatlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlarini, ayniqsa ularning ijtimoiy ahamiyatga ega loihalarini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari bilan ijtimoiy sherikchilikni kuchaytirish borasida izchil ishlar olib borilmoqda³⁴.

Ijtimoiy sheriklikning O'zbekistondagi holati haqida so'z borganda, O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish yo'lida qator huquqiy va institutsional chora-tadbirlar ko'rilgan. Jumladan, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi orqali davlat va NNTlar o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari yaratilgan. Shuningdek, davlat ijtimoiy sohadagi bir qator dasturlarni moliyalashtirish uchun grantlar va subsidiya shaklida mablag'lar ajratilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklikda muhim o'rin tutadi. Ular davlat bilan hamkorlikda xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

O'zbekistonda kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasaba uyushmalari mehnatkashlarning huquqlarini himoya qilish, ularning manfaatlarini himoya qilish, ish joylaridagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan tashkilotlardir. Ular davlat, ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik doirasida kasaba uyushmalari bir qancha vazifalarni bajaradi:

1. Mehnat shartlari va xavfsizligi: Kasaba uyushmalari mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishchilar uchun xavfsiz mehnat muhitini ta'minlash bo'yicha faoliyat yuritadi. Ular ishchilar va ish beruvchilar o'rtasida kelishuv bitimlarini tuzishda qatnashib, mehnatkashlarning huquqlarini himoya qilishga harakat qiladi.

2. Ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash: Kasaba uyushmalari a'zolariga ijtimoiy himoya va yordam ko'rsatadi, masalan, tibbiy yordam olish imkoniyatlarini ta'minlash, ijtimoiy nafaqalar berilishi, dam olish sharoitlarini yaxshilash va boshqa xizmatlar bilan ta'minlash.

3. Davlat bilan hamkorlik: Kasaba uyushmalari davlat bilan hamkorlik qilib, ishchilar va xodimlarning manfaatlarini davlat siyosatiga kiritish va himoya qilishga hissa qo'shadi. Davlat darajasida mehnat qonunchiligi, ijtimoiy himoya tizimlari va

³⁴ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston strategiyasi T. "O'zbekiston" 394-bet

bandlik siyosatini takomillashtirish uchun kasaba uyushmalari o'z tavsiyalarini beradi va davlat organlari bilan muhokamalarda ishtirok etadi.

4. Ish beruvchilar bilan muloqot: Kasaba uyushmalari ish beruvchilar bilan hamkorlik qilib, o'zaro manfaatlarni muvozanatlashga harakat qiladi. Ular o'z a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun muzokarlarda qatnashadi va kelishuv bitimlarini ishlab chiqadi.

Bu faoliyatlar natijasida O'zbekistonda kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklikning asosiy omili sifatida davlat, xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'z hissasini qo'shadi. Zero "Kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlash" konsepsiyasini yangi bosqichga ko'tarish orqali chinakam ijtimoiy davlat qurishni rejalashtirganmiz³⁵.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning afzalliklari va muammolari quyidagicha:

Ijtimoiy sheriklik bir qator afzalliklarga ega:

1. Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash – davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchning ortishi ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

2. Iqtisodiy samaradorlik – davlat va NNTlar hamkorligi orqali mablag'lardan oqilona foydalanish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

3. Fuqarolar faolligini oshirish – ijtimoiy sheriklik fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining davlat ishlarida ishtirokini rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy sheriklikda muayyan muammolar ham mavjud:

1. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi – ba'zi hollarda davlat yoki NNTlar uchun moliyaviy resurslar yetarli emas.

2. Muvaffaqiyatli hamkorlik yo'lidagi to'siqlar – davlat organlari va NNTlar o'rtasida o'zaro ishonch yetishmasligi hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Boshqaruvdagi murakkabliklar – ijtimoiy sheriklikni boshqarish va koordinatsiyalash jarayonlari qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni yanada samarali qilish uchun bir qator istiqbollari mavjud. Bunga raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va xalqaro tajribalarni o'rganish kiritilishi mumkin. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida muntazam ravishda ochiq muloqotlar o'tkazish, ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va aholi ehtiyojlariga mos xizmatlarni yaratish ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantiradi.

Kelajakda ijtimoiy sheriklik orqali fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi, bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

³⁵ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston strategiyasi T. "O'zbekiston" 57-bet

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ijtimoiy sheriklik zamonaviy jamiyatda barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash uchun asosiy vosita bo'lib, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatlarni shakllantiradi. Bu esa davlat va jamiyatning birgalikda ishlash imkoniyatini kengaytiradi va ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilishni ta'minlaydi. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi xalqning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda muhim qadam bo'lib, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali zamonaviy jamiyat qurilishiga katta hissa qo'shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston strategiyasi T. "O'zbekiston
2. Tuxtayevich, E. F. (2025). IJTIMOIIY HAYOTDA SHAXSLAR O'RTASIDA O'ZARO PSIXOLOGIK MUAMMOLAR. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(5), 273-376.

KOD SIFATINI OSHIRISH VA REFAKTORING USULLARI

Nasibullayev Jasurbek Farxod o‘g‘li

Alfraganus universiteti Raqamli texnologiyar fakulteti

Dasturiy injinering yo‘nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola dasturiy ta‘minot ishlab chiqishda kod sifatini oshirish va refaktoring usullarining ahamiyatini tahlil qiladi. Kod sifatini oshirish — dasturiy mahsulotning barqarorligi, o‘qilishi va kengaytirilishini ta‘minlash uchun muhim jarayon hisoblanadi. Maqolada refaktoringning asosiy prinsiplari, uning turlari va zamonaviy texnikalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kod sifatini baholashda qo‘llaniladigan mezonlar va ularning dasturiy injinering jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari dasturiy mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu ish dasturiy injenerlar va tadqiqotchilar uchun kod sifatini oshirishda amaliy yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Kod sifati, Refaktoring, Dasturiy ta‘minot, Dasturiy injinering, Texnik qarz, Avtomatlashtirilgan vositalar, Kodni soddalashtirish, Modullilik, Test qamrovi, Kod murakkabligi, Kodni yaxshilash, Dizayn shablonlari, Kodni qayta tuzish, Dasturchilar mas‘uliyati, Kodni tahlil qilish, Sifatni boshqarish, Dasturiy mahsulot, Kod bazasi, Ishlab chiqish jarayoni, Kodni optimallashtirish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение повышения качества кода и методов рефакторинга при разработке программного обеспечения. Повышение качества кода является важным процессом, обеспечивающим стабильность, читаемость и расширяемость программного продукта. В статье рассматриваются основные принципы рефакторинга, его виды и современные техники. Также освещаются критерии оценки качества кода и их роль в процессе программной инженерии. Результаты исследования способствуют выявлению эффективных подходов к улучшению качества программных продуктов. Данная работа предназначена для программных инженеров и исследователей, определяющих практические направления повышения качества кода.

Ключевые слова: *Качество кода, Рефакторинг, Программное обеспечение, Программная инженерия, Технический долг, Автоматизированный продукт, Упрощение кода, Модульность, Тестовое*

покрытие, Сложность кода, Улучшение кода, Шаблоны проектирования, Рефакторинг кода, Ответственность разработчика, Рефакторинг кода, Ответственность разработчика, Рефакторинг кода, Управление качеством, оптимизация, Рефакторинг кода.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of improving code quality and refactoring methods in software development. Improving code quality is a crucial process that ensures the stability, readability, and extensibility of software products. The article examines the main principles of refactoring, its types, and modern techniques. It also highlights the criteria for assessing code quality and their role in the software engineering process. The research results contribute to identifying effective approaches to enhancing software product quality. This work serves as a guide for software engineers and researchers in defining practical directions for code quality improvement.

Keywords: *Code quality, Refactoring, Software, Software engineering, Technical debt, Automated tools, Code simplification, Modularity, Test coverage, Code complexity, Code improvement, Design patterns, Code refactoring, Developer responsibility, Code analysis, Quality management, Software product, Code base, Development process, Code optimization.*

KIRISH

Dasturiy ta'minotning sifatini oshirish bugungi kunda dasturiy injinering sohasida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir davrda, dasturiy mahsulotlar murakkablashib, ularga bo'lgan talablar oshib bormoqda. Shu sababli, yuqori sifatli, samarali va barqaror dasturiy ta'minotni yaratish uchun kod sifatini oshirish jarayoni va refaktoring usullari dasturchilar hamda injenerlar uchun ajralmas vositalarga aylangan. Kod sifati nafaqat dasturiy ta'minotning ishlash samaradorligini ta'minlaydi, balki uning saqlanishi, kengaytirilishi va kelajakda yuzaga keladigan muammolarni kamaytirishda ham katta rol o'ynaydi.

Kod sifatini oshirish dasturiy injineringning fundamental maqsadlaridan biri sifatida ko'plab olimlar, mutaxassislar va soha amaliyotchilari tomonidan e'tirof etilgan. Misol uchun, Pressman (2014) o'zining dasturiy injinering bo'yicha klassik asarida kod sifatini yuqori darajada ta'minlash uchun yaxshi dizayn, testlash va refaktoringni muhim omillar sifatida sanaydi. Shuningdek, Fowler (1999) tomonidan ta'kidlanganidek, refaktoring — bu dastur kodini ichki tuzilishini yaxshilash, uning tashqi xatti-harakatlarini o'zgartirmasdan, kodni yanada tushunarli, samarali va qayta

ishlatishga yaroqli qilish jarayonidir. Kod sifati ko‘plab mezonlar orqali baholanadi. Masalan, o‘qilishi (readability), murakkablik (complexity), modullilik (modularity), test qamrovi (test coverage), kodning qayta ishlatish imkoniyati (reusability) va boshqa ko‘rsatkichlar kod sifatini o‘lchashda muhim ahamiyatga ega. McConnell (2004) kod sifatini aniqlashda ayniqsa o‘qilish va murakkablik omillarini alohida ta’kidlab, bu ko‘rsatkichlarning kodni tushunish va uni rivojlantirish jarayonini qanchalik yengillashtirishini ko‘rsatadi.

Refaktoringning o‘zi dasturiy injinering jarayonida kod sifatini oshirish uchun samarali yondashuv sifatida ko‘riladi. Refaktoring usullari kodni optimallashtirish, ortiqcha va takroriy kodlarni bartaraf etish, arxitekturani yaxshilash, xatolarni kamaytirish va umumiy dastur samaradorligini oshirishga qaratilgan. Gamma va boshqalar (1994) “Design Patterns” asarida ta’kidlaganidek, yaxshi tuzilgan dizayn shablonlari refaktoring jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan kuchli vositalardan biridir. Bugungi kunda ko‘plab dasturchilar va kompaniyalar refaktoringni muntazam bajarish orqali kod bazasining sifatini doimiy nazorat qilib, uni yanada mukammal holga keltirishga intilmoqda. Zamonaviy dasturiy injineringda avtomatlashtirilgan refaktoring vositalari ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, IntelliJ IDEA, Eclipse, Visual Studio kabi dasturlash muhiti va vositalari dasturchilarga refaktoringni soddalashtirish va tezlashtirish uchun turli xil qulayliklar yaratadi. Bu vositalar kodni tahlil qilib, taklif etilgan o‘zgartirishlarni avtomatik tarzda bajarishga imkon beradi, shuning uchun inson xatolarini kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

Bundan tashqari, kod sifatini oshirish jarayonida metodologiyalar va standartlar ham katta rol o‘ynaydi. Agile, DevOps va Continuous Integration (CI) kabi zamonaviy ishlab chiqish metodologiyalari dastur sifatini doimiy yaxshilash va kodni tez va sifatli ishlab chiqish jarayonini ta’minlaydi. Shu bilan birga, kodning sifatini o‘lchash va nazorat qilish uchun statik va dinamik tahlil vositalari, kod tekshirish (code review) va unit testlar tizimlari keng qo‘llaniladi. Ammo kod sifatini oshirish va refaktoring jarayonlari o‘ziga xos qiyinchiliklarga ham ega. Dasturchilarning kodga bo‘lgan yondashuvi, vaqt cheklovlari, texnik qarz (technical debt) va loyihaning murakkabligi ko‘pincha sifatni oshirish jarayonlarini sekinlashtiradi yoki to‘xtatib qo‘yadi. Shuning uchun samarali refaktoring va sifat nazorati uchun aniq strategiyalar, avtomatlashtirilgan vositalar va jamoaviy hamkorlik zarur hisoblanadi. Shu bois, ushbu maqola kod sifatini oshirish va refaktoring usullarining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilib, sohadagi ilg‘or yondashuvlarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda kod sifatini baholash mezonlari, refaktoring turlari va texnikalari, zamonaviy avtomatlashtirilgan vositalar va ulardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Bu ish dasturiy injenerlar uchun kod sifatini oshirish

bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun ushbu sohada yangi yondashuvlarni rivojlantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METOD

Kod sifatini oshirish va refaktoring masalalari dasturiy injinering sohasida uzoq yillar davomida faol o'rganilib kelmoqda. Turli olimlar va mutaxassislar bu masalaga turlicha yondashuvlarni taklif qilgan, ammo barcha yondashuvlarning asosiy maqsadi sifatli, o'qilishi oson, kengaytiriladigan va barqaror kod yaratish hisoblanadi.

Kod sifati tushunchasi dastlab dasturiy mahsulotlarning ishlash samaradorligi va xatolarga chidamliligi bilan cheklangan bo'lsa, so'nggi yillarda kodning o'qilishi, texnik qarzni kamaytirish, modullilik va test qamrovi kabi parametrlar ham unga kiritildi. McConnell (2004) kod sifatini "dasturchilar tomonidan oson tushuniladigan va boshqariladigan kod" sifatida ta'riflab, uning dasturiy ta'minotning umumiy muvaffaqiyatiga ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, kod murakkabligini o'lchash uchun Koza va McCabe (1976) tomonidan taklif qilingan siklomatik murakkablik (cyclomatic complexity) ko'rsatkichi keng qo'llaniladi, bu kodning qanchalik murakkab va murakkablik darajasi yuqori bo'lsa, xatolarning yuzaga kelish ehtimoli shuncha ko'p ekanligini ko'rsatadi.

Refaktoring so'zining o'zi "qayta shakllantirish" degan ma'noni anglatadi. Fowler (1999) refaktoringni "dastur kodining tashqi xatti-harakatlarini o'zgartirmasdan, ichki tuzilishini yaxshilash jarayoni" deb ta'riflaydi. Refaktoringning maqsadi kodni soddalashtirish, ortiqcha va takroriy qismlarni kamaytirish, dizaynni yaxshilash va xatolarni kamaytirishdir. Ushbu jarayon dasturiy ta'minot hayot aylanishi davomida doimiy ravishda amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, Gamma va boshqalar (1994) tomonidan ishlab chiqilgan dizayn shablonlari (design patterns) refaktoring jarayonida muhim vosita sifatida e'tirof etilgan. Dizayn shablonlari kodni yanada modul va qayta ishlatishga yaroqli qilishga yordam beradi, bu esa kod sifatini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy dasturiy injineringda kod sifatini oshirish jarayonida avtomatlashtirilgan vositalar muhim o'rin tutadi. Stahl, Timmermans va Flick (2021) o'z tadqiqotlarida kod sifatini monitoring qilish, statik kod tahlili va avtomatik refaktoring vositalarining dasturchilar samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini qayd etishadi. Bunday vositalar inson xatolarini kamaytiradi va kod sifatini doimiy ravishda nazorat qilish imkonini beradi.

Kod sifatini oshirish bilan bog'liq qiyinchiliklar ham keng o'rganilgan. Technical debt (texnik qarz) tushunchasi Bohem va boshqa olimlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bu dasturiy ta'minotning tezda ishlab chiqilishi natijasida kelib chiqadigan sifat muammolarini anglatadi. Texnik qarz kodni keyinchalik refaktoring orqali yaxshilashni talab qiladi, aks holda tizimning ishlashi va rivojlanishi uchun jiddiy to'siq bo'lib qoladi.

Kod sifatini baholashda turli indikatorlar ishlatiladi: kod qamrovi (test coverage), murakkablik darajasi, kodning modullilik darajasi, bug'lar soni va ularning aniqlanish va bartaraf etilish vaqti. Bu indikatorlar dasturchilar va menejerlarga kod sifatini tushunish va uni yaxshilash yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, adabiyotlarda kod sifatini oshirish va refaktoring sohasida nazariy va amaliy jihatlar keng yoritilgan bo'lsa-da, bu jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun yanada integratsiyalashgan yondashuvlar, zamonaviy avtomatlashtirilgan vositalar va sifatni doimiy monitoring qilish tizimlari muhimligi ta'kidlanadi.

Kodning tushunarli va o'qilishi oson bo'lishi dasturchilar jamoasida hamkorlikni yaxshilaydi, yangi kiritilayotgan funksiyalarni soddalashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Shunday qilib, kodni soddalashtirish va yaxshilash masalalari dasturiy ta'minot sifatini yaxshilash yo'lidagi asosiy bosqichlardan biridir. Ko'plab tadqiqotchilar va amaliyotchilar kodni yaxshilash usullarini aniqlashga harakat qilib, dasturiy mahsulotlarni tezroq va samaraliroq ishlab chiqishga yordam beradigan texnikalar va metodlarni ishlab chiqqanlar.

Kodning sifatini baholash va uni oshirishda bir qator parametrlar va ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, dastlab koddagi murakkablik va xatoliklar soni tahlil qilinardi, keyinchalik esa kodni modullilik, qayta foydalanish darajasi, testlarning qamrovi kabi ko'rsatkichlar bilan o'lchash metodlari rivojlandi. Bu ko'rsatkichlar yordamida dasturchilar kodning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, uni qanday yaxshilash mumkinligini belgilaydilar.

Texnik qarz tushunchasi dasturiy ta'minot sohasida keng tarqalgan tushunchalardan biri bo'lib, u dastlab dasturiy mahsulotni tezda ishlab chiqish uchun sifatdan voz kechish natijasida yuzaga keladigan muammolar majmuasini ifodalaydi. Ushbu qarz vaqt o'tishi bilan kodni yanada murakkablashtiradi va uni yangilash, saqlash jarayonlarini qiyinlashtiradi. Shu bois, kodni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish va yaxshilash — texnik qarzni kamaytirish va uni boshqarish uchun samarali strategiya sifatida qaraladi.

Dasturiy kodni yaxshilash jarayonida refaktoring usullari katta o‘rin tutadi. Refaktoring — bu kodning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmasdan, ichki tuzilishini takomillashtirish jarayoni. Bu jarayon ko‘plab muammolarni, jumladan, takroriy kod, murakkab tuzilmalar, noto‘g‘ri nomlangan o‘zgaruvchilar, va boshqa kod sifatini pasaytiruvchi omillarni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, refaktoring dizaynning yaxshilanishiga, kodning qayta foydalanilishini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda dasturchilar turli metod va yondashuvlardan foydalanadilar, jumladan kodni kichik modullarga ajratish, nomlash qoidalarini yaxshilash, ortiqcha qismlarni yo‘q qilish va boshqalar.

Zamonaviy dasturiy injineringda avtomatlashtirilgan vositalar refaktoring jarayonini sezilarli darajada soddalashtirdi va tezlashtirdi. Bu vositalar kodni avtomatik tarzda tahlil qilib, potentsial muammolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish uchun takliflar beradi. Bu jarayon inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi va ishlab chiqarish jarayonining sifatini oshiradi. Shuningdek, kod sifatini nazorat qilish uchun statik tahlil, dinamik tahlil, kod sharhlari va boshqa metodlar keng qo‘llaniladi.

Kod sifatini oshirish sohasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiruvchi, zamonaviy yondashuvlarni taklif qiluvchi ma’lumotlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, ushbu sohada hali ko‘plab yechilmagan masalalar mavjud — kodni avtomatik ravishda mukammallashtirish, murakkab tizimlarda refaktoring strategiyalarini ishlab chiqish, kod sifatini o‘lchash mezonlarini yanada takomillashtirish kabi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi yondashuvlar va ilg‘or vositalar ishlab chiqilishi davom etmoqda.

XULOSA

Dasturiy ta’minotning muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi va uzoq muddat davomida barqaror ishlashi ko‘p jihatdan uning kod sifatiga bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kod sifatini yaxshilash — nafaqat dasturiy mahsulotni samarali va ishonchli qilish, balki dasturchilar jamoasining ishini yengillashtirish, texnik qarzni kamaytirish va tizimni kelajakda kengaytirishga imkon yaratishning eng muhim omillaridan biridir. Kodni soddalashtirish va uning ichki tuzilishini takomillashtirish jarayoni sifatida qaraladigan refaktoring usullari dasturiy injineringda kod sifatini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Refaktoring kodni yaxshilash jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni kamaytiradi, xatolar sonini qisqartiradi va yangi funksiyalarni qo‘shishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, kod sifatini ta’minlashda zamonaviy avtomatlashtirilgan vositalarning roli beqiyosdir. Bu vositalar dasturchilarga kodni

muntazam monitoring qilish, xatolarni erta aniqlash va ularni samarali bartaraf etishda yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammo — texnik qarzning to‘g‘ri boshqarilmasligi. Tezkor va vaqtni tejash maqsadida sifatdan voz kechish uzoq muddatda tizimning murakkablashuvi va qo‘shimcha xarajatlarga olib keladi. Shu bois, texnik qarzni boshqarish va kamaytirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ishlab chiqish dasturiy injinering sohasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, kod sifatini baholash mezonlarini doimiy ravishda yangilab borish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhimdir. Kodning murakkablik darajasi, test qamrovi, modullilik va boshqa ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda sifatni aniq va ob‘ektiv baholash tizimini yaratish, bu borada ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish zarur. Shu tarzda, dasturchilar va muhandislar o‘z ishlarini yanada samaraliroq va sifatli bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kelajakda kod sifatini oshirish va refaktoring jarayonlarini yanada samarali qilish uchun sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari mavjud. Ushbu texnologiyalar avtomatik kod tahlili va takomillashtirishni yanada mukammallashtirishga, murakkab tizimlarda inson faktorini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bois, dasturiy injinering sohasida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish kod sifatini oshirish bo‘yicha yangi davrni boshlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, kod sifatini yaxshilash va refaktoring usullarini tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirish dasturiy mahsulotlarning muvaffaqiyati va uzoq muddat ishlashi uchun zarurdir. Ushbu jarayonlarni rivojlantirish va muntazam takomillashtirish dasturchilar jamoasining samaradorligini oshirish, texnik qarzni kamaytirish va dasturiy ta‘minotni kelajakda ham barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. McConnell, S. (2004). Dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish san‘ati. Toshkent: Axborot texnologiyalari nashriyoti.
2. Fowler, M. (1999). Refaktoring: Kodni yaxshilash san‘ati. Toshkent: Dasturiy injinering bo‘yicha ilmiy nashr.
3. Gamma, E., Helm, R., Johnson, R., Vlissides, J. (1994). Dizayn shablonlari: Ob‘ektga yo‘naltirilgan dasturlash uchun. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

4. Pressman, R. S. (2014). Dasturiy injiniring: Amaliy yondashuvlar. Toshkent: Texnologiya nashriyoti.
5. Stahl, T., Timmermans, J., Flick, T. (2021). Kod sifatini nazorat qilish va avtomatlashtirilgan refaktoring vositalari. Dasturiy injiniring jurnali, 28(3), 112-130.
6. Bohem, B. (1981). Texnik qarz tushunchasi va boshqaruvi. Dasturiy injiniring bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami, 12(1), 45-58.

THE RELATIONSHIP BETWEEN STUDENTS' MOTIVATION AND THEIR ENGLISH LANGUAGE ACHIEVEMENT AMONG UNIVERSITY STUDENTS IN UZBEKISTAN

Adolat Ismailova

Teacher of theory and methodology faculty
Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers institute

ABSTRACT

Motivation plays a crucial role in determining learners' success in acquiring a foreign language. This study investigates the relationship between students' motivation and their English language achievement among university students in Uzbekistan. A quantitative correlational design was employed using a motivation questionnaire and students' academic results. The findings revealed a significant positive correlation between motivation and English achievement, indicating that students with higher motivation levels performed better in their English courses. The study also found that intrinsic motivation had a stronger influence on achievement compared to extrinsic motivation. The results highlight the importance of motivational strategies in English language teaching and suggest practical implications for educators.

Keywords: *Motivation, English Language Achievement, EFL Learners, Intrinsic Motivation, Extrinsic Motivation*

1. Introduction

In the field of English language education, motivation has been widely recognized as one of the most influential factors affecting learners' performance. While teaching methodology and materials contribute to language learning, a student's internal drive to learn is often the decisive element in achieving success. According to Gardner (1985), motivation determines the extent to which a learner is willing to invest effort, time, and persistence in learning a language.

In Uzbekistan, English is taught as a foreign language (EFL) at almost all educational levels. However, despite the widespread instruction, learners' outcomes often vary significantly. Some students achieve high proficiency, while others struggle despite similar learning conditions. This study seeks to explore one possible explanation for such differences — the role of motivation. The main purpose of this research is to examine the relationship between students' motivation and their

achievement in English language learning and to determine which type of motivation (intrinsic or extrinsic) has a greater impact on performance.

2. Literature Review

Motivation in language learning has been studied extensively by scholars such as Gardner and Lambert (1972), Dörnyei (2001), and Deci and Ryan (1985). According to Self-Determination Theory (SDT), motivation can be categorized into intrinsic and extrinsic types. Intrinsic motivation refers to engaging in learning for personal satisfaction and interest, while extrinsic motivation relates to external rewards, such as grades or career prospects.

Studies conducted by Alizadeh (2016) and Mahmoud (2020) indicate that students with high intrinsic motivation tend to show better language performance because they learn for enjoyment and self-development. On the other hand, extrinsic motivation, though effective in the short term, may not lead to long-term mastery. However, limited research has been carried out in the Uzbek context, where sociocultural factors and exam-oriented education may affect motivational patterns. This study fills that gap by focusing on Uzbek university students' motivation toward English learning and their academic success.

3. Methodology

A quantitative correlational research design was employed to identify the relationship between motivation and English language achievement.

Participants: The participants included 80 undergraduate students from different faculties of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers institute. The students' English proficiency levels ranged from intermediate to upper-intermediate.

Instruments: Two main instruments were used: (1) a Motivation Questionnaire adapted from Gardner's Attitude/Motivation Test Battery (AMTB), consisting of 20 items on intrinsic and extrinsic motivation; and (2) students' English Achievement Scores based on their final semester grades.

Data Analysis: Data were analyzed using SPSS software. Descriptive statistics were used to measure motivation levels, and the Pearson correlation coefficient (r) was applied to determine the relationship between motivation and achievement.

4. Results and Discussion

The results indicated a positive and significant correlation ($r = 0.68$, $p < 0.01$) between students' motivation and their English achievement. This means that students with higher motivation levels tended to obtain higher grades. Furthermore, the analysis revealed that intrinsic motivation ($r = 0.74$) had a stronger influence on

English achievement than extrinsic motivation ($r = 0.59$). This finding aligns with Dörnyei's (2001) claim that learners who study for enjoyment and personal growth are more successful in the long run.

The study also observed that students motivated by internal goals (such as improving communication skills and exploring cultures) were more active in class participation and self-study, compared to those motivated primarily by grades or parental pressure.

The findings of this study indicate that there is a strong and positive relationship between students' motivation and their English language achievement.

Students with higher levels of intrinsic motivation—those who learn English out of personal interest, enjoyment, or desire for self-improvement—tend to perform better than those driven solely by extrinsic factors such as grades or rewards.

This suggests that cultivating internal motivation is essential for long-term success in language learning.

From an educational standpoint, teachers play a significant role in influencing students' motivation. The way instructors design classroom activities, provide feedback, and create an engaging atmosphere can either enhance or diminish learners' interest.

Motivational strategies such as using authentic materials, incorporating technology, and providing autonomy can significantly improve students' participation and confidence.

Furthermore, regular encouragement, recognition of progress, and establishing a supportive environment can foster a positive attitude toward learning English.

At the institutional level, universities should emphasize professional development programs for teachers that include training in motivational psychology and learner-centered teaching methodologies.

In addition, curriculum designers should integrate motivational elements into English courses—such as project-based learning, cooperative activities, and reflective assignments—to keep students actively involved in their learning process.

This study also contributes to the growing body of research emphasizing the psychological dimensions of language education in Uzbekistan.

As the demand for English proficiency increases globally, understanding motivational dynamics becomes even more critical for educators and policymakers.

The results highlight the need for further exploration into how social, cultural, and technological factors influence students' language learning motivation in different educational settings.

Future research could focus on comparing motivation levels among students of different academic majors or exploring how gender, socio-economic background, and digital learning tools affect motivational patterns.

Moreover, longitudinal studies could help identify changes in motivation over time and the long-term effects of specific teaching interventions on language achievement.

In conclusion, fostering motivation among university students is not only a pedagogical challenge but also a strategic necessity for improving English language proficiency in Uzbekistan.

Teachers, institutions, and policymakers must work collaboratively to design learning environments that inspire curiosity, confidence, and commitment to language learning.

Such an approach will ultimately contribute to the formation of a more competent, globally minded generation of English language learners.

5. Conclusion

This research confirms that motivation is a key determinant of English language success among EFL learners. Both intrinsic and extrinsic motivation positively influence achievement; however, intrinsic motivation shows a stronger and more sustainable impact. English teachers are encouraged to design classroom activities that foster learners' internal motivation — such as goal-setting, self-reflection, and meaningful communication tasks. Educational policymakers should also consider integrating motivational support into English curricula to enhance students' long-term engagement and performance.

REFERENCES

1. Alizadeh, M. (2016). The impact of motivation on English language learning. *International Journal of Research in English Education*, 1(1), 11–15.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. Springer.
3. Dörnyei, Z. (2001). *Teaching and Researching Motivation*. Longman.
4. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). *Attitudes and Motivation in Second-Language Learning*. Newbury House.
5. Mahmoud, A. (2020). The relationship between motivation and academic achievement in EFL contexts. *Journal of Language Teaching and Research*, 11(5), 735–741.

QANDLI DIABET BILAN XASTALANGAN OTA VA ONALARDAN TUG‘ILGAN AVLODLAR YURAK QORINCHALARINING DEVORIDAGI MORFOMETRIK O‘ZGARISHLAR

Adilbekova Dilorom Baxtiyarovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,

Anatomiya va klinik anatomiya kafedrası professori, Toshkent, O‘zbekiston.

E-mail: dilorom.adilbekova65@gmail.com

Xojaniyazova Aruna Zinatdinovna

Mustaqil izlanuvchi. Toshkent, O‘zbekiston.

E-mail: Zinatdingizi@gmail.com

Ahrorov Abdulaziz Azizjonovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Davolash fakulteti talabasi,

Toshkent, O‘zbekiston.

E-mail: abdulazizahrarov670@gmail.com

Toshpo‘latov Sardorjon Sarvarjonovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Davolash fakulteti talabasi,

Toshkent, O‘zbekiston.

E-mail: sardortoshpolatov935@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qandli diabet bilan xastalangan ota-onalardan tug‘ilgan avlodlarning yurak qorinchalari devorida kuzatiladigan morfometrik o‘zgarishlar o‘rganilgan. Ekperimental tadqiqotda yurak kardiomiotsit hujayralari, kapillyar tarmog‘i hamda miokardning strukturasi tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, diabetik avlodlarda yurak devori qalinlashgani, kardiomiotsitlar gipertrofiyasi va interstitsial biriktiruvchi to‘qima miqdorining ortgani aniqlandi. Ushbu o‘zgarishlar yurakda funksional buzilishlarning erta morfologik belgilari sifatida baholandi. Eksperimental tadqiqot natijalari qandli diabetning avlod yurak tuzilmasiga ta’sirini chuqur ilmiy natijalarga tayangan holda o‘rganish va onadagi qandli diabetning avlod yuragida keltirib chiqaruvchi asorat va oqibatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *qandli diabet, yurak morfologiyasi, qorincha devori qalinligi, kardiomiotsitlar, transgeneratsion ta’sir.*

ABSTRACT

This article studies the morphometric changes observed in the wall of the ventricles of the heart of offspring born to parents with diabetes. In the experimental

study, the structure of cardiac cardiomyocyte cells, capillary network, and myocardium was analyzed. According to the results, thickening of the heart wall, cardiomyocyte hypertrophy, and an increase in the amount of interstitial connective tissue were detected in diabetic offspring. These changes were evaluated as early morphological signs of functional disorders in the heart. The results of the experimental study can serve as a scientific and practical basis for studying the effect of diabetes on the structure of the heart of offspring based on in-depth scientific results and developing measures to eliminate the complications and consequences of maternal diabetes in the heart of the offspring.

Keywords: *diabetes, heart morphology, ventricular wall thickness, cardiomyocytes, transgenerational effect.*

KIRISH

Qandli diabet (QD) xastaligi nafaqat bemorlarning o'zini, balki ularning avlodlarini salomatligini xavf ostiga qo'yadigan global metabolik kasallikdir. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'yicha 400 milliondan ortiq odam diabet bilan og'rimoqda, bu son 2045 yilga borib 700 millionga yetishi kutilmoqda [1]. Diabetning nafaqat bemorlarning o'ziga, balki ularning avlodlariga ham bo'ladigan transgeneratsion ta'siri so'nggi yillarda tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Ko'pgina epidemiologik tadqiqotlar qandli diabet bilan hastalangan onalardan tugilgan bolalarda yurak nuqsonlari xavfi sezilarli darajada oshganligini qat'iy isbotlab bermoqda. [2] ma'lumotlariga ko'ra 2 millionga yaqin homiladorlikni qamrab olgan keng qamrovli metatahlili shuni ko'rsatdiki, onasi qandli diabet bilan xastalangan avlodlarda kongenital yurak nuqsonlari xavfi 3,5 baravar ortadi [2]. Xuddi shu tadqiqotda, gestatsion diabet bilan og'rigan onalarning bolalarida yurak nuqsonlari rivojlanish ehtimoli 2,1 baravar yuqori ekanligi aniqlandi. Biroq, otadagi qandli diabet bilan xastalangan avlodlarda yuragi rivojlanishiga ta'siri nisbatan kam o'rganilgan va bu soha diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Basu va boshqalarning 2020-yilda olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, otaning metabolik holati sperma epigenomiga ta'sir ko'rsatishi va shu orqali embrion rivojlanishini modulyatsiya qilishi mumkin [3]. Chen va hamkorlari 2023-yilda eksperimental qo'zg'atilgan diabet kasallangan erkak kalamushlar avlodlarida yurak funksiyasiga ta'sirini o'rganib, ota giperglikemiyasining avlodlarda kardiomiopatiya rivojlanishiga olib kelishini isbotladilar [4]. Yurak rivojlanishi murakkab morfogenetik jarayon bo'lib, unda genetik va epigenetik omillar o'zaro murakkab bog'liqlikda rol o'ynaydi [5]. Yuqoridagi ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotning maqsadi

ota va onaning qandli diabet kasalligining kalamushlar avlodida yurak qorinchalarining devori qalinligi va kardiomiotsitlar o'lchamiga alohida va kombinatsiyalangan ta'sirini qiyosiy baholashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi marta ota va onaning qandli diabet kasalligining ular avlodlari yuragi morfologiyasiga bo'lgan ta'sirini kompleks qiyosiy tahlil qilinadi, bu esa klinik amaliyotda yurak patologiyalarining oldini olish va erta diagnostika qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi ota va onadagi qandli diabet xastaligining avlodlarida yurak qorinchalarining devori qalinligi va kardiomiotsitlar o'lchamiga qiyosiy ta'sirini eksperimental sharoitda aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari qandli diabet bilan kasallangan ota-onalarning bolalarida yurak-qon tomir patologiyalarining oldini olish va erta diagnostika qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, transgeneratsion metabolik mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.

Material va usullar. Tadqiqot 60 ta laboratoriya Wistar kalamushlar va ular avlodlarida o'tkazildi, yetuk yoshdagi kalamushlarning vazni 180-220 gramm va yoshi 2-3 oy oralig'ida edi. Barcha hayvonlar standart vivarium sharoitida saqlanib, harorat $22\pm 2^{\circ}\text{C}$, nisbiy namlik $55\pm 10\%$ va 12/12 soatlik yorug'lik/qorong'ilik rejimiga moslashtirilgan. Kalamushlar polipropilen qafaslarda, har birida 5 tadan saqlanib, standart granulalangan yem va filtrlangan suvga cheksiz kirish imkoniyatiga ega edilar. Hayvonlar 4 guruhga tasodifiy taqsimlandi: 1-guruh - onasi diabetik ($n=15$), 2-guruh - otasi diabetik ($n=15$), 3-guruh - ota-onasi diabetik ($n=15$), 4-guruh - nazorat ($n=15$). Qandli diabet kasalligi modeli alloksan sitrat buferi yordamida chaqirildi, buning uchun hayvonlar 12 soatlik ochlikdan so'ng yuqoridagi preparatni 11 mg/100g dozada qorin bo'shlig'i orqali yuborish usulida qabul qildilar. Nazorat guruhidagi hayvonlarga ekvivalent hajmda izotonik eritma yuborildi. Qon glukoza darajasi 72 soat davomida OneTouch Ultra qon glukoza o'lchagich yordamida dum vena qonidan o'lchandi va 11.1 mmol/l dan yuqori bo'lgan hayvonlar diabetik deb qabul qilindi. Diabetik holat tasdiqlangandan so'ng, hayvonlar 3 oy davomida kuzatildi va shundan keyin juftlash amalga oshirildi. Homiladorlik davri 21-23 kun davom etdi va tug'ilgan bolalar ona suti bilan 4 hafta davomida emizildi. 2 oylik yoshga yetgach, avlod kalamushlar ketamin (100 mg/kg) va xlorpromazin (15 mg/kg) aralashmasi yordamida narkozga olindi. Yurak namunalari torakotomiya orqali olingan va fiziologik eritma bilan yuvilgandan so'ng, 10% neytral formalin eritmasida 48 soat davomida fiksatsiya qilindi. Namunalar spirtli eritmalar qatorida suvsizlantirildi va parafinga quyildi. 5 mk qalinlikdagi kesmalar mikrotom yordamida olindi va gematoksilin-eozin (H&E) usullari bilan bo'yaldi va morfometrik

o‘lchovlar amalga oshirildi. Chap qorincha devori qalinligi, o‘ng qorincha devori qalinligi va qorinchalararo parda qalinligi standart protokollar asosida o‘lchandi. Kardiomiotsitlar diametri va yadro o‘lchami har bir namunada kamida 100 ta hujayra o‘lchangan holda aniqlandi. Yurak massasi indeksi yurak vaznining tana vazniga nisbati sifatida hisoblandi. Olingan ma’lumotlar SPSS 25.0 dasturida tahlil qilindi, natijalar $M \pm SD$ ko‘rinishida taqdim etildi. Gruhlar o‘rtasidagi farqlarning ahamiyati bir omilli dispersiya tahlili (ANOVA) va post-hoc Tukey testi yordamida baholandi. $p < 0.05$ statistik ahamiyatli deb qabul qilindi. Barcha hayvonlar bilan muomala Xalqaro hayvonlarni g‘amxo‘rlik qilish va foydalanish qo‘mitasining (IACUC) qoidalariga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagi jadval va diagrammalarda keltirilgan bo‘lib, ular ota va onaning qandli diabetining kalamushlar avlodida yurak qorinchalarining devor qalinligi va kardiomiotsitlar o‘lchamiga ta’sirini aniq ko‘rsatadi.

Yurak qorinchalarining devor qalinligi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalarning diabeti avlod yuragining morfologik tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, onasi diabetik bo‘lgan guruhda chap qorincha devorining nisbiy qalinligi nazorat guruhiga nisbatan 23,7% oshgan ($p < 0,01$), ota diabeti bo‘lgan guruhda esa 12,3% ($p < 0,05$) ga oshgan. Ota-onasi diabetik bo‘lgan guruhda eng kuchli o‘zgarishlar kuzatildi - chap qorincha devori 31,2% qalinlashgan.

1-jadval. Yurak qorinchalarining devor qalinligi (mm)


Guruh	Chap qorincha devori	O‘ng qorincha devori	Qorinchalararo parda	Yurak massasi indeksi
Nazorat guruhi	1.85 ± 0.12	0.92 ± 0.08	1.12 ± 0.09	3.45 ± 0.28
Onasi diabetik	$2.29 \pm 0.18^*$	$1.15 \pm 0.11^*$	$1.48 \pm 0.12^*$	$4.82 \pm 0.35^*$
Otasi diabetik	$2.08 \pm 0.14^{**}$	$1.03 \pm 0.09^{**}$	$1.29 \pm 0.10^{**}$	$3.98 \pm 0.31^{**}$
Ota-onasi diabetik	$2.43 \pm 0.21^*$	$1.24 \pm 0.13^*$	$1.62 \pm 0.15^*$	$5.26 \pm 0.42^*$

*nazoratga nisbatan $p < 0,01$; ** - nazoratga nisbatan $p < 0,05$*

O'ng qorincha devori qalinligida ham xuddi shunday tendensiya kuzatildi: onasi diabetik bo'lgan guruhda 25,0% o'sish, otasi diabetik bo'lgan guruhda 12,0% o'sish, ota-onasi diabetik bo'lgan guruhda esa 34,8% o'sish qayd etildi. Qorinchalararo parda qalinligi ham sezilarli darajada oshgan bo'lib, eng yuqori o'sish ota-onasi diabetik bo'lgan guruhda (44,6%) kuzatildi.

Kardiomiotsitlar morfometriyasi. Kardiomiotsitlar o'lchamida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Kardiomiotsitlar diametri onasi diabetik bo'lgan guruhda 25,4% oshgan, ota diabeti bo'lgan guruhda esa 9,8% ($p < 0,05$) ga oshgan. Ota-onasi diabetik bo'lgan guruhda kardiomiotsitlar diametri 34,5% oshgan, bu boshqa guruhlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Kardiomiotsitlar yadrosining diametri onasi diabetik bo'lgan guruhda 18,9% oshgan, ota diabeti bo'lgan guruhda esa 9,4% ($p < 0,05$) ga oshgan. Ota-onasi diabetik bo'lgan guruhda kardiomiotsitlar yadrosi diametri 26,4% oshgan. Kardiomiotsit/kern nisbati barcha guruhlarda o'zgarmasligiga qaramay, bu kardiomiotsitlar gipertrofiyasining proporsional rivojlanganligidan dalolat beradi.

1-diagramma: Yurak qorinchalarining devor qalinligidagi o'zgarishlar



Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, barcha eksperimental guruhlarda nazorat guruhiga nisbatan yurak morfometrik ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi:

Guruhlararo taqqoslash variatsion-statistika usullari yordamida amalga oshirildi va barcha guruhlar o'rtasidagi farqlar statistik ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p < 0.05$). Ota-onasi diabetik bo'lgan guruhda kuzatilgan sinergistik ta'sir alohida qayd etildi, bu turli patogenetik mexanizmlarning kombinatsiyasidan dalolat beradi. Barcha guruhlarda kardiomiotsit/kern nisbati o'zgarmas qolganligiga qaramay, bu kardiomiotsitlar gipertrofiyasining proporsional rivojlanganligini ko'rsatadi.

XULOSA

Ushbu eksperimental tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalar olindi:

1. Ota-onalarning qandli diabeti kalamushlar avlodida yurakning morfologik tuzilishiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu yurak gipertrofiyasining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Barcha eksperimental guruhlarda chap qorincha devori qalinligi, kardiomiotsitlar diametri va yurak massasi indeksida statistik ahamiyatli o'sish kuzatildi.

2. Onaning qandli diabet xastaligi avlod yuragiga otaning qandli diabet xastaligiga nisbatan ancha kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Onasi qandli diabet kasalligi bo'lgan guruhda chap qorincha devori qalinligi 23.7% ga oshgan bo'lsa ($p < 0.01$), otasi diabetik bo'lgan guruhda bu ko'rsatkich 12.3% ni tashkil etdi ($p < 0.05$).

3. O'ng va chap qorincha devorlaridagi o'zgarishlar bir xil yo'nalishda bo'ldi, lekin chap qorincha devorida o'zgarishlar ancha sezilarli darajada kuzatildi, bu sistematik yuklanishning ortishi bilan izohlanishi mumkin.

4. Tadqiqot natijalari klinik ahamiyatga ega bo'lib, qandli diabet bilan xastalangan ota-onalarning avlodlarida yurak-qon tomir tizimining erta skriningini o'tkazish va profilaktika choralari ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

5. Transgeneratsion ta'sirning mavjudligi metabolik kasalliklarning avlodlar orasida uzatilishining mexanizmlarini chuqurroq o'rganish zarurligini taqozo etadi, ayniqsa, epigenetik o'zgarishlar va mitoxondrial funksiyaning buzilishi sohasida.

Ushbu xulosalar asosida qandli diabet bilan og'rikan ota-onalarning bolalarida yurak patologiyalarining oldini olish maqsadida muntazam kardiologik tekshiruvlar o'tkazish, yurak ultratovush tekshiruvi va EKG monitoringini joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Diabetes Federation. IDF Diabetes Atlas, 10th edn. Brussels, Belgium: 2021.
2. Zhao Z., Wang Y., Zhang L. et al. Maternal diabetes and the risk of congenital heart defects in offspring: a comprehensive meta-analysis. *Pediatric Cardiology*. 2021;42(5):1011-1020.
3. Basu M., Garg V. Paternal factors in embryonic cardiac development. *Journal of Developmental Origins of Health and Disease*. 2020;11(2):113-123.
4. Chen X., Liu H., Zhang R. et al. Paternal streptozotocin-induced diabetes and its effects on offspring cardiac function and structure. *American Journal of Physiology-Heart and Circulatory Physiology*. 2023;324(1):H125-H134.



5. Smith J.A., Brown K.L. Cardiac development: genetic and epigenetic mechanisms. *Circulation Research*. 2020;126(12):1671-1691.

HAVO IFLOSLANISHI TARQALISHINI GAT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH

Nosirov Baxtiyorjon Ixtiyorjonovich

*University of Management and Future Technologies
(Menejment va zamonaviy texnologiyalar universiteti)*

*Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: baxtiyornosirov10leo@gmail.com

Tel: 91 147 33 91

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola havo ifloslanishi tarqalishini geoaxborot tizimlari (GAT) yordamida modellashtirishning metodlari, imkoniyatlari va amaliy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada yer usti monitoring stansiyalari, transport va sanoat zonalaridan olingan ma'lumotlar hamda masofaviy kuzatish texnologiyalari asosida havo ifloslanishining fazoviy va vaqt bo'yicha tarqalishini tahlil qilish usullari tavsiflanadi. Shuningdek, GAT yordamida ishlab chiqilgan modellar ekologik monitoring, shahar rejalashtirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini qo'llashda amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *Havo ifloslanishi, tarqalish modellashtirish, geoaxborot tizimlari (GAT), GIS, fazoviy tahlil, masofaviy kuzatish, sanoat va transport manbalari, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish.*

MODELING THE SPREAD OF AIR POLLUTION USING GAT

ABSTRACT

This article is devoted to the study of methods, possibilities and practical significance of modeling the distribution of air pollution using geographic information systems (GIS). The article describes methods for analyzing the spatial and temporal distribution of air pollution based on data from ground monitoring stations, transport and industrial zones, and remote sensing technologies. It is also shown that the models developed using GIS are of practical importance in the application of environmental monitoring, urban planning and sustainable development strategies.

Keywords: *Air pollution, distribution modeling, geographic information systems (GIS), GIS, spatial analysis, remote sensing, industrial and transport sources, environmental monitoring, sustainable development.*

KIRISH

Havo ifloslanishi global ekologik muammolardan biri bo‘lib, inson salomatligi, qishloq xo‘jaligi, sanoat faoliyati va tabiiy ekotizimlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shaharlardagi transport, sanoat korxonalari va energiya ishlab chiqarish jarayonlaridan havoga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar – chang zarralari, azot oksidlari, oltinugurt dioksidi va uglerod oksidlari – hududiy va vaqt bo‘yicha noaniq taqsimlanadi. An‘anaviy kuzatish stansiyalari odatda lokal ma‘lumotlarni taqdim etadi va keng hududlarda ifloslanish tarqalishini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli havo ifloslanishi tarqalishini tahlil qilish va prognoz qilishda geoaxborot tizimlari (GAT) muhim vosita sifatida qo‘llaniladi.

GAT yordamida havo ifloslanishini modellashtirish jarayonida yer usti monitoring stansiyalari, sanoat va transport manbalari hamda masofaviy kuzatish texnologiyalaridan olingan ma‘lumotlar integratsiyalanadi. Ushbu tizimlar orqali ifloslanishning hududiy taqsimoti, konsentratsiya nuqtalari va vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari aniqlanadi. Maqola havo ifloslanishi tarqalishini GAT yordamida modellashtirish usullari, ularning amaliy ahamiyati va ekologik monitoring tizimlaridagi roli haqida batafsil ma‘lumot beradi.

Havo ifloslanishi zamonaviy ekologik muammolardan biri sifatida inson salomatligi, qishloq xo‘jaligi, sanoat faoliyati va tabiiy ekotizimlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shaharlardagi transport, sanoat korxonalari, energiya ishlab chiqarish va boshqa antropogen faoliyat natijasida havoga chiqariladigan chang zarralari, oltinugurt dioksidi, azot oksidlari va uglerod oksidlari kabi ifloslantiruvchi moddalar hududiy va vaqt bo‘yicha noaniq taqsimlanadi. Shu sababli, havo sifati monitoringi va ifloslanish tarqalishini bashorat qilish muhim ekologik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi. An‘anaviy kuzatish usullari ko‘pincha lokal ma‘lumotlarni taqdim etadi va keng hududlarda yoki murakkab shahar infratuzilmasi mavjud hududlarda havo ifloslanishini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu nuqtai nazardan, geoaxborot tizimlari (GAT) havo ifloslanishini modellashtirish va tahlil qilishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi.

Geoaxborot tizimlari yordamida havo ifloslanishini modellashtirish jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqich – ma‘lumotlarni yig‘ish. Bu yerga yer usti monitoring stansiyalari, transport yo‘llari va sanoat zonalaridan olinadigan ma‘lumotlar, shuningdek, masofaviy kuzatish texnologiyalari orqali olingan sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlari kiradi. Masofaviy kuzatish usullari havo tarkibini, ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasini va ularning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini aniqlashga yordam beradi. Keyingi bosqichda yig‘ilgan ma‘lumotlar GAT dasturlariga yuklanadi va hududiy tahlilga tayyorlanadi. Bu jarayon fazoviy

xaritalash va analiz yordamida ifloslanishning hududiy taqsimoti, konsentratsiya nuqtalari va potentsial xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beradi.

Havo ifloslanishini modellashtirishda GAT bir nechta metodlardan foydalanadi. Masalan, interpolatsiya usullari (IDW, kriging) mavjud kuzatuv nuqtalari asosida hududiy konsentratsiya xaritalarini yaratadi. Shu bilan birga, transport yo‘llari va sanoat manbalarining hududiy taqsimoti, shamol yo‘nalishlari va boshqa meteorologik parametrlar hisobga olinadi. Bu yondashuv orqali havo ifloslanishining vaqt bo‘yicha va hududiy tarqalishi modellashtiriladi. Havo ifloslanishini modellashtirish natijalari ekologik nazorat, shahar rejalashtirish, transport tizimini optimallashtirish va sanoat manbalarini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shuningdek, GAT yordamida ishlab chiqilgan modellar nafaqat hozirgi ifloslanish darajasini baholashga, balki kelajakdagi scenariylarni prognoz qilishga ham imkon beradi. Masalan, transport yo‘llari kengaytirilsa yoki sanoat zonalarini rivojlansa, modellashtirilgan xaritalar yordamida havo sifati va ifloslanish zonalarining o‘zgarishi oldindan baholanadi. Bu esa shahar va mintaqa ekologik strategiyasini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Havo ifloslanishini modellashtirish va fazoviy xaritalash orqali ekologik xavf-xatarlarni aniqlash, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va inson salomatligini himoya qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Natijada, GAT yordamida havo ifloslanishini modellashtirish ekologik monitoring, shahar va sanoat infratuzilmasini boshqarish, transport va sanoat manbalarining ekologik ta‘sirini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar yordamida havo sifati tizimli ravishda nazorat qilinadi, ifloslanish manbalari va tarqalish zonalarini aniqlanadi hamda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi amaliy strategiyalar ishlab chiqiladi. Shu tarzda, geoaxborot tizimlari nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy ekologik boshqaruv va shahar rejalashtirish jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Havo ifloslanishi tarqalishini GAT yordamida modellashtirish ekologik monitoring va shahar rejalashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Geoaxborot tizimlari yordamida yer usti monitoring stansiyalari, transport va sanoat manbalaridan olingan ma‘lumotlar integratsiyalanadi, ifloslanishning hududiy taqsimoti va vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari aniqlanadi. Ushbu yondashuv ekologik xavf-xatarlarni baholash, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va inson

salomatligini himoya qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, GAT asosidagi modellashtirish havo sifati monitoringini tizimli, aniq va samarali qilish imkonini beradi, ifloslanish manbalarini aniqlash va ularni kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni rejalashtirishda yordam beradi. Shu tarzda, geoaxborot tizimlari havo ifloslanishini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5742-сонли Фармони
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 18 августдаги 235-сон “Қишлоқ хўжалиги экин майдонларининг норматив қийматини аниқлаш тартиби тўғрисида” қарори
3. Сафаров Э.Ю., Пренов Ш.М. Табиий карталарни лойиҳалаш ва тузиш. – Тошкент, Университет, 2011. – 159 б.
4. Пренов Ш. М. Оролбўйи ҳудудининг экологик ҳолатини ўрганишда ва геоэкологик картасини тузишда аэрокосмик маълумотлардан фойдаланиш. Ўзбекистон География жамиятининг IX - съезд материаллари. Тошкент 2014 й. 318-322 б.
5. Фуломова Л.Ҳ. Географик ахборот тизимлари. Тошкент.: Университет, 2018 й.

AGRICULTURAL TERMINOLOGY IN THE HINDI LANGUAGE

Qurbonova Ozoda

Lal Bahadur Shastri School No. 24

ABSTRACT

This paper explores the agricultural terminology of the Hindi language, focusing on its origin, linguistic features, and comparison with Uzbek equivalents. The study reveals that Hindi agricultural terms have deep historical roots, derived from Sanskrit, Persian, and English, and are constantly evolving under the influence of modern technology. The analysis highlights their semantic clarity, cultural relevance, and significance for comparative linguistic research.

Introduction. Language reflects every aspect of human activity, including economic and agricultural life. Agriculture plays a vital role in India's economy, with the majority of the population engaged in farming. As a result, Hindi has developed a rich and diverse system of agricultural terminology. This thesis aims to analyze the structure, meaning, and development of Hindi agricultural terms and to compare them with similar terms in the Uzbek language.

Main Part

1. Origin of Agricultural Terms

Many Hindi agricultural terms have originated from Sanskrit. For example: कृषि (kṛṣi) – agriculture, बीज (bīj) – seed, हल (hal) – plough, सिंचाई (sinchāī) – irrigation. In addition, some terms have been borrowed from Persian and Arabic: फसल (fasal) – crop, खाद (khād) – fertilizer, खेती (kheti) – cultivation.

2. Influence of Modern Technology

With industrial and technological progress, numerous English words have entered Hindi agricultural vocabulary: ट्रैक्टर (traikṭar) – tractor, कंबाइन हार्वेस्टर (kambāin hārvestar) – combine harvester, फर्टिलाइजर (phartilāizar) – fertilizer, पेस्टिसाइड (pestisāid) – pesticide. These terms are adapted to Hindi phonetics and written in the Devanagari script.

3. Linguistic Features

Hindi agricultural terms are semantically specific and practical in nature. They are generally formed as simple words or compound expressions, and are easily understandable by rural speakers. Examples: खेत मजदूर (khet majdur) – field laborer, धान की खेती (dhān kī kheti) – rice cultivation. Unlike poetic or abstract vocabulary, agricultural terminology in Hindi tends to be direct and descriptive.

4. Comparison with Uzbek Language

Due to historical and cultural links, several terms in Hindi and Uzbek share similar meanings and origins: urugʻ – बीज (bīj) (seed), hosil – फसल (fasal) (crop), oʻgʻit – खाद (khād) (fertilizer), traktor – ट्रैक्टर (traikṭar) (tractor). Such similarities demonstrate common agricultural traditions between the two cultures.

5. Socio-cultural Importance

Agricultural terms in Hindi are not limited to professional discourse. They are widely used in daily communication, literature, and media. These terms reflect the rural lifestyle, social structure, and agricultural progress of Indian society.

***Conclusion.** Hindi agricultural terminology represents a linguistic system shaped by the country's agrarian history, technological development, and cultural identity. Studying these terms is essential for linguistic, terminological, and cultural research. Comparative analysis between Hindi and Uzbek agricultural terms provides valuable insights for both linguists and translators, contributing to the enrichment of Uzbek terminological resources.*

REFERENCES

1. Sharma, R.K. (2018). Bhāratīya Kṛṣi Śabdakośa. New Delhi: Rajkamal Prakashan.
2. Kumar, S. (2020). Terminology in Hindi Agricultural Discourse. Delhi University Press.
3. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2021). Qishloq xoʻjaligi terminlari. Tashkent.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 165 b.
5. Бархударов А.С., Бескровный В.М., Зограф Г.А., Липеровский В.М. Хинди-русский словарь. Т I. – М.: Советская Энциклопедия, 1972. – 907 с.
6. Бархударов А.С., Бескровный В.М., Зограф Г.А., Липеровский В.М. Хинди-русский словарь. Т II. – М.: Советская Энциклопедия, 1972. – 912 с.

GENDER DIFFERENCES IN THE USE OF PRAGMATIC MARKERS IN UZBEK AND ENGLISH CONVERSATIONS

Matluba Isoqjon qizi Turdieva

*Teacher, Teaching English Methodology Department №1,
Uzbekistan State University of World Languages,
Tashkent, Uzbekistan
Tel: +998903150482*

email: matlubaxonturdieva@gmail.com

Raximbekova Hadicha Baxrombek qizi

*Millat Umidi University
2nd year student of English Philology*

ABSTRACT

This article examines how pragmatic markers in both English and Uzbek conversations are used by men and women. Pragmatic markers are small words or expressions (e.g., “you know”, “well”, “bilasanmi”, “ya’ni”) that help speakers manage conversation in many ways, such as expressing attitude, or softening statements. The article turns to several existing literature about gender and pragmatics and provides relevant examples to show how different is the men and women's use of pragmatic markers in both languages. After discussion, this paper talks about how a better understanding of these patterns can help English language teaching (ELT) as well as cross-cultural communication.

Key words: *Gender, feature, women, men, pragmatic markers, differences, language, culture*

Introduction

In everyday conversation, we know that what we say is important—but few of us have noticed the fact that how we say it can impact the meaning a lot and matters just as much, if not more. Pragmatic markers (also known as discourse markers) may feel subtle, yet they are one of the most powerful features of spoken language that help speakers with organizing their talk, connecting with listeners, expressing attitude, or navigating conversation more smoothly. For instance, in English a speaker might say: “Well, I think...” before jumping right into an opinion to ease and introduce it first, or “You know...” to involve the listener. Similarly, in Uzbek, comparable markers—such as “bilasanmi” (you know/see) or “ya’ni” (that is/you mean)—perform the very conversational functions.

Moreover, gender plays a crucial role in how speakers use language which is seen in the decades of research in sociolinguistics and pragmatics where scholars have observed that men and women's choice of conversational styles often tend to differ. These styles reflect many aspects like cultural expectations, social roles, and the interpersonal dynamics of communication. For example, in conversation, women may place greater emphasis on building and maintaining social relationships, while men may emphasize independence or status more. (See, for example, Tannen, 1990; Erman, 1992).

When we combine these two strands—pragmatic markers with gender differences—an intriguing question occurs: Do both genders use pragmatic markers differently? And if they do, how do those differences look/sound like in different languages and cultural contexts? This article explores how the use of pragmatic markers in English and Uzbek conversational contexts is affected by those differences, and what these comparisons mean for language learners, teachers, and cross-cultural communicators.

By looking into these issues, I hope to provide insights for English Language Teaching (ELT) field in Uzbekistan, as well as other settings, where learners may get benefit from recognizing not just the grammar and vocabulary of English, but also the subtle features of conversation that are shaped by language, culture and gender.

Literature Review

Gendered differences in language use are highlighted in many studies. Deborah Tannen (1990), can be a good case in point, where she argues that women often use language to build connection, while men often use it to assert status or independence. In the area of pragmatic/discourse markers, Britt Erman (1992) conducted a study of British English speakers examining the expressions “you know,” “you see,” and “I mean.” Her findings show that there are indeed gender-specific differences: women tend to use these expressions between complete propositions to link ideas, whereas men preferred to use them as attention-drawing devices or to signal repair.

In the Uzbek context, although studies focussing specifically on pragmatic markers by gender are fewer, there is research into gender and pragmatics more generally, such as the article “Speech Expression of Gender and its Pragmatic Classification” (2024), which examines how gender appears in speech and pragmatic classification in Uzbek. While it does not provide detailed quantitative data about each pragmatic marker, it suggests gender is relevant in pragmatic use in Uzbek. Other research in discourse markers more broadly suggests that women may use markers more for involvement and connection, while men may use them more for

information management or controlling the flow of conversation. For example, in summaries of multiple studies, women are found to use more "softeners", hedges, tag-questions, and participation markers (Holmes, 2008) whereas men may favour more direct forms.

From these findings, we can begin to anticipate that in English and in Uzbek, pragmatic marker use may differ by gender—and that language teachers and learners should be aware of such differences when interpreting or producing spoken language to avoid misunderstandings.

Discussion

In this section, illustrative (not empirical) examples and commentary are given to show how gender might influence pragmatic marker use in both languages in question, based on the literature and general patterns of conversation.

English

Female speaker: "Well, I think we should start now, you know?"

Here "well" introduces the statement gently; "you know" involves the listener, softening the opinion and inviting response.

Male speaker: "Let's start."

This is more direct, with fewer fillers or involvement markers.

According to Erman (1992), although men used the pragmatic markers more frequently in her corpus, their functions were different: men used them for attention drawing or repair, whereas women used them to link propositions and involve listeners.

Therefore, for English conversation one might hypothesize that:

Women use more markers that build social connection or soften statements;

Men use fewer markers or use them to manage turns, repair speech, or draw attention.

Uzbek

In Uzbek, while direct published data is limited, we can draw from known pragmatic features and consider gendered patterns.

Female speaker example: "Bu kino juda han zo'r ekan, to'g'rimi?" ("This movie is very good, isn't it?")

The question-tag "to'g'rimi?" invites agreement and involves the listener, which is also softening the statement.

Male speaker example: "Bu kino zo'r ekan." ("This movie is good.")

A very straightforward statement, without add-ons or softeners.

Other Uzbek pragmatic markers include “bilasanmi” (“you know/see”), “ya’ni” (“that is/you mean”), and “o’sha-da” (“you see/that one”), which speakers may use to manage conversation, indicate assumption or engage the listener.

One could propose that female Uzbek speakers might use involvement markers (such as question tags, “bilasanmi”, “ya’ni”) more often to invite response or show connection, while male speakers may favour more direct statements. Because cultural norms in Uzbek communication often favour politeness and indirectness, these differences may manifest subtly.

Cross-Language and Gender Patterns

Comparing English and Uzbek, some cross-language insights emerge:

Both languages use pragmatic markers to soften statements, involve listeners, manage discourse.

Women in both cultures might use more markers that invite engagement and show cooperation.

Men, however, might use fewer markers or even if they do use them, it would be more for managing discourse rather than social connection.

Cultural norms influence how direct or indirect speech is acceptable. In Uzbek culture, for example, polite conversational forms may favour involvement markers – which might shape marker use differently from English contexts.

For example:

Uzbek female: “Menimcha, bu taklif juda yaxshi, shunday emasmi?” (“I think, this proposal is good, isn't it?”) — contains involvement marker “shunday emasmi”, which asks for the confirmation or opinion of the other person.

Uzbek male: “Taklif yaxshi deb o'ylayman” (“I think the proposal is good”) — more direct.

In English: Female: “Well, I guess we could maybe try that.” Male: “Let’s try that.”

These contrast show how participation, softening, and involvement may be mediated through pragmatic markers and differ by gender.

Implications for ELT

For ELT students and teachers (especially in Uzbekistan), recognizing these patterns has practical value:

Raising awareness: Teaching students about how pragmatic markers like “you know”, “well”, “I mean” (and Uzbek equivalents) function helps learners better understand natural speech and become more fluent in conversation.

Gender-sensitive awareness: Understanding that men and women may favour different conversational styles allows teachers to design activities that reflect this variation, encourage flexible use of language, and reduce learner anxiety around “how I should say it”.

Cross-cultural transfer: Uzbek learners of English may carry over pragmatic marker habits from Uzbek into English (e.g., using “bilasanmi”-equivalent). If English learners know the functions of these markers, they can choose appropriate equivalents and avoid unnatural transfers.

Practice and reflection: Pair or group activities can simulate conversational styles (direct vs softening). Students can analyse how the conversation changes when markers are present or absent. For example, one student speaks with many involvement markers, the other more direct, then discuss how the tone changed.

Avoid stereotyping: It’s important to emphasise that these are tendencies, not rigid rules. Each speaker is unique; context matters more than gender alone.

Conclusion

Pragmatic markers may seem small or insignificant in conversation, but they play a major role in how we communicate: how we start an opinion, invite a response, soften a refusal, hold a turn, or repair a misunderstanding. The literature shows that gender differences in the use of these markers exist — for example, in English research women often use them to build social connection and involve listeners, while men use them more to manage discourse or draw attention (Erman, 1992). In Uzbek pragmatics, while detailed gender-specific data is scarcer, research shows gender plays a role in pragmatic classification of speech (Jo’rayeva, 2024), suggesting that gendered patterns likely affect pragmatic marker use too.

Comparing English and Uzbek shows that despite cultural and linguistic differences, some broad patterns hold: women often favour markers of involvement and connection; men often favour more direct styles with fewer involvement markers. However, the specific markers, their frequency, and their cultural functions depend heavily on the norms of each language community. For ELT in Uzbekistan and elsewhere, this means that beyond grammar and vocabulary, teachers and learners should pay attention to how people speak—including the little words and phrases that organise and smooth speech.

By raising awareness of pragmatic markers and gendered patterns, EFL (English as a Foreign Language) teaching can help learners become not only correct but also natural and socially aware speakers. If learners understand how to use “you know” or its equivalent, how to soften an expression, or how to invite dialogue, they can

communicate more effectively. In short: appreciating the intersection of gender, pragmatics, and culture in language use enriches both teaching and learning.

REFERENCES

1. Erman, B. (1992). Female and male usage of pragmatic expressions in same-sex and mixed-sex interaction. *Language Variation and Change*, 4(2), 217-234. <https://doi.org/10.1017/S0954394500000764>
2. Jo'rayeva, Z. Y. q. (2024). Speech expression of gender and its pragmatic classification. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 173-177.
3. Holmes, J. (2008). *An Introduction to Sociolinguistics* (3rd ed.). London: Routledge.
4. Tannen, D. (1990). *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. New York: Ballantine Books.

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARNING XUSUSIYATLARI HAMDA SIFAT KAFOLATINI TA'MINLASH MASALALARI

To'rayev Furqat Xolmatovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

furkat.turaev01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada geografik ko'rsatkichlarning xususiyatlari va mahsulot sifatini kafolatlash mexanizmlarinazariy hamda huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Geografik ko'rsatkichlar – bu mahsulotning sifati, obro'si yoki boshqa o'ziga xos xususiyatlari ma'lum bir hudud bilan bog'langan intellektual mulk obyektidir. Tadqiqotda geografik ko'rsatkichlarning asosiy xususiyatlari: hududga xosligi, tarixiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, tabiiy va inson omillarining mahsulot sifatiga ta'siri ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, maqolada sifatni kafolatlash tizimlari ham ko'rib chiqiladi: ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki nazorat va rasmiy intellektual mulk organlari tomonidan doimiy monitoring. Maxsus e'tibor ishlab chiqaruvchilar huquqlari va iste'molchilar manfaatlarini muvozanatlash, shuningdek sifat nazoratini samarali amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga qaratilgan. Tadqiqot natijasida xulosa qilinadiki, mustahkam huquqiy asos va tizimli sifat nazorati mexanizmlari geografik ko'rsatkichlarga bog'langan mahsulotlarning haqiqiylikini va obro'sini saqlash uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: *geografik ko'rsatkichlar, geografik ko'rsatkichlarning xususiyati, geografik ko'rsatkichlarning sifati, xususiyatlarni saqlashni nazorat qilish.*

KIRISH

Jahon savdo tashkilotining to'laqonli a'zosi bo'lish yo'lidagi harakatlar doirasida 2022-yilda "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida" qonunning qabul qilinishi ushbu sohada judayam katta qadam bo'ldi. Bu eng avvalambor oldindan ham mavjud bo'lgan lekin huquqiy himoya yetishmayotgan mahsulotlarni huquqiy jihatdan qo'llab quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonunining 3-moddasida geografik ko'rsatkichlarga rasmiy ta'rif berilgan: "Tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida identifikatsiyalovchi belgi geografik ko'rsatkich deb e'tirof etilib, unda tovarning sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari (bundan buyon matnda tovarning xususiyatlari deb yuritiladi) uning geografik jihatdan kelib chiqishiga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Mazkur

geografik obyekt hududida tovarni ishlab chiqarishning tovarning xususiyatlarini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan bosqichlaridan loaqal bittasi amalga oshirilishi kerak"³⁶. Biz aynan ushbu ta'rifdan kelib chiqib ba'zi bir tushunchalarga izoh berib o'tishimiz lozim. Ya'ni har qanday tovar geografik ko'rsatkich deb topilishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik mahsulotlari, milliy taomlar hamda ichimliklar geografik ko'rsatkich deb e'tirof etiladi va bu ro'yxatni ko'plab davom ettirishimiz mumkin, chunki, qonunda tovarga nisbatan hech qanaqa cheklov mavjud emas. Bundan tashqari ta'rifda tovarning obro'si, sifati yoki boshqa xususiyatlari haqida so'z boradi. Bunda qonun chiqaruvchi geografik ko'rsatkich uchun yuqorida sanab o'tgan uchala xususiyat (obro', sifat, xususiyat)dan loaqal bittasining bo'lishi tovarni geografik ko'rsatkich sifatida e'tirof etilishi uchun yetarli ekanligini ta'kidlaydi. Aynan ushbu belgisi bilan geografik ko'rsatkichlar tovar kelib chiqqan joy nomidan farqlanadi. Butunjahon Intellektual Mulk Tashkilotining ta'kidlashicha, "sifat" atamasi mahsulotning ma'lum bir sifat darajasini emas — balki uning xususiyatini anglatadi; bu esa mahsulotni geografik kelib chiqishi asosida ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Shu ma'noda mahsulotning aniq tavsifi yoki uni tayyorlash usuli ham "sifat"ni belgilashi mumkin³⁷. Geografik ko'rsatkichlar faqat sifatga ega mahsulotlar bilan cheklanmaydi. Ular obro'-e'tibor (reputation)ga ega mahsulotlarga ham qo'llanadi. Rangnekar ta'kidlaganidek, "obro'"ning alohida ko'rsatib o'tilishi maxsus sifati yoki xususiyati bo'lmasa ham mashhur bo'lgan, ammo tovar kelib chiqqan joy nomi sifatida himoyaga mos kelmagan mahsulotlarga himoya berish imkonini yaratadi³⁸. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, geografik ko'rsatkichlar individuallashtirish vositasi sanaladi, shu jihatdan uning sfati, obro'si yoki xususiyati "farqlovchi" bo'lishi ham talab etiladi. Bunda mahsulotning obro'si, sifati yoki xususiyati 2 xil omilga ko'ra tavsiflanadi: **tabiat omili** va **inson omili**. Ayrim tovarlarning geografik ko'rsatkich deya e'tirof etilishiga muayyan hududning tabiati ta'sir o'tkazsa (Roquefort pishlog'i), ayrim tovarlarda inson omili (Chust pichog'i) muhim rol o'ynaydi. Inson omili deganda aynan ma'lum bir hududda yashovchi aholining hududga xos an'anaviy bilimlari, mahorati, texnologiya yoki ishlab chiqarish usullari tushuniladi. Tadqiqotchi Maskusning ta'kidlashicha, Geografik ko'rsatkichlardagi "obro'" mahsulotning iqlim yoki tuproq sifatidan kelib chiqadigan jismoniy xususiyatlaridan doimo vujudga kelmasligi mumkin, balki geografik hududga xos bo'lgan boshqa

³⁶ "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida" Qonun. O'RQ-757. 03.03.2022. 4-modda. <https://lex.uz/docs/-5889882>.

³⁷ WIPO Standing Committee on the Law of Trademarks, Industrial Designs and Geographical Indications (SCT), "Geographical Indications", Document SCT/10/4, 25 March 2003, para.10.

³⁸ Dwigen Rangnekar, "Demanding Stronger Protection for Geographical Indications—The Relationship between Local Knowledge Information and Reputation" (2004) United Nations University, Discussion Paper Series No.2004/11, p.11.

omillar — masalan, “mahalliy ixtirochilik” (local inventiveness) orqali ham shakllanishi mumkin³⁹.

Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2022-yildan beri 3 yildan ortiq davr mobaynida respublika bo'ylab 17 ta geografik ko'rsatkich ro'yxatga olingan⁴⁰. Eng ko'p geografik ko'rsatkich Samarqand viloyatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, Navoiy, Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent shaharlarida hanuzgacha geografik ko'rsatkich ro'yxatdan o'tmagan. Yana bir muhim jihatga e'tibor qaratmoqchimizki, yurtimizda ro'yxatdan o'tgan geografik ko'rsatkichlarning aksariyat qismi, “Sanoat mulki muhofazasi” O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk elektron davlat xizmatlari portalida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, inson omili orqali o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan geografik ko'rsatkichlar hisoblanadi. Chust pichog'i va Chust do'ppisi bunda yaqqol misol bo'la oladi.

Endi esa e'tiboringizni geografik ko'rsatkichlarning sifati va xususiyatlarining nafaqat iste'molchilar huquqlari nuqtai nazaridan balki geografik ko'rsatkich ro'yxatdan o'tgan hududdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning huquqlari nuqtai nazaridan ham naqadar muhim ahamiyatli ekanligiga qaratmoqchiman. Undan oldin esa qonunchilikka bir nazar tashlashni maqsadga muvofiq deb o'ylayman. “Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida”gi qonunning 5-moddasi geografik ko'rsatkichlardan foydalanish haqida so'z yuritadi:

“Agar geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazgan shaxs muayyan sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari sezilarli darajada uning geografik kelib chiqishiga bog'liq bo'lgan tovarni ishlab chiqarayotgan bo'lsa, mazkur shaxs ushbu geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini oladi.

Ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi xuddi shu geografik obyektida joylashgan va xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan tovar ishlab chiqarayotgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga ham berilishi mumkin.”⁴¹

Bundan quyidagilar anglashilmoqda, birinchidan, geografik ko'rsatkichni davlat ro'yxatidan tovarning bevosita ishlab chiqaruvchisi emas balki, istalgan manfaatdor shaxs o'tkazishi mumkin, misol uchun mahalliy hokimliklar.

Ikkinchidan, agar geografik ko'rsatkichni ro'yxatdan o'tkazayotgan shaxs muayyan sifati, nom qozonganligi yoki boshqa xususiyatlari sezilarli darajada uning geografik kelib chiqishiga bog'liq bo'lgan tovarni ishlab chiqarayotgan bo'lsa, ya'ni

³⁹ Keith E. Maskus, “Observations on the Development Potential of Geographical Indications”, p.1, available at: <http://www.ycsg.yale.edu/documents/papers/Maskus.doc.2014>.

⁴⁰ www.im.adliya.uz saytidan

⁴¹ “Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida” Qonun. O'RQ-757. 03.03.2022. 5-modda. <https://lex.uz/docs/-5889882>.

o‘zi ro‘yxatdan o‘tkazayotgan tovarning ishlab chiqaruvchisi bo‘lsa, mazkur geografik ko‘rsatkichdan foydalanish huquqini qo‘lga kiritishi mumkin.

Uchinchidan esa, umuman ro‘yxatga olish jarayonida ishtirok etmagan, lekin mazkur geografik ko‘rsatkichning tavsif qismida bayon etilgan sifat yoki xususiyatga ega bo‘lgan tovarni ishlab chiqarayotgan bo‘lsa, mazkur geografik ko‘rsatkichdan foydalanish huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Shu o‘rinda xorij tajribasini ham keltirib o‘tish joiz, Janubiy Korea tajribasida geografik ko‘rsatkichlar bir necha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Eng asosiysi esa “Savdo belgisi to‘g‘risida”gi qonundir. Ushbu normativ hujjatga muvofiq geografik ko‘rsatkichlar ikki xil shaklda muhofazaga olinishi mumkin. Ular quyidagilar:

- “Geografik ko‘rsatkichli jamoaviy belgi”si orqali (2004-yil)
- “Geografik ko‘rsatkichli sertifikat belgi”si orqali (2011-yil).

“Geografik ko‘rsatkichli jamoaviy belgi”ni ro‘yxatdan o‘tkazish faqat birlashma shaklidagi yuridik shaxslar tomonidan talabnoma topshirish orqali amalga oshiriladi. Lekin birlashma tarkibidagi yuridik shaxslarning barchasi tovar ishlab chiqaruvchi tashkilot bo‘lishi talab etilmaydi. Bu faqat sotish bilan shug‘ullanuvchi yoki birlashmaga yuridik xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxs bo‘lishi ham mumkin. Bitta yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan geografik ko‘rsatkichni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma topshirib bo‘lmaydi.⁴² Milliy qonunchiligimizdan farqli jihati ham aynan shunda. “Geografik ko‘rsatkichli sertifikat belgi”si esa bizning qonunchiligimizda mavjud bo‘lmagan tartib bo‘lib, istalgan jismoniy yoki yuridik shaxs “Geografik ko‘rsatkichli sertifikat belgi”sini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishi mumkin, lekin ushbu shaxs geografik ko‘rsatkich bilan muhofaza qilinayotgan tovarni ishlab chiqaruvchisi bo‘lmasligi lozim. Geografik ko‘rsatkichli sertifikatlash belgisi ishlab chiqaruvchi yoki qayta ishlovchi emas, balki sertifikatlash faoliyatini yurituvchi jismoniy shaxs, korporatsiya yoki har qanday turdagi tashkilot tomonidan talabnoma berilgan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin. Sertifikatlash belgisi iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish uchun xizmat qilib, sifatli mahsulot ishlab chiqara oladigan shaxslarga undan foydalanish huquqini beradi. geografik ko‘rsatkichli sertifikatlash belgisidan farqli o‘laroq, geografik ko‘rsatkichli jamoaviy belgining asosiy maqsadi ma’lum bir korxonaga tegishli mahsulotlarni boshqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlardan farqlab olish imkoniyatini yaratishdir. Yanada aniqroq tushuntiradigan bo‘lsak, geografik ko‘rsatkichli sertifikatlash belgisi aynan mahsulot ishlab chiqaruvchi tomonidan emas balki, mahalliy hokimiyat yoki xususiy shaxslar tomonidan olinadi va ishlab

⁴² Trademark Act of Korea. Article 83. <https://www.kipo.go.kr/>

chiqaruvchilarning mazkur mahsulotni aynan sertifikatlangan sifatda va xususiyatda ishlab chiqarilayotganlik holatini nazorat qilib turadi. Bundan kelib chiqadiki, agar geografik ko'rsatkichli sertifikatlash belgisini ro'yxatdan o'tkazmoqchi bo'lgan talabgor aynan shu mahsulotni ishlab chiqarsa va/yoki qayta ishlasa, uning talabnomasi o'z-o'zidan rad etiladi. Sababi esa juda oddiy, o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotning sifatini tekshirishda shaffoflikka bu to'sqinlik qiladi.

Bizning milliy qonunchiligimizda geografik ko'rsatkichlarning sifat nazoratini amalga oshirishda Adliya vazirligi asosiy rol o'ynaydi. "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi qonunning 29-moddasida geografik ko'rsatkichlarning belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash haqida qoidalar belgilangan:

"Guvohnomalarning egalari tovarlarning reyestrda ko'rsatilgan xususiyatlarga muvofiqligini ta'minlashi shart.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va (yoki) tegishli vazirlik, idora yoki boshqa tashkilot qaysi tovarlarga nisbatan geografik ko'rsatkich ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, o'sha tovarlarning xususiyatlari saqlab qolinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, shu jumladan mazkur geografik obyekt uchun xos bo'lgan sharoitlar yo'qolganligi to'g'risida hamda geografik ko'rsatkich o'ziga nisbatan ro'yxatdan o'tkazilgan, reyestrda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish mumkin emasligi haqida xulosa beradi.

Birlashmalar geografik ko'rsatkich bilan tamg'alangan va ushbu birlashmaga kiruvchi shaxslar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarning xususiyatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga haqli. Davlat bunday birlashmalarni qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llab-quvvatlashi mumkin."⁴³

Ushbu moddaning nomida qayd etilgan belgilangan talablar qayerda belgilangan? Geografik ko'rsatkichni davlat ro'yxatidan o'tkazayotgan vaqtda talabnoma beruvchi talabnomada quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi: tovarning geografik jihatdan kelib chiqishiga, mazkur geografik obyekt uchun xos bo'lgan tabiiy sharoitlarga va (yoki) inson omillariga sezilarli darajada bog'liq bo'lgan tovar xususiyatlarining tavsifi, shu jumladan tovarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan boshlang'ich materialning tavsifi, tovarning fizik, kimyoviy, mikrobiologik, organoleptik yoki badiiy xususiyatlari va tovarning xususiyatlari u ishlab chiqarilayotgan joyga bog'liq ekanligiga taalluqli ma'lumotlar.

Aynan ushbu ma'lumotlar geografik ko'rsatkich davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng, Qonunning 29-moddasidagi "belgilangan talablar" deb hisoblanadi.

Demak, dastlabki sifat kafolati qonun chiqaruvchi tomonidan tovarni ishlab chiqaruvchisiga yuklatilgan. Shu bilan birga qonun chiqaruvchi agar geografik

⁴³ <https://lex.uz/docs/-5889882>

ko'rsatkich birlashma tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa yoki birlashma geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini qo'lga kiritisa, ushbu birlashma tarkibiga kiruvchi shaxslar bir-birlarining ishlab chiqaradigan tovarlarining belgilangan talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga vakolat bergan. Hattoki bunday harakatlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mumkinligi ham ta'kidlangan. Bu normalar 2022-yil qonun qabul qilinishi bilan birga kuchga kirgan bo'lsa, 29-moddaning 2-qismi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvarda ushbu qonunga qo'shimcha kiritish orqali qo'shilgan. Unda nafaqat Adliya vazirligi balki, boshqa tegishli vazirlik va tashkilotlar ham geografik ko'rsatkichning belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirishi mumkin. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, tekshiruvlarning maxsus soha vakillari tomonidan amalga oshirilishi ta'minlashdir.

Bundan tashqari mamlakatimizda Geografik ko'rsatkich bilan tamg'alangan tovarlarni sertifikatlashtirish masalasi ham mavjud bo'lib, bu to'g'risida Qonuning 29-moddasi 4-qismida norma kiritilgan bo'lsa-da, batafsil tartib haligacha ishlab chiqilmagan. Buni esa geografik ko'rsatkichlar bilan bog'liq masalalarning nisbatan sekinroq rivojlanayotgani bilan izohlash mumkin. Ammo shunga qaramasdan 2022-yilda qabul qilingan "Geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti"ga 2024-yilda qo'shimcha kiritilib, sertifikatlashtirishga mas'ul idoralarning belgilab qo'yilishi ushbu sohada ish olib borilayotganligidan dalolat beradi: "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'z vakolatlari doirasida ro'yxatdan o'tkaziladigan geografik ko'rsatkich bilan belgilanishi mo'ljallangan qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va alkogol mahsulotlari hamda mineral suvlarning xususiyatlarini aniqlashda manfaatdor tadbirkorlik subyektlariga vakolatli inspeksiya organlari va laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yishda, shu jumladan faoliyat yuritib kelayotgan akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) negizida doimiy amaliy yordam ko'rsatadi"⁴⁴.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, geografik ko'rsatkichlar mahsulotning sifati, xususiyati va obro'sini hududiy kelib chiqishi bilan bog'lab himoya qiladigan muhim intellektual mulk obyektidir. Ushbu maqolada ko'rsatilganidek, geografik ko'rsatkichlar mahsulotlarining xususiyatlari tabiiy va inson omillari orqali

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 13.07.2022 yildagi VMQ-385-son. <https://lex.uz/docs/-6110887>

shakllanadi: tabiiy omil mahsulotning iqlim, tuproq va boshqa ekologik sharoitlari bilan belgilanadi (masalan, Roquefort pishlog‘i), inson omili esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning an’anaviy bilimlari, mahorati va ishlab chiqarish usullari orqali ifodalanadi (masalan, Chust pichog‘i).

Sifat kafolatini ta’minlash mexanizmlari qonuniy va tizimli nazoratga asoslangan: ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki nazorat, davlat organlari tomonidan doimiy monitoring va sertifikatlashtirish orqali GI mahsulotlarining hududiy kelib chiqishi va xususiyatlariga mosligi tekshiriladi. Bu tizim nafaqat iste’molchilarga sifatli va noyob mahsulotlarni kafolatlash imkonini beradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning huquqlari va hududiy merosni himoya qilishga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, mustahkam huquqiy asos va samarali sifat nazorati mexanizmlari geografik ko‘rsatkichlar bilan muhofazaga olingan mahsulotlarning haqiqiylikini, obro‘cini va noyob xususiyatlarini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. WIPO Standing Committee on the Law of Trademarks, Industrial Designs and Geographical Indications (SCT), “Geographical Indications”, Document SCT/10/4, 25 March 2003, para.10.
2. Dwigen Rangnekar, “Demanding Stronger Protection for Geographical Indications—The Relationship between Local Knowledge Information and Reputation” (2004) United Nations University, Discussion Paper Series No.2004/11, p.11.
3. Keith E. Maskus, “Observations on the Development Potential of Geographical Indications”, p.1, available at: <http://www.ycsg.yale.edu/documents/papers/Maskus.doc.2014>.
4. Ingyu Kim. 2024. A Study on Geographical Indications in Korea. <https://s-space.snu.ac.kr/>
5. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi qonuni, 03.03.2022 yildagi O‘RQ-757-son <https://lex.uz/docs/-5889882>
6. Trademark Act of Korea. Article 83. <https://www.kipo.go.kr/>
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik ko‘rsatkichlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 13.07.2022 yildagi VMQ-385-son. <https://lex.uz/docs/-6110887>
8. www.im.adliya.uz sayti

INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND THEIR IMPACT ON ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Yusup Khaytbayevich Kushakov

Tashkent State Transport University,

Associate Professor

e-mail: yusufkushakov1962@gmail.com

ABSTRACT

This article explores the role and effectiveness of innovative technologies in English language teaching within the context of globalization. It analyzes modern digital tools, technology-enhanced learning environments, and their influence on learners' linguistic competence, motivation, and communicative skills. The study highlights the methodological shift from traditional classroom instruction to technology-driven approaches, emphasizing the need for teachers to adopt new pedagogical models. Recommendations are provided to ensure meaningful integration of technology into English language education.

Keywords: *innovative technologies, English language teaching, globalization, digital tools, ICT, blended learning, online education.*

INTRODUCTION

The era of globalization is characterized by intensive international cooperation, rapid technological advancement, and the growing necessity for multilingual communication. English, as the dominant global lingua franca, has become essential for active participation in economic, academic, and cultural spheres. Consequently, the methodologies and technologies used in English language teaching (ELT) continue to evolve to meet the demands of the globalized world. Innovative technologies have transformed language classrooms by introducing interactive, personalized, and learner-centered environments, making the learning process more efficient and engaging. In contemporary pedagogy, the central focus of the educational process is the learner, his or her individuality, and unique inner world. Accordingly, the primary objective of a modern teacher is to select instructional methods and forms of organizing learning activities that most effectively contribute to the personal development of each student. In recent years, growing attention has been directed toward the integration of new information technologies into school education. These technologies encompass not only updated technical tools but also

innovative teaching forms, methods, and approaches that fundamentally alter the nature of the educational process.

One of the major goals of foreign language instruction is the formation and development of students' communicative competence, enabling them to use a foreign language practically and meaningfully. Therefore, the teacher's responsibility is to create conditions that facilitate active language acquisition for every learner, selecting methods that encourage individual participation, creativity, and engagement. The cognitive activity of students must be consistently stimulated throughout the learning process. Modern pedagogical technologies—including cooperative learning, project-based methodologies, information and communication technologies, and the use of Internet resources—support a learner-centered approach by fostering individualization and differentiation based on students' abilities and levels of preparedness.

Computer-assisted instruction in foreign language education includes a variety of applications: vocabulary acquisition, pronunciation practice, teaching dialogic and monologic speech, writing skills development, and reinforcement of grammatical structures.

The pedagogical potential of Internet resources is extensive. The global network provides unrestricted access to diverse information for both students and teachers, including regional geographical materials, youth-oriented news, and authentic articles from newspapers and magazines. In English language lessons, the Internet enables the resolution of several didactic tasks such as:

- developing reading comprehension using global online materials;
- improving writing skills through authentic communication;
- expanding students' vocabulary;
- enhancing motivation for learning English.

Internet-based instruction also expands learners' cultural horizons and promotes communication with peers from English-speaking countries. Students can participate in tests, online quizzes, competitions, Olympiads, email exchanges, chats, and video conferences, thereby strengthening their communicative competence in authentic contexts.

The widespread use of computers in education is underpinned by their effectiveness in optimizing mental activity and the learning process as a whole. Importantly, the computer offers a supportive, non-judgmental learning environment: it can encourage the learner, provide feedback, and maintain engagement without displaying irritation or fatigue. This characteristic makes computer-based instruction particularly valuable for individualized learning.

The central objective of foreign language education remains the formation of communicative competence, with all other educational functions—training, development, and upbringing—achieved through this primary goal. The communicative approach emphasizes teaching learners to interact meaningfully and to develop intercultural communicative skills, which align closely with Internet-based activities. Indeed, the Internet itself exists as a global intercultural communicative space where millions of individuals engage in synchronous interaction—a phenomenon sometimes described as the largest conversation in human history. Incorporating such communication into the language classroom creates a genuinely authentic communicative environment.

Modern foreign-language teaching prioritizes communication, interactivity, authenticity, cultural contextualization, learner autonomy, and humanistic values. These principles contribute to the development of intercultural competence as an essential component of communicative competence. To foster communication in a foreign language, instruction must simulate real-life situations that motivate learners to engage meaningfully with the material. New technologies, particularly Internet resources, address this need by enabling the creation of authentic communicative tasks.

Within the communicative approach, learners are encouraged to discuss topics, evaluate information, and independently select linguistic means to express their opinions. The use of Internet resources enhances learner interest and supports the accumulation of linguistic and cultural knowledge.

Interactivity and Communicative Learning. One of the key requirements of using Internet resources in foreign language teaching is the creation of interactive learning environments. In methodological terms, interactivity refers to the integration, complementarity, and coordination of learners' efforts in achieving a communicative objective. Through interactive Internet-based activities, learners practice authentic language use, develop vocabulary and grammar skills, and cultivate genuine interest in communication.

Project-Based Learning as a Technology of Student-Centered Instruction

Project-based learning represents a pedagogical technology aimed at fostering creativity, cognitive activity, independence, and collaborative problem-solving. Projects may take several forms—mono-projects, group projects, oral or written work, concrete or Internet-based projects. In practice, blended forms often emerge, combining research, creative tasks, practice-oriented goals, and informational inquiry.

Project-based learning integrates all language skills—reading, listening, speaking, and grammar—and encourages students to conduct independent inquiry. It also develops cooperation, mutual assistance, empathy, and other moral values. During project work, the inseparability of instruction and upbringing becomes particularly visible.

The project method strengthens students' communicative competence, communication culture, and ability to articulate ideas concisely and clearly. It also promotes tolerance of others' viewpoints and the ability to search for, process, and analyze information using modern computer technologies.

Cooperative learning represents another form of modern pedagogical technology aligned with learner-centered education. Its essence lies in organizing students into small groups of three to four learners, each assigned a specific role in completing a shared task. Learners bear responsibility not only for their own work but also for the overall performance of the group. In this model, weaker students are supported by stronger peers, while stronger students reinforce their knowledge by assisting others. Such collaboration benefits the entire class, helping to eliminate learning gaps collectively.

CONCLUSIONS

In conclusion, the integration of information technologies into the educational process substantially enriches and diversifies the ways in which learners perceive, process, and internalize information. The use of computers, the Internet, and multimedia tools offers students unprecedented opportunities to access large volumes of information and subsequently analyze, categorize, and interpret it. Furthermore, the motivational component of learning is significantly enhanced, as multimedia environments enable students to receive authentic information from newspapers, television broadcasts, interviews, and virtual conferences, thereby increasing their engagement and interest.

Within the framework of language portfolio technology, standardized tests serve as the primary criteria for assessing foreign-language proficiency. A key advantage of this technology is its reorientation of the learning process from teacher-centered instruction to a student-centered model. In this context, learners assume conscious responsibility for the outcomes of their cognitive activity, which fosters autonomy and accountability. Consequently, the use of portfolio-based assessment promotes the gradual development of students' ability to independently acquire, process, and evaluate information.

Overall, the language portfolio demonstrates high multifunctionality and contributes meaningfully to the development of multilingual competence. By

supporting reflective learning, self-assessment, and continuous progress monitoring, this technology aligns with modern educational priorities and facilitates the formation of independent, motivated, and linguistically versatile learners.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of language learning and teaching* (5th ed.). Pearson Education.
2. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment*. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2015). *The practice of English language teaching* (5th ed.). Pearson Education.
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and principles in language teaching* (3rd ed.). Oxford University Press.
5. Nunan, D. (2003). *Practical English language teaching*. McGraw-Hill.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
7. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
8. Scrivener, J. (2011). *Learning teaching: The essential guide to English language teaching* (3rd ed.). Macmillan Education.
9. Soars, J., & Soars, L. (2015). *New Headway* (5th ed.). Oxford University Press.
10. Ter-Minasova, S. G. (2000). *Language and intercultural communication*. Moscow State University Press.
11. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.
12. Benson, P. (2011). *Teaching and researching autonomy* (2nd ed.). Routledge.
13. Godwin-Jones, R. (2018). Emerging technologies: Using mobile technology to develop language skills and cultural understanding. *Language Learning & Technology*, 22(3), 2–11.
14. Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). *How to teach English with technology*. Pearson Education.
15. Thomas, M., Reinders, H., & Warschauer, M. (Eds.). (2013). *Contemporary computer-assisted language learning*. Bloomsbury.

1960-YILLARDA TURKIYADA DEHQONLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI

Ismoilov Javlon Ruziyevich

RTU, Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Turkiyada hokimiyat tepasiga kelgan Demokratik partiya davrida mamlakatdagi ijtimoiy holat, qishloqlardagi ijtimoiy -iqtisodiy hayot, turk dehqonlarning faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar haqida fikr mulohazalar yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Demokratik partiya, Boyar, Menderes, Turk dehqonlari.

АННОТАЦИЯ

В статье речь идет о социальной ситуации после прихода к власти Демократической партии, рассматривается социально-экономическая ситуация в деревнях

Ключевые слова: Демократическая партия, Бояр, Мендерес, Турецкие крестьяне.

ABSTRACT

This article highlights the social situation in the country during the rise of the Democratic Party to power in Turkey, the socio-economic life in rural areas, and the negative factors influencing the activities of Turkish farmers.

Keywords: Democratic Party, Boyars, Menderes, Turkish peasants.

KIRISH

Turkiyada Menderes hokimiyati ag'darilgandan so'ng xalqqa qarshi hukumatning boshqa rahbarlari bir necha bor partiyaning qishloqda go'yoki "kuchli pozitsiyasi" bilan maqtanishgan. Ammo davlat to'ntarishi sodir bo'lgach, dehqonlar o'z rahbarlarini qo'llab-quvvatlash uchun barmog'ini ham ko'tarmadi. "Men Istanbuldan Anqaraga mashina haydadim, Anadoluning hamma qishloqlarida men dehqonlarning quvonchli yuzlarini ko'rdim", deb yozadi Belgiyaning Le Matin gazetasi muxbiri davlat to'ntarishidan bir necha kun o'tib. Anqarada, Milliy birlik qo'mitasiga butun mamlakatdan, hatto Sharqiy Anadoluning chekka qishloqlaridan ham tabrik telegrammalari, maktublar keldi.

Nega dehqonlar Bayar, Menderes rejimining ag'darilishini shu qadar xursandchilik bilan qarshi olganlarini sababi, o'n yil davomida Menderesning vazirlari: "Biz qishloqqa farovon, baxtli hayot olib keldik", "Endi dehqonlar go'sht,

yog', sut, tuxum yemaydilar", deb qayta-qayta ta'kidladilar. Ammo bu faqat so'zda edi. Demokratik partiya hukmronligi yillarida yer egalari va quloqlar qo'lida yerlarning to'planishi sezilarli darajada kuchaydi, mayda va o'rta ishlab chiqaruvchilar yersiz qoldi. Turkiya statistik ma'lumotlariga ko'ra, qishloq aholisining qariyb 85 foizi yersiz dehqonlardir. Ular yo o'z vatanlarini tashlab, shaharga ishlashga ketishga yoki yirik yer egalardan ijaraga yer olishga majbur bo'lishadi.

Qishloq xo'jaligi banki yersiz dehqonlarga garov sifatida xizmat qiladigan ko'chmas mulki yo'qligini bahona qilib, ularga kredit bermayapti. Har qanday tirikchilik vositasidan mahrum bo'lgan dehqonlar mahalliy puldorlardan qarz olishga majbur bo'ladi. Dehqonlarning qarzlari yil sayin ortib bormoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Anadoludagi ko'plab qishloqlarni ko'zdan kechirgan Anqara universiteti dotsenti Harmandali o'g'li shunday yozadi: "Men dehqonlarga qarzlaringizdan qutulish mumkinmi?" degan savolni berdim. Bunga ular menga shunday javob berishdi: "Hurmatli janob, buni qanday qila olamiz?"

Bir bo'lak qo'shimcha yer, yaylov, chorva mollari bo'lmagandan keyin, daromadni qanday oshiramiz. Agar oilaning boshiga biron bir baxtsiz hodisa yuz bersa, deb davom etdi dehqonlar, qarzni to'lash uchun yo mol-mulkimizni sotib, olis qishloqlardan biriga fermer bo'lib ishlaymiz yoki oilamizni taqdir taqozosiga tashlab ketamiz". Yersiz dehqonlarning ahvoli qanday ekanini tasavvur qilish qiyin emas.

Qarzni to'lash uchun Qishloq xo'jaligi bankidan vaqtinchalik kredit olishga muvaffaq bo'lganlar hosilning katta qismini bozorga sotishga majbur. Turkiya Respublika Xalq partiyasining maxsus komissiyasi hisob-kitoblariga ko'ra, bor-yo'g'i yetti yil ichida, ya'ni 1950 -yildan 1957 -yilgacha bir dehqonning o'rtacha bank qarzi besh baravarga oshib, 20 dan 105 liraga yetgan. Turk matbuotining qayd etishicha, ko'plab dehqonlar qarzni hisobga olmaganda, foizlarni to'lashga qodir emas. Ayni paytda qishloq xo'jaligi banki agentlari qarzdor dehqonlarga nisbatan sud ishlarini qo'zg'atmoqda

Turk dehqoni avvalgidek yerni ibtidoiy mehnat qurollari bilan dehqonchilik qiladi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, dehqon fermerlarining qariyb 66 foizi temir pulluklardan ko'ra yog'och pluglarga ega. Urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mashinalari faqat yirik yer egalarning xo'jaliklarida paydo bo'ldi, ammo ular turk dehqoniga faqat yangi muammolar keltirdi. Kapitalizmning rivojlanishi natijasida mayda fermer xo'jaliklarining vayron bo'lishi boshlandi. Avtoturargohning kengaytirilishi ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirdi va

qishloqda ishsizlikning oshishiga olib keldi. “Bu mashinalar, - dedi Markaziy Anadoludan kelgan bir dehqon, Turkiyaning “Forum” jurnali muxbiri bilan suhbatda, bizning fermer xo‘jaliklarimizni vayron qildi va yaylovlarimizni haydab yubordi. Ko‘chmanchi chorvadorlar chorvasiz, yer savdogarlari esa yersiz qoldi.

Yuz minglab dehqonlar pul topish uchun shaharlarga boradi. Qishloqlar bo‘shab bormoqda. Masalan, Yuchek qishlog‘ida (Ankara gubernatorligi) 1938- yilda 80 ta uy bo‘lsa, 1958- yilga kelib, dehqonlar son-sanoqsiz qiyinchiliklarga duch kelishdi. Istanbul, Anqara va Izmir chekkalarida bir kechada bir-biriga urilgan kulbalardan butun xaroba hududlari paydo bo‘ldi.

Turk dehqonlari dahshatli sharoitda yashaydi. Aksariyat qishloqlarda maktablar, feldsherlik punktlari, pochta agentliklari kabi zarur muassasalar mavjud emas.

Dehqon oilalarining aksariyati go‘sh, sut, sariyog‘ iste‘mol qilish imkoniyatidan mahrum. "Boy" ning taomlari loviya, kartoshka, qaynatilgan bug‘doy va pishloqdan iborat. Kambag‘allar non, piyoz va suv bilan kifoyalanishlari kerak. Faqat bahor va yozda ularga turli xil o‘tlar qo‘shiladi. "Oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan o‘tlar orasida, - deb yozadi Forum jurnali, - shundaylari borki, ular mutlaqo to‘yimli emas, ular faqat oshqozonni shishiradi va ko‘pincha ular shunchaki tanani zaharlaydi. Qishloqlarda kasallik keng tarqalgani ajablanarli emas. Faqat sil kasalligidan har yili 40 mingdan ortiq odam vafot etadi”.

Narxlarning ko‘tarilishi turk dehqonining ahvoriga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. 1948 - yildan 1958 -yilgacha bo‘lgan o‘n yil ichida sigirlar, buyvollar va otlar soni 5-6 baravar ko‘paydi. Agar 1948 -yilda bir juft ot 300-400 lira turadi, keyin 1958- yilda dehqon allaqachon ular uchun 2000-2300 lira to‘lashi kerak edi. Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi asboblari ham, transport vositalari ham qimmatlashdi. 1948-yilda omoch (ikki torli) 80-90 lira, 1958-yilda 200-250 lira; arba 1948 yilda - 210-220 lira, 1958 yilda - 1000-1200 lira va boshqalar.

Dehqonlarni talon-taroj qilish va xarob qilish vositalaridan biri bu shahar va qishloq o‘rtasidagi tengsiz almashinuvdir. 1948—1958-yillarda dehqonlar tomonidan sotib olingan buyumlar narxi kamida 400-500 foizga oshgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari esa shu davrda atigi 85 foizga oshgan.

Turkiyaning NATO va CENTOning agressiv bloklarida ishtirok etishi munosabati bilan harbiy mablag‘larning o‘shishi chidab bo‘lmas to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlarni yanada oshirdi, bu nafaqat kichik dehqonlarni, balki Turkiyaning o‘rta dehqon xo‘jaliklarini ham halokatga olib keldi va o‘limga olib keldi.

Demokratik partiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan agrar islohot faqat muxolifatni yanada kuchaytirdi .Dehqonlar va yer egalari o‘rtasidagi nizolar keskinlashdi. Menderes hukumati o‘n yil ichida 1686 ming gektar ekin maydonlarini

bo'lib-bo'lib sordi, ammo yersiz dehqonlar soni deyarli kamaymadi. Islohotning asosiy natijasi ag'darilgan tuzumning asosiy tayanchi bo'lgan quloq qatlamining sezilarli darajada mustahkamlanishi edi.

XULOSA

Shunday qilib, Menderes hukumati dehqonlar hayotini osonlashtirish uchun hech narsa qilmadilar. To'g'ri, ba'zida hukmdorlar dehqonlar haqida qayg'urayotgandek bo'lishardi. Masalan, 1957- yilgi Majlisga saylovlar arafasida qishloqda o'z mavqeini mustahkamlashga qaror qilgan Demokratik partiya fermerlarning qishloq xo'jaligidan olingan kreditlar bo'yicha qarzlarni besh yil davomida bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risidagi qonun loyihasini Majlisdan o'tkazdi. Bunday manevrlar bilan Menderes hokimiyatda qolish muddatini uzaytirdi, lekin uning qulashiga to'sqinlik qila olmadi.

Turk dehqonlari yangi tuzum mamlakatdagi vaziyatni yaxshilash uchun samarali choralar ko'radi, degan umidda Milliy birlik qo'mitasi va Gursel muvaqqat hukumatini qo'llab-quvvatladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. История стран Востока. XX век . М.:ИВ РАН, 1999.
2. Кошелев, В.С. Феномен исламизма в современном мире / В. С. Кошелев, Н. В. Кошелева // Общество, государство и религии в современном мире: мат. круглого стола кафедры истории нового и новейшего времени БГУ, Минск, 2019.
3. Острога, В. А. История Турции в белорусской историографии / В. А. Острога // Беларусь-Турция: пути сотрудничества: материалы второй междунар. науч.-практ. конф., Минск, 25 февр. 2011 г.
4. Аватков А, Сбитнева А. Турция в современном мире: между демократией и авторитаризмом // <https://cyberleninka.ru/article/n/turtsiya-v-sovremennom-mire-mezhdu-demokratiey-i-avtoritarizmom>

SUN'Y INTELLEKT VOSITALARI ORQALI INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: METODIK YONDASHUV

Ulmasbayeva Malika Alisherovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası dotsenti v.b., PhD

malika.zhd@gmail.com

Orcid iD: <https://orcid.org/0000-0001-7207-5026>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Mustaqil o'rganish kompetensiyasi talabaning o'z-o'zini rivojlantirish, til ko'nikmalarini mustaqil tarzda egallash va raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Maqolada SI vositalari — chat botlar, til ilovalari, avtomatik tahlil platformalari — yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, motivatsiyani oshirish va metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish metodikasi taklif etiladi. Shuningdek, eksperimental kuzatuvlar asosida metodikaning samaradorligi baholanadi va mahalliy ta'lim kontekstida qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt texnologiyalari, ingliz tilini mustaqil o'rganish, o'quvchi avtonomiyasi, raqamli pedagogika, til o'rganish strategiyalari, metakognitiv kompetensiya, AI asosidagi ta'lim vositalari.*

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari til o'rganish jarayonini individuallashtirish, interaktivlashtirish va reflektivlashtirish imkonini bermoqda. Ingliz tilini o'rganishda talabalar mustaqil ravishda til ko'nikmalarini egallashi, o'z-o'zini baholashi va o'quv strategiyalarini shakllantirishi zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Mustaqil o'rganish kompetensiyasi — bu talabaning o'z bilimini mustaqil izlash, tanlash, qo'llash va baholash qobiliyatidir. Bu kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt vositalari — chat botlar, til ilovalari, avtomatik tahlil platformalari — samarali metodik vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Ular talabaning til o'rganish

jarayonini shaxsiylashtiradi, motivatsiyani oshiradi va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilini mustaqil o'rganish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy asoslar, amaliy yondashuvlar, metodik model va eksperimental natijalar keltiriladi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari kontekstida metodikaning qo'llanish imkoniyatlari va tavsiyalari muhokama qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'limda *mustaqil o'rganish kompetensiyasi* talabaning kerakli bilimlarni mustaqil tarzda topish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetensiya zamonaviy ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u talaba avtonomiyasini, o'z-o'zini rivojlantirishni va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi (Bahronova, 2025). Ingliz tilini o'rganishda mustaqil kompetensiyaga ega bo'lgan talaba til ko'nikmalarini faqat dars jarayonida emas, balki darsdan tashqari sharoitda ham rivojlantira oladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari bu jarayonda yangi imkoniyatlar yaratadi. Chat botlar, til ilovalari (masalan, Duolingo, Grammarly, Elsa Speak), avtomatik yozma tahlil vositalari va ovozli yordamchilar talabaning til o'rganish jarayonini individuallashtiradi. Bu vositalar orqali talaba o'z darajasiga mos mashqlarni bajaradi, real vaqti fikr-mulohaza oladi va o'z o'quv maqsadlariga mos axborotni izlab, undan samarali foydalanadi (Toshboltayev & Yoqubjonova, 2025).

Metakognitiv kompetensiya — ya'ni o'z o'rganish jarayonini anglash va boshqarish — sun'iy intellekt yordamida yanada samarali rivojlanadi. Talaba o'z xatolarini ko'radi, ularni tahlil qiladi va takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu esa mustaqil o'rganish kompetensiyasining asosiy komponentlaridan biridir (Bahronova, 2025).

Pedagogik nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalari konstruktivistik yondashuvga mos keladi. Talaba o'z bilimini faol ravishda quradi, tajriba asosida o'zlashtiradi va refleksiya orqali mustahkamlaydi. Bu yondashuv mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi (Toshboltayev & Yoqubjonova, 2025).

Ingliz tilini mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish metodikasi quyidagi bosqichlarga asoslanadi: *diagnostika, individuallashtirish, interaktiv mashqlar, refleksiya va baholash*. Har bir bosqich talabaning o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, motivatsiyasini oshirish va metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Diagnostika bosqichi

Bu bosqichda talabanning til darajasi, o'rganish uslubi va ehtiyojlari aniqlanadi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar (masalan, Grammarly, ChatGPT, Duolingo) foydalanuvchining til ko'nikmalarini tahlil qilib, zaif va kuchli tomonlarini aniqlash imkonini beradi (Bahronova, 2025). Zhao (2025) ta'kidlaydi, AI vositalari o'quvchilarning til o'rganishdagi qiyinchiliklarini aniqlashda an'anaviy testlarga qaraganda tezroq va aniqroq natijalar beradi.

2. Individuallashtirish bosqichi

Talabanning diagnostika natijalariga asoslanib, sun'iy intellekt vositalari orqali individual o'quv rejasi tuziladi. Masalan, ChatGPT yordamida talabaga grammatik tahlil, yozma topshiriqlar yoki og'zaki muloqot mashqlari taklif etilishi mumkin. British Council (2024) hisobotida qayd etilishicha, AI vositalari til o'rganuvchilarga moslashtirilgan kontentni taqdim etish orqali o'quvchi avtonomiyasini kuchaytiradi va o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini shakllantiradi.

3. Interaktiv mashqlar bosqichi

Sun'iy intellekt vositalari talabalarga real vaqtli mashqlarni bajarish imkonini beradi. Duolingo, Elsa Speak va boshqa ilovalar orqali talaba eshitish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantiradi. Chat botlar bilan muloqot qilish esa tilni kontekstda qo'llashni o'rgatadi. Zhao (2025) tadqiqotida AI vositalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, o'rganish jarayonini qiziqarli va moslashtirilgan qilishini isbotlagan.

4. Refleksiya va baholash bosqichi

Talaba o'z o'quv faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini ko'radi va ularni tuzatish strategiyalarini ishlab chiqadi. Sun'iy intellekt vositalari avtomatik fikr-mulohaza (feedback) taqdim etadi, bu esa metakognitiv kompetensiyani rivojlantiradi. Grammarly kabi vositalar yozma nutqdagi xatolarni aniqlab, ularni tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi. Edmett va boshqalar (2024) fikricha, AI asosidagi baholash tizimlari o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Metodik modelning afzalliklari:

- Talabanning ehtiyojlariga moslashgan o'quv jarayoni
- Til o'rganishda yuqori motivatsiya va qiziqish
- Raqamli savodxonlik va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarining shakllanishi
- O'qituvchi uchun monitoring va tahlil imkoniyatlarining kengayishi

Ushbu metodik model O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lib, talabalar orasida ingliz tilini mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Bosqich	Tavsifi	Sun'iy intellekt vositalari	Kompetensiyaga ta'siri
Diagnostika	Talabanning til darajasi va ehtiyojlarini aniqlash	Grammarly, Duolingo, ChatGPT	O'rganish yo'nalishini belgilash, zaif tomonlarni aniqlash
Individuallashtirish	Talabaga mos o'quv rejasi tuzish	ChatGPT, British Council AI tools	O'quvchi avtonomiyasi, o'z-o'zini boshqarish
Interaktiv mashqlar	Til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun real vaqtli mashqlar	Duolingo, Elsa Speak, chat botlar	Motivatsiya, kontekstda til qo'llash
Refleksiya va baholash	Xatolarni tahlil qilish, fikr-mulohaza olish va o'z-o'zini baholash	Grammarly, AI feedback systems	Metakognitiv kompetensiya, o'z-o'zini rivojlantirish

Amaliy tajriba va natijalar

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini mustaqil o'rganish kompetensiyasiga ta'sirini baholash maqsadida 2025-yil bahor semestrda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 1-bosqich talabalari orasida amaliy tajriba o'tkazildi. Tadqiqotda jami 48 nafar talaba ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo'lindi: nazorat guruhi (24 nafar) va tajriba guruhi (24 nafar). Tajriba guruhiga sun'iy intellekt vositalari asosida tuzilgan metodik model asosida mashg'ulotlar tashkil etildi.

1. Tajriba sharoiti

Tajriba guruhi talabalari 8 hafta davomida quyidagi AI vositalar bilan ishlashdi:

- **ChatGPT:** yozma topshiriqlarni tahlil qilish, savol-javob mashqlari
- **Duolingo:** kunlik interaktiv mashqlar, eshitish va o'qish ko'nikmalari
- **Grammarly:** yozma nutqdagi xatolarni aniqlash va tuzatish
- **Elsa Speak:** talaffuzni rivojlantirish

Mashg'ulotlar mustaqil o'rganish formatida olib borildi, o'qituvchi esa faqat monitoring va maslahat berish rolini bajardi.

2. Baholash mezonlari

Tajribadan oldin va keyin talabalar quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- Til darajasi (CEFR asosida)
- Mustaqil o'rganish kompetensiyasi (anketa va refleksiya asosida)
- Motivatsiya darajasi (Likert shkalasi asosida)
- O'z-o'zini baholash ko'nikmalari

3. Natijalar

Tajriba guruhi talabalari quyidagi o'zgarishlarni namoyon etdi:

Ko'rsatkich	Boshlang'ich daraja	8 hafta so'ng	O'sish foizi
Til darajasi (CEFR)	A2	B1	+35%
Mustaqil o'rganish kompetensiyasi	Past	O'rtacha/ Yuqori	+42%
Motivatsiya darajasi	3.1/5	4.4/5	+41%
O'z-o'zini baholash ko'nikmalari	Cheklangan	Faol	+47%

Nazorat guruhida esa o'zgarishlar sezilarli darajada past bo'ldi (o'rtacha o'sish 12–15%).

4. Talabalar fikrlari

Refleksiya natijalariga ko'ra, talabalar quyidagi afzalliklarni qayd etdilar:

- Mashqlarni o'z vaqtida va o'z darajasiga mos bajarish imkoniyati
- Real vaqtli fikr-mulohaza olish
- O'z xatolarini ko'rish va tuzatish orqali o'z-o'zini rivojlantirish
- Til o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi

Zhao (2025) va Edmett et al. (2024) tadqiqotlari ham AI vositalarining til o'rganishdagi motivatsiya va avtonomiyaga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Muammolar va yechimlar

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantirishdagi salohiyati yuqori bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanishida bir qator muammolar mavjud. Ushbu bo'limda texnik, metodik, psixologik va institutsional to'siqlar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

1. Texnik muammolar

Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida internet tezligi, qurilmalar sifati va raqamli infratuzilma yetarli emas. Bu esa AI vositalaridan to'liq foydalanishni cheklaydi.

Yechim: Ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, mobil ilovalarga mos metodikalar ishlab chiqish va oflayn AI vositalarini joriy etish zarur (Zhao, 2025).

2. Metodik muammolar

O'qituvchilarning ko'pchiligi sun'iy intellekt vositalarini metodik jihatdan qo'llashga tayyor emas. An'anaviy yondashuvlar AI asosidagi o'quv jarayon bilan mos kelmaydi.

Yechim: O'qituvchilar uchun maxsus treninglar, metodik qo'llanmalar va tajriba almashish platformalarini yaratish lozim. British Council (2024) tavsiyalariga ko'ra, o'qituvchilarni AI pedagogikasi bo'yicha bosqichma-bosqich tayyorlash samarali natija beradi.

3. Psixologik to‘siqlar

Ba’zi talabalar AI vositalariga ishonmaydi yoki ularni faqat texnik yordamchi deb biladi. Bu esa o‘rganish motivatsiyasini pasaytiradi.

Yechim: Talabalarga AI vositalarining imkoniyatlarini ko‘rsatish, refleksiya asosida o‘z o‘shini kuzatish imkonini berish va ularni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish zarur. Edmett et al. (2024) fikricha, talabaning o‘z o‘rganish jarayonini boshqarishdagi roli kuchaytirilsa, AI vositalariga bo‘lgan ishonch ortadi.

4. Axloqiy va xavfsizlik muammolari

AI vositalarida ma’lumotlar maxfiyligi, noto‘g‘ri javoblar yoki noto‘g‘ri baholash holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonining ishonchliligiga salbiy ta’sir qiladi.

Yechim: AI vositalarini tanlashda xavfsizlik va ishonchlilik mezonlariga e’tibor qaratish, talabalar va o‘qituvchilarga raqamli etika bo‘yicha bilim berish muhim. Shuningdek, o‘qituvchi nazorati va insoniy tahlil AI jarayonini muvozanatlashtiradi.

Ushbu muammolarni tizimli yondashuv orqali bartaraf etish sun’iy intellekt asosidagi metodikaning samaradorligini oshiradi va uni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ingliz tilini mustaqil o‘rganish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI vositalari yordamida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning til ko‘nikmalarini chuqurlashtiradi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi va raqamli savodxonlikni oshiradi.

Tajriba asosida aniqlangan quyidagi xulosalar e’tiborga loyiq:

- Talabalar AI vositalari orqali o‘z darajasiga mos mashqlarni mustaqil bajarish imkoniyatiga ega bo‘ldi.
- Mustaqil o‘rganish kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlandi.
- Motivatsiya va refleksiya ko‘nikmalari oshdi, o‘z-o‘zini baholash faoliyati kuchaydi.
- O‘qituvchi roli nazorat va yo‘naltirishga o‘tdi, bu esa o‘quvchi avtonomiyasini mustahkamladi.

Tavsiyalar

1. **AI vositalarini ta’limga integratsiya qilish** Oliy ta’lim muassasalari sun’iy intellekt asosidagi ilovalarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etishi zarur.

2. **O'qituvchilarni tayyorlash** Sun'iy intellekt pedagogikasi bo'yicha maxsus treninglar, metodik qo'llanmalar va tajriba almashish platformalari tashkil etilishi lozim.

3. **Talabalar uchun raqamli savodxonlikni oshirish** AI vositalaridan samarali foydalanish uchun talabalar raqamli etikani, xavfsizlikni va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini egallashi kerak.

4. **Mahalliy kontekstga mos metodikalar ishlab chiqish** O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitiga mos, AI vositalarini qo'llashga yo'naltirilgan metodik modellar ishlab chiqilishi va sinovdan o'tkazilishi tavsiya etiladi.

5. **Ilmiy-tadqiqotlar va monitoring tizimini yo'lga qo'yish** AI asosidagi ta'lim metodikalarining samaradorligini baholash uchun muntazam monitoring va ilmiy tahlil olib borilishi muhim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akbarova, S. K. (2022). Psycholinguistic Features Of Teaching Foreign Languages To Preschool Children. *Journal of Positive School Psychology*, 6(2).
2. Asrorov, I. (2025). The Role Of Anthropocentric Teaching In Enhancing Student And Teacher Motivation At The University Level. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences*, 5(5), 638-643.
3. Bahronova, D.Z. (2025). *Ingliz Tilini O'rganishda Sun'iy Intellektning Ahamiyati*. O'Zdju Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi.
4. British Council. (2024). *Artificial Intelligence And English Language Teaching: Preparing For The Future*.
5. Dilbar, K. (2025, May). Technology-Driven Evaluation Methods In ESL Education. In *International Conference On Modern Education And Innovative Approaches To Teaching Foreign Languages*" (Pp. 132-135).
6. Edmett, A. Et Al. (2024). *AI And ELT: Global Perspectives On Technology Integration*.
7. Hafizov, A. A. (2025). Integrating Social Media Platforms Into Language Classrooms For Economics Students: Opportunities And Challenges. *Educator Insights: Journal Of Teaching Theory And Practice*, 1(6), 65-69.
8. Ilmiy anjumanlar.Uz. (2025). *Sun'iy Intellekt Texnologiyalarining ITO' Sohasidagi O'Rni*.
9. Oxford University Press. (2023). *AI In Education: Opportunities And Challenges*.
10. Toshboltayev, F.O., & Yoqubjonova, Z.Z. (2025). *Sun'iy Intellekt Texnologiyalari Yordamida Ingliz Tilini Mustaqil O'rganish Imkoniyatlari*.

11. UNESCO. (2022). *Artificial Intelligence And The Future Of Language Learning*.
12. Ulmasbayeva, Malika Alisherovna (2025). The Role Of Cultural Context In Efl Pedagogy. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences*, 5 (4), 422-426.
13. Zhao, J. (2025). *Advancing English Language Education: A Mixed-Methods Analysis Of AI-Driven Tools*. Springer.
14. Шамсематова, Б. Р. (2020). Прагматический И Когнитивный Подходы К Описанию Дискурса. *Актуальные Проблемы Гуманитарных И Естественных Наук*, (1), 136-138.

IDROK, XOTIRA VA FIKRLASHNING NUTQ RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Shaxnoza Xikmatullayevna Akbarova

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti,
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada inson nutqini idrok etish jarayoni va uning eshitish hamda xotira mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqligi nazariy jihatdan yoritib beriladi. Nutqni anglashda mantiqiy urg‘u, so‘zlar tartibi, sintaksik tuzilish va xotirada mavjud modellar bilan taqqoslash jarayoni muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, nutqiy faoliyatning motivatsiya, rejalash, amalga oshirish va nazorat bosqichlari haqida A.A. Leontyev, I.A. Zimnyaya kabi olimlarning nazariyalari tahlil etiladi. Maktabgacha ta’lim yoshida idrokning rivojlanishi fikrlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u bolalarning tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bolalar nutqini o‘stirish jarayonida Ye.I. Tixeeva, B.V. Belyayev kabi olimlar qarashlari asosida nutq va aqliy rivojlanishning birgalikda kechishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra nutqning bosqichma-bosqich rivojlanishi – lug‘at boyligining ortishi, grammatik tuzilishlarni o‘zlashtirish, sintaksik modellarni qo‘llash jarayonlari keng yoritiladi. Maqolada bola nutqining ijtimoiy muhitda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida rivojlanishi, oila va maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishning ahamiyati ko‘rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish bolaning umumiy psixik kamoloti va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omil bo‘lib, chet tillarni o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim poydevor hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *nutq faoliyati, idrok, xotira, maktabgacha ta’lim, fikrlash, lug‘at zaxirasi, til rivojlanishi.*

THE ROLE OF PERCEPTION, MEMORY, AND THINKING IN SPEECH DEVELOPMENT

ABSTRACT

The article theoretically explains the process of perceiving human speech and its close connection with auditory and memory mechanisms. It is emphasized that in

understanding speech, logical stress, word order, syntactic structure, and the process of comparing speech with existing patterns in memory play an important role. In addition, the theories of scholars such as A.A. Leontiev and I.A. Zimnyaya regarding the stages of speech activity — motivation, planning, implementation, and control — are analyzed.

In preschool age, the development of perception is closely linked with thinking, which shapes children's abilities to analyze, compare, and generalize. Based on the views of scholars such as Ye.I. Tikheeva and B.V. Belyaev, the article scientifically substantiates the interconnected development of speech and cognitive growth in children.

The step-by-step development of speech in accordance with children's age characteristics — the expansion of vocabulary, acquisition of grammatical structures, and use of syntactic patterns — is also widely discussed. The article highlights the development of children's speech in a social environment, through communication with adults and peers, and the importance of improving speech skills in family and preschool education settings.

In conclusion, speech development in preschool age is a decisive factor in a child's overall psychological development and success in the educational process, and it also serves as an important foundation for developing the ability to learn foreign languages.

Keywords: *speech activity, perception, memory, preschool education, thinking, vocabulary, language development.*

РОЛЬ ВОСПРИЯТИЯ, ПАМЯТИ И МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ

АННОТАЦИЯ

В статье теоретически освещается процесс восприятия человеческой речи и его тесная взаимосвязь с механизмами слуха и памяти. Подчёркивается, что при понимании речи важное значение имеют логическое ударение, порядок слов, синтаксическая структура и процесс сопоставления услышанного с уже имеющимися в памяти моделями. Также анализируются теории таких учёных, как А.А. Леонтьев и И.А. Зимняя, о стадиях речевой деятельности — мотивации, планировании, реализации и контроле.

В дошкольном возрасте развитие восприятия тесно связано с мышлением, что формирует у детей способности к анализу, сравнению и обобщению. На основе взглядов Е.И. Тихеевой и Б.В. Беляева научно обосновано взаимное развитие речи и умственного развития ребёнка.

Также подробно раскрывается поэтапное развитие речи в соответствии с возрастными особенностями детей — расширение словарного запаса, усвоение грамматических конструкций и использование синтаксических моделей. В статье показывается развитие детской речи в социальной среде, в процессе общения со взрослыми и сверстниками, а также важность совершенствования речевых навыков в семье и в условиях дошкольного образования.

В заключение отмечается, что развитие речи в дошкольном возрасте является решающим фактором общего психического развития ребёнка и его успешности в образовательном процессе, а также служит важной основой для формирования способности к освоению иностранных языков.

Ключевые слова: *речевая деятельность, восприятие, память, дошкольное образование, мышление, словарный запас, развитие языка.*

KIRISH

Idrok etish eshitish хотirasi mexanizmi bilan yaqin tarzda bogʻlangan, idrok avvalo, begona kishining gapini esida qoldirish va uni хотirasida saqlashga asoslanadi. Bu yerda idrok etilayotgan nutqning eng muhim soʻzlarini ajrata bilish, mantiqiy urgʻu, soʻzlar tartibi va qisman sintaksik tuzilish xarakteri, ayniqsa, muhim rol oʻynaydilar. Bundan tashqari, ogʻzaki nutqni idrok etish jarayonida tashqaridan kirayotgan signallarning хотirada saqlanayotgan modellar, etalonlar bilan *solishtirib koʻrish* mexanizmi ishga kirishib, soʻzlash jarayonlari harakatga tushadi. *Tushunish* tanish roʻy bergan fursatdan boshlab sodir boʻladi. U betahlil, mantiqiy operatsiyalar sintezi qilmay, gruppalashtirmay, klassifikatsiyani umumlashtirmay turib roʻy berolmaydi [1].

Maktabgacha taʼlim yoshida idrok etish jarayoni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun oʻziga xos fikrlashga yordam beradi. Fikrlash esa, oʻz navbatida, idrok etishning takomillashuvi va rivojlanishiga, uning maqsadga yoʻnaltirilganligi, samaradorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi [2; 87-b.].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir insonning nutqi uning yoshi, bilim darajasi, umumiy maʼnaviy-madaniy saviyasidan kelib chiqib oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi [3; 185-b.]. Xorijiy tillarni oʻrganishda ongli tarzda yondashish zarurligi B.V.Belyayev tomonidan ham bir necha bor taʼkidlangan boʻlib, uning fikricha, malaka va bilimlarning tashkil topish jarayoni mavjud nutq tajribasi taʼsirida yetarli anglangan chogʻdagina ular ancha tezroq qayta ishlanadi [4; 62-b.].

Tadqiqotchi U.A.Masharipova fikriga ko'ra, nutqiy faoliyat yoki nutqiy harakatlar strukturasi, umuman olganda, ixtiyoriy harakat strukturasi bilan ustma-ust tushadi, ya'ni, mo'ljal, rejalash ("ichki dasturlash" shaklida), amalga oshirish va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oladi. Nutq faol, har gal qayta tuziladigan va dinamik nutq stereotip (qolip)lar zanjirini o'zida aks ettiruvchi reaktiv (tashqi ta'sirga javob bera oladigan) nutq bo'lishi mumkin [3; 22-b.].

Nutq faoliyatini shakllantirishda til vositalari, shuningdek, hamsuhbatning gaplarini aniq va to'g'ri idrok etishga imkon beruvchi ko'nikmalar orqali fikrlarni to'liq, aniq va tiniq ifodalash malakalarini shakllantirish zarur. Nutq faoliyatining tug'ilish jarayoni olimlar tomonidan har doim ham bir xil talqin etilmaydi. Uning muhim jihatlari A.A.Leontyev tomonidan quyidagi ketma-ketlikda ajratib ko'rsatilgan: 1) motivatsiya - u nutqni ishga solish mexanizmi hisoblanadi; 2) nutqning maqsadi; 3) nutq mazmunini shakllantirish-bu bosqichda so'zlovchi nima haqda so'zlashini biladi, ammo qanday ifoda etishni hali bilmaydi; 4) fikrning so'zga aylanishi [6].

Psixolog olimi I.A.Zimnyaya esa nutq faoliyatini quyidagi fazalarga ajratgan:

1) uyg'otish-motivatsiyali faza bu bo'lajak natija sifatida faoliyat ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarining murakkab o'zaro harakatidan iborat bo'ladi;

2) chamalangan-tadqiqot fazasi, bu faoliyat va rejalashni amalga oshirish shartlarini nutq faoliyatini "Kim bilan", "Qayerda", "Qachon", "Qanchalik uzoq" amalga oshirilishini aniqlash ko'zda tutilgan ichki mazmunni tashkil qilinishini tadqiq etishga yo'naltirilgan bo'ladi;

3) bajaruvchilik fazasi-bu nutk harakatlari va ulardan ko'pchiligi nutqning sensomotor darajasining uyg'onishi va idrok etilishiga mansub operatsiyalarining yaxlit majmuasi hisobiga amalga oshiriladi [7].

Xullas, nutq faoliyatining uyg'onishida eng muhim, ishga soluvchi, asos bo'luvchi va fursati bilan o'z aksini fikrda topadigan sabab yuzaga chiqadi va ichki nutq yordamida tashqi nutqqa o'tish jarayoni amalga oshiriladi. Bu kommunikativ faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ishni rejalashtirish va tashkil etishda umuman muhim fursat hisoblanadi.

Ye.I.Tixeevaning pedagogik qarashlarida bolalar nutqini rivojlantirish masalalari asosiy o'rinni egallagan bo'lib, u kichik yoshdagi bolalar nutqini maktabgacha tarbiya sharoitlarida rivojlantirishning muayyan tizimini yaratgan. U tadqiqotlari asosida nutq o'stirish aqliy rivojlanish bilan birgalikda amalga oshiriladi; bolalar atrofdagi olamni bilish jarayonida ona tilini egallaydilar; nutq ijtimoiy muhitda, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida rivojlanadi; bolalar nutqi faoliyatda, ijtimoiy aloqalar kengayishi sharoitida rivojlanadi; nutqni rivojlantirishni

boshqarish bola hayotining barcha davrlarini o‘z ichiga olishi lozim; nutq o‘stirish bolalar bog‘chasining butun pedagogik jarayoni bilan muayyan darajada bog‘liq, degan fikrlarni bildiradi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, og‘zaki nutq bolalarning maktab ta‘limiga tayyorgarligining asosi hisoblanadi, shu bois bola hayotining dastlabki yillari og‘zaki nutqni amaliy o‘zlashtirishga qaratilishi darkor, degan xulosaga keladi [8].

Demak, bola maktabga borguniga qadar bolalar nutqini o‘stirish quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) nutqning ravonligini shakllantirish;
- 2) nutqni tinglashni rivojlantirish;
- 3) nutq mazmuni, shakli va tuzilishi ustida ishlash.

Nutqning ravonligi bu fikrning ravonligi demakdir. Bola ko‘rib, eshitib qabul qilganini to‘g‘ri idrok etib, fikr yuritishga harakat qiladi va bu uning gap-so‘zlar shaklida ifodalay olishida aks etadi.

Bolalar gapirishdan ko‘ra ikki barobar tezroq tushunadilar. 3 yoshidan bola miyasi huddi kattalardek ikki barobar faolroq ishlaydi. Kuxl ta‘kidicha, chaqaloq va yosh bolalar ikkinchi tilni o‘rganish bo‘yicha iste‘dod sohibidirlar. Uningcha, chaqaloqlar hamma tilda tovushlarni ajrata oladilar, kattalar esa faqat ona tilidagi tovushlarni ajrata oladilar [9].

N.S. Sayidrahimova o‘z tadqiqotida R.Yakobsonning quyidagi fikriga qo‘shilgan holda shunday yozadi: “Bolalar nutqida dastlabki fonologik yangiliklar bolalar nutqida talaffuz etilgan tovushlarga aniqlik kirita olish imkoniyati tug‘ilgan 10-12 oylardan boshlanadi. R.Yakobson nazariyasiga ko‘ra, “bolaning fonologik rivojlanishi dastlabki nutqiy patologiyaning aks ta‘siri sifatida namoyon bo‘ladi” so‘ngra shunday xulosalaydi: kattalarning tilga bo‘lgan talablaridan yiroq bo‘lgan bolaning sensomotor rivojlanish bosqichlarida bolalar nutqi o‘zining alohida fonetikasiga ega bo‘ladi. Ushbu boshlang‘ich fonetika bola tomonidan asta-sekin ularni o‘rab turgan kattalar tilining modeliga mos keladigan asosiy fonologik sistemaning qurilishi uchun asos bo‘ladi [9; 29-b.].

Erta bolalik davrida bolada muloqotga ehtiyoj paydo bo‘ladi va u buni eng sodda nutq vositalari orqali qondiradi. Avvalo, nutq ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga keladi, keyinroq tevarak- olamni bilish, o‘z xatti-harakatlarini rejalashtirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘la boshlaydi. Bola fiziologik rivojlanar ekan, borgan sari murakkabroq til birliklaridan foydalanadi: lug‘at boyligini kengaytiradi, iboralarni o‘zlashtiradi, so‘z yasalihi, so‘z o‘zgarishlari va so‘z birikmasi hamda sintaktik konstruksiyalarni amaliy qo‘llash malakalariga ega bo‘lib boradi [5; 23-b.].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqni egallashi va ularning nutqini o‘stirish jarayonlari bolaning o‘quv faoliyatiga nutqiy tayyorligi masalasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, nutq jarayonining shakllanish darajasi muvaffaqiyatli ta‘lim omili, atrof-muhitni anglashning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, bolalarning psixik rivojlanishi ularning nutqi orqali namoyon bo‘ladi, shu bois lingvodidaktik jihatlarga alohida e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda taqlidchanlik xususiyati ayniqsa uning nutqi rivojlanishiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk yoshdanoq avval oila muhitida, keyinchalik bog‘chada elementar og‘zaki nutqni kattalarga taqlid qilib o‘zlashtira boshlaydilar. Go‘dakka aytilgan alla, erkalatishlar, ovutmachoqlar bola nutqining rivojlanishiga asos bo‘ladi. Bola tinglagan har qanday ohang uning ruhini ko‘tarib, kayfiyatini yaxshilaydi.

Ona tilidagi nutqni egallash va o‘stirish bolaning maktabgacha bo‘lgan davrda egallagan eng muhim jihat hisoblanib, bolalarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berishda asos sifatida ko‘riladi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida lug‘at boyligining sezilarli o‘sishi kuzatiladi. Bir qator psixolog, lingvist olimlar bolalarning ikki yoshdan to besh-olti yoshgacha bo‘lgan davrda gapirishni deyarli qiynalmay o‘rganib olishlarini ta‘kidlab o‘tishgan [11].

Uch yoshdan yetti yoshgacha bolalar gaplarning tuzilishini o‘zlashtiradilar. To‘rt yoshli bolalarda murakkab gaplarning birinchi tuzilmalari qayd etiladi. Maktabgacha davrda bolaning lug‘at boyligi sifat tarkibi jihatdan quyidagi tarzda rivojlanadi:

1) bir yoshga to‘lgan bolalarning barchasini ham tili chiqqan deb bo‘lmaydi, bunday bolalar hali go‘dak hisoblanib, ular ovqatlanish ehtiyoji bilan bilan bog‘liq so‘zlarni chala tarzda talaffuz qilish kuzatiladi;

2) ikki yoshli bolalar lug‘ati o‘z yaqinlari, o‘yinchoqlarining nomlari bilan boyib borishi kuzatiladi, lekin ularning talaffuz qilish darajasi hali to‘liq bo‘lmaydi;

3) uch yoshli bolalarning ayrimlarining nutqi ravonlashadi ular atroflaridagi o‘zlariga tanish narsalarni barchasini, sanoq, rang nomlarini lug‘atlarida qo‘llaydilar;

4) to‘rt yoshga qadam qo‘yganida bolalar lug‘ati maishiy hayotda duch keladigan harakatlar va buyumlar nomlari, 10-20gacha sanash, ranglarni, hajm-shaklni farqlash, oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavot, mevalar bilan to‘ldiriladi;

5) besh yoshga qadam qo‘yganida kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlar, uy jihozlari bilan tabiiy hodisalar nomlari, uy hayvonlarining nomlari, turli materiallardan faol foydalanish kuzatiladi;

6) olti yoshda bola nutqida sifat va xususiyatlar (nordon, och havorang, mustahkam, qattiq) ifodalanadi. Materiallar, uy va yovvoyi hayvonlar hamda ularning bolalari haqidagi bilimlar kengaytiriladi.

7) yetti yoshda soʻz birikmalariga antonim va sinonimlar topish roʻy beradi, soʻzlarning koʻp maʼnoliligi muayyan darajada oʻzlashtiriladi, yasama soʻzlar murakkab tuzilishli soʻzlarni mustaqil tashkil etish, oʻxshash va yaqin soʻzlarni tanlash jarayoni boradi [12; 246-b.].

Ushbu davrlarni K.I.Chukovskiy quyidagicha taʼriflagan: kichikroq yoshdagi (uch-toʻrt yashar) bolalarga tilni “kuchli his etish” xususiyati xos. Uch yoshdan toʻrt yoshgacha bolada lingvistik qobiliyat, ayniqsa, yuqori namoyon boʻladi. Ayrim tadqiqotlarda taʼkidlanishicha, sakkiz yoshga yetganda boladagi bunday “tilni oʻtkir his etish” zaiflashadi. Toʻqqiz yoshdan keyin miyadagi til mexanizmlarining egiluvchanligi kamayadi va yangi sharoitlarga oson moslasha olmaydi. Bola miyasi til oʻrganishga mos qobiliyatga ega, biroq yosh kattalashgan sari bu qobiliyat kamayib boradi [13; 40-b.].

Aynan shu holat xorijiy tillarni kichik yoshidan boshlab oʻzlashtiradigan bolalarning barchasiga ham birday taalluqli, deyish mumkin. Biroq chet til bola uchun ona tilidan keyingi ikkinchi til boʻlgani uchun bola oʻzining ona tili zahirasida bor boʻlgan soʻzlardan faol foydalanishga, oʻzi bilgan soʻzlarning ikkinchi tildagi nomlarini aniqlashga harakat qiladi, demak, uning lugʻatining boyishi jadal kechadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. Издательство: – Красанд, 2010. – 216 с.
2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. - T.: Tafakkur boʻstoni. 2013. - B. 87.
3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik . – T.: Oʻqituvchi, 1972. - B. 185. - 208 b.
4. Рогова Г.В., Верещагина И.Н. Методика обучения английскому языку на начальном этапе в средней школе. Пособие для учителя. – М.: Просвещение. 1988. - С. 62. – 222с.
5. Masharipova U.A. Innovatsion taʼlim sharoitida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi: Diss... ped.fan. boʻyicha falsafa dok. – T.: 2018. – B.22.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. Издательство: – Красанд, 2010. – 216 с.
7. Зимняя И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: МОДЕК, 2001.

8. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. Издательство: – Красанд, 2010. – 216 с. Chapelton T. How can young children best learn languages? www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-can-young-children-best-learn-languages. 20 June. 2016
9. Sayidrahimova N.S. Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari: Diss. ...fil. fanl. nom. – F.: 2004. - B.29.
10. Ладыгина-Коц. Н.Н. "Предпосылки человеческого мышления. (Подражательное конструирование обезьяны и детей)". – М., 1998. – 596с.
11. Палкина А. В. Речевое развитие дошкольников в психолого-педагогических и лингвистических исследованиях // Мир науки, культуры, образования. – Москва, 2010. – № 3 (22). – С. 246.
12. Протасова Е. Ю. Ролина Н. М. Методика обучения дошкольников иностранному языку: учебное пособие. – М., 2010. –С.40.

ZAMONAVIY NEMIS EKOFALSAFASIDA EKOLOGIK MAS'ULIYAT KATEGORIYASI

Normatova Nodira Suyundikovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

+998973219251

nodirasuyundikovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy nemis ekofalsafasining yutuqlari tahlil qilingan bo'lib, unda Global ekologik inqiroz sharoitida insoniyatning tabiatga nisbatan munosabatini tubdan qayta ko'rib chiqish ehtiyoji ekofalsafa sohasining mustaqil va ahamiyatli yo'nalish sifatida shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, insoniyat faoliyatining tabiatga ta'siri natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar falsafiy tafakkurning ekologik mas'uliyat kategoriyasi atrofida birlashishiga sabab bo'ldi. Ekologik mas'uliyat tushunchasi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy-prakseologik ahamiyatga ega bo'lgan konsepsiyaga aylandi. Bu borada, ayniqsa, nemis ekofalsafasi alohida o'rin tutadi, chunki unda ekologik mas'uliyat nafaqat nazariy-aksiologik, balki prakseologik aspektda ham chuqur o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *ekologiya, ma'suliyat, ekofalsafa, axloq, barqaror, insoniyat, rivojlanish, kelajak, muhit, ta'sir, tabiat, jamiyat.*

ABSTRACT

This article analyzes the achievements of contemporary German ecophilosophy, in which the need to fundamentally reconsider humanity's relationship to nature in the context of the global ecological crisis led to the formation of the field of ecophilosophy as an independent and significant direction. Especially since the second half of the 20th century, environmental problems arising as a result of the impact of human activity on nature have led to the unification of philosophical thinking around the category of ecological responsibility. The concept of ecological responsibility has become a concept of not only theoretical, but also practical and praxeological importance. In this regard, German ecophilosophy occupies a special place, since in it ecological responsibility is deeply studied not only from a theoretical and axiological, but also from a praxeological aspect.

Keywords: *ecology, responsibility, ecophilosophy, ethics, sustainable, humanity, development, future, environment, impact, nature, society.*

KIRISH

Nemis falsafa maktabida ekologik fikrlash an'anasining shakllanishi ko'p jihatdan Gyote, Shelling, Gegel kabi mutafakkirlarning tabiat falsafasiga borib taqalsa-da, zamonaviy ekofalsafa Gans Yonas, Karl-Otto Apel, Yurgen Xabermas, Wolfgang Xofnagel, Klaus Mixael Mayer-Abix kabi mutafakkirlarning ishlarida yanada chuqurroq ifodasini topdi. Bu tadqiqotchilarning asarlarida ekologik mas'uliyat axloqiy-falsafiy kategoriya sifatida tabiatga nisbatan munosabatni belgilab beruvchi asosiy mezon sifatida talqin etilgan. Nemis ekofalsafasida ekologik mas'uliyatning prakseologik ahamiyati ayniqsa muhim, chunki bu yondashuv faqatgina nazariy mulohazalarni emas, balki amaliy harakat dasturlarini, qarorlar qabul qilish mexanizmlarini va ekologik siyosatning konseptual asoslarini ham qamrab oladi.

Ekologik mas'uliyat kategoriyasining zamonaviy nemis ekofalsafasidagi prakseologik ahamiyatini tadqiq etish, ekologik mas'uliyatning faqatgina nazariy tushuncha emas, balki amaliy harakatlarga yo'naltirilgan konsepsiya sifatidagi rolini anglashga imkon beradi. Prakseologik yondashuv orqali nemis falsafasi ekologik mas'uliyatni nazariy-konseptual asoslash bilan birga, uning amaliy jihatlarini – ekologik siyosatning ishlab chiqilishi, ekologik etika prinsiplarining jamiyat hayotiga tatbiq etilishi, va ekologik ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalarini ham qamrab olgan.

Ekologik mas'uliyat – bu inson va jamiyatning tabiatga nisbatan munosabatlarini belgilovchi axloqiy-falsafiy kategoriya bo'lib, u insoniyatning tabiiy muhit oldidagi majburiyati va javobgarligini anglatadi. Keng ma'noda ekologik mas'uliyat insonlarning tabiatga yetkazadigan zararni minimallashtirish, resurslarni oqilona ishlatish va kelajak avlodlar uchun ekologik barqarorlikni ta'minlash borasidagi javobgarligini ifodalaydi.

Ekologik mas'uliyat tushunchasi tabiatga nisbatan antropotsentrik yondashuvdan biotsentrik va ekotsentrik yondashuvlarga o'tishni taqozo etadi. Taniqli nemis faylasuf olimi Gans Yonasning ta'kidlashicha: «Tabiat bizning qo'llarimizda taqdiri aniqlanadigan ob'ektga aylandi, bu esa bizni mas'uliyatga chaqiradi. Biz faqat o'zimiz uchun emas, balki butun Yer yuzidagi hayot uchun mas'ulimiz»⁴⁵.

Nemis faylasufi Klaus Mixael Mayer-Abix «Inson va tabiat» asarida ekologik mas'uliyatni «tabiatga nisbatan hamjihatlik etikasi» sifatida talqin etadi. Uning qayd etishicha: «Ekologik mas'uliyat tushunchasi insonning tabiatdan ustun emas, balki

⁴⁵ Jonas H. Das Prinzip Verantwortung: Versuch einer Ethik für die technologische Zivilisation. Frankfurt am Main: Suhrkamp; 1984. p.27.

uning bir qismi ekanligini tan olishni, hamda insonning nafaqat boshqa insonlar, balki butun tabiat oldidagi javobgarligini anglatadi»⁴⁶.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'kidlash joizki, nemis ekofalsafasida ekologik mas'uliyat tushunchasining konseptual asoslari quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilgan:

1. Axloqiy-normativ asos – Gans Yonasning «mas'uliyat prinsipi», Karl-Otto Apelning «diskurs etikasi», Yurgen Xabermasning «kommunikativ ratsionallik» konsepsiyalarida ifodalangan.

2. Ontologik asos – tabiatga nisbatan munosabatda antropotsentrizmdan ekotsentrizmga o'tish, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tan olishni nazarda tutadi.

3. Gnoseologik asos – ekologik bilimning interdissiplinar xarakteri, ekologik ta'limning ahamiyatini tushuntiradi.

4. Aksiologik asos – tabiatning instrumental qiymatidan tashqari, uning ichki qiymatini (intrinsic value) tan olishni ko'zda tutadi.

Ekologik mas'uliyat tushunchasi haqida so'z yuritganda Rossiyalik faylasuf A.A. Sychev quyidagilarni ta'kidlaydi: «Ekologik mas'uliyat – bu insonning tabiatga nisbatan o'z harakatlari uchun ongli ravishda javobgarlikni his etishi, ular oqibatini oldindan ko'ra bilishi va tabiatni asrash va qayta tiklash uchun faol harakat qilishidir»⁴⁷.

Ekologik mas'uliyat tushunchasini zamonaviy nemis ekofalsafasida rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlardan biri Gans Yonas (1903-1993) hisoblanadi. Uning 1979 yilda nashr etilgan «Mas'uliyat prinsipi: texnologik sivilizatsiya uchun etika tajribasi» (Das Prinzip Verantwortung: Versuch einer Ethik für die technologische Zivilisation) nomli asari ekologik mas'uliyat tushunchasining falsafiy asoslarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Yonasning ushbu asarda keltirib o'tgan asosiy g'oyasi shundan iboratki, zamonaviy texnologik sivilizatsiya sharoitida an'anaviy etika yetarli emas, chunki u insonning tabiatga ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi sharoitlarni hisobga olmaydi. U yangi turdagi etikani – «mas'uliyat etikasi»ni taklif qiladi. «Texnologik sivilizatsiya sharoitida etikaning asosiy prinsipi – bu mas'uliyat prinsipidir. Biz

⁴⁶ Meyer-Abich KM. Wege zum Frieden mit der Natur: Praktische Naturphilosophie für die Umweltpolitik. München: Hanser; 1984. p.125.

⁴⁷ Сычев А.А. Экологическая этика как сфера практических действий. Этическая мысл. 2014;14(1):181-196.

harakatlarimizning oqibatlari uchun mas'ul bo'lishimiz kerak, chunki biz hozirgi vaqtda avvalgi davrlarga qaraganda ko'proq kuch va imkoniyatlarga egamiz»⁴⁸.

Yonas mas'uliyat etikasining prakseologik ahamiyatini quyidagi jihatlarda ko'radi:

- Kelajakka yo'naltirilganlik. Mas'uliyatli qarorlar qabul qilishda nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar manfaatlarini ham inobatga olish zarur.

- Oqibatlarni bashorat qilish. Olimning ta'kidlashiga ko'ra, «Harakatlarimizning uzoq muddatli oqibatlarini bashorat qilish bizning axloqiy majburiyatimizdir»⁴⁹.

- Ehtiyotkorlik prinsipi. Yonas noaniqlik sharoitida qarorlar qabul qilishda «ehtiyotkorlik prinsipi»ni qo'llashni taklif qiladi, ya'ni agar qandaydir harakatning oqibatlari to'liq ma'lum bo'lmasa, hamda u jiddiy zarar yetkazish ehtimoli mavjud bo'lsa, bunday harakatdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Yonasning mas'uliyat etikasi keyinchalik Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarining ekologik siyosatida, xususan «ehtiyotkorlik prinsipi» (precautionary principle) sifatida amaliy qo'llanildi. Bu prinsip Yevropa Ittifoqining ekologik qonunchiligida, Rio-de-Janeyrodagi BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (1992) deklaratsiyasida o'z aksini topdi.

Rossiyalik tadqiqotchi R.G. Apresyan Yonasning mas'uliyat etikasi haqida shunday yozadi: «Yonas tomonidan ishlab chiqilgan mas'uliyat etikasi an'anaviy etikadan shu bilan farq qiladiki, u faqat insonlararo munosabatlarni emas, balki inson va tabiat munosabatlarni ham tartibga soladi. Bu Yonas etikasining muhim prakseologik ahamiyatini belgilaydi»⁵⁰.

Zamonaviy nemis ekofalsafasida ekologik mas'uliyat tushunchasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan yana bir yo'nalish – bu Karl-Otto Apel va Yurgen Xabermas tomonidan ishlab chiqilgan diskursiv etikadir. Bu yondashuv ekologik mas'uliyatni kommunikativ harakat nazariyasiga asoslangan holda tushuntirishga harakat qiladi.

Apel diskursiv etikani «jamoaviy mas'uliyat etikasi» sifatida talqin etadi. Uning yozishicha: «Ekologik mas'uliyat – bu faqatgina shaxsiy mas'uliyat emas, balki jamoaviy mas'uliyatdir. Shuning uchun ekologik muammolarni hal qilish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki zarur»⁵¹.

⁴⁸ Jonas H. Das Prinzip Verantwortung: Versuch einer Ethik für die technologische Zivilisation. Frankfurt am Main: Suhrkamp; 1984. p.36.

⁴⁹ Jonas H. Technik, Medizin und Ethik: Zur Praxis des Prinzips Verantwortung. Frankfurt am Main: Suhrkamp; 1987. p.87.

⁵⁰ Апресян Р.Г. Этика ответственности Ганса Йонаса. Философская мысль. 2016;(4):46-59.

⁵¹ Apel KO. Diskurs und Verantwortung: Das Problem des Übergangs zur postkonventionellen Moral. Frankfurt am Main: Suhrkamp; 1988. p.172.

Xabermas esa ekologik mas'uliyatni kommunikativ ratsionallik kontekstida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, ekologik mas'uliyat – bu insonlarning ochiq muloqot va ratsional konsensus orqali ekologik muammolarni hal qilish jarayonidagi ishtirokidir. Xabermasning ta'kidlashiga ko'ra, «Ekologik mas'uliyat – bu faqatgina tabiatni muhofaza qilish emas, balki tabiat bilan munosabatlarimizni demokratik va adolatli asosda qayta qurishdir»⁵².

Apel va Xabermasning diskursiv etikasi ekologik mas'uliyatni amalga oshirishning quyidagi prakseologik jihatlarini ta'kidlaydi:

- ✓ ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki (partisipativ demokratiya);
- ✓ ekologik muammolarni hal qilishda ochiq muloqot va ratsional konsensusga erishish;
- ✓ ekologik siyosatning legitimligini ta'minlash.

Amerikalik tadqiqotchi Endryu Layt bu haqda shunday yozadi: «Apel va Xabermasning diskursiv etikasi ekologik mas'uliyatni amalga oshirishning muhim mexanizmini taklif qiladi – bu ekologik demokratiya, ya'ni ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokining turli shakllaridir»⁵³.

O'zbekistonlik faylasuf B.O. To'raev ekologik mas'uliyat tushunchasini quyidagicha izohlaydi: «Ekologik mas'uliyat tushunchasi hozirgi globallashuv sharoitida yanada kengroq mazmun kasb etmoqda. Bu tushuncha nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy asosda qayta qurish zaruratini anglatadi»⁵⁴.

Zamonaviy nemis ekofalsafasining muhim yutuqlaridan biri – bu ekologik mas'uliyat tushunchasini nazariy-falsafiy g'oya darajasidan amaliy-institutsional darajaga ko'tarishdir. Germaniya ekologik mas'uliyatni ijtimoiy-siyosiy amaliyotga tatbiq etishning misoli sifatida xizmat qilishi mumkin.

Nemis tadqiqotchisi Diter Birnbaxer ekologik mas'uliyatni institutsionallashtirish zarurati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: «Ekologik mas'uliyat faqatgina shaxsiy darajada qolib ketmasligi, balki ijtimoiy institutlar, siyosat va huquqda ham o'z ifodasini topishi kerak. Boshqacha aytganda, ekologik mas'uliyat institutsionallashuvi lozim»⁵⁵.

⁵² Habermas J. Die Zukunft der menschlichen Natur: Auf dem Weg zu einer liberalen Eugenik? Frankfurt am Main: Suhrkamp; 2001. p.114.

⁵³ Light A. Ecological Citizenship: The Democratic Promise of Restoration. In: Minteer BA, Taylor BP, editors. Democracy and the Claims of Nature. Lanham: Rowman & Littlefield; 2002. p.169-184. <https://doi.org/10.1080/13504620903504073>.

⁵⁴ To'raev B.O. Ekologik ong va madaniyat. Toshkent: Falsafa va huquq; 2008. 6.57.

⁵⁵ Birnbacher D. Verantwortung für zukünftige Generationen. Stuttgart: Reclam; 1988. p.143.

Ekologik mas'uliyat nemis jamuammo, barqmiyatida turli institutsional shakllarda namoyon bo'ladi. Buni quyidagi institutlar tajribasida talqin qilish mumkin:

1) Huquqiy institutlar, Germaniya Konstitutsiyasining 20a-moddasida (1994 yilda kiritilgan) davlatning tabiatni va tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun muhofaza qilish majburiyati mustahkamlangan. Bundan tashqari, Germaniyada ekologik qonunchilik rivojlangan bo'lib, u «ifloslantiruvchi to'laydi» (polluter pays principle) va «ehtiyotkorlik prinsipi» (precautionary principle) kabi prinsiplarga asoslanadi.

2) Siyosiy institutlar, Germaniyada «Yashillar» partiyasi (Die Grünen) 1980 yilda tashkil topgan bo'lib, u ekologik mas'uliyat g'oyalarini siyosiy darajaga olib chiqqan. 1998-2005 yillarda «Yashillar» partiyasi koalitsion hukumat tarkibiga kirgan va bir qator muhim ekologik islohotlarni amalga oshirgan, jumladan, atom energetikasidan bosqichma-bosqich voz kechish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan.

3) Iqtisodiy institutlar, Germaniyada «ekologik iqtisodiyot» (ökologische Wirtschaft) konsepsiyasi rivojlangan bo'lib, u iqtisodiy faoliyatni ekologik muvozanatni saqlash talablariga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Bu «ekologik soliq islohoti» (ökologische Steuerreform), «eko-audit», «eko-sertifikatsiya» kabi mexanizmlarda o'z ifodasini topgan.

4) Fuqarolik jamiyati institutlari, Germaniyada ekologik nodavlat tashkilotlar (Greenpeace Deutschland, BUND, NABU) faol bo'lib, ular ekologik mas'uliyatni targ'ib qilish va ekologik siyosatga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Nemis tadqiqotchisi Feliks Ekaradt ekologik mas'uliyatning institutsionallashuvi haqida shunday yozadi: «Ekologik mas'uliyat huquq, siyosat va iqtisodiyotda konkret shakllarda namoyon bo'lishi kerak. Busiz u faqatgina abstrakt g'oya bo'lib qoladi»⁵⁶.

Rossiyalik tadqiqotchi A.V. Smirnov Germaniyadagi ekologik mas'uliyatning institutsionallashuv tajribasi haqida to'xtalib quyidagi yondashuvni ilgari suradi: «Germaniya ekologik mas'uliyatni amalga oshirishning namunali modelini yaratdi. Bu modelda falsafiy g'oyalar va konsepsiyalar ijtimoiy-siyosiy amaliyotga samarali transformatsiya qilingan»⁵⁷.

Ekologik mas'uliyat kategoriyasining zamonaviy nemis ekofalsafasidagi prakseologik ahamiyati barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi, «Brundtland Commission» hisobotida

⁵⁶ Ekaradt F. Theorie der Nachhaltigkeit: Rechtliche, ethische und politische Zugänge. Baden-Baden: Nomos; 2016. p.217.

⁵⁷ Смирнов А.В. Институционализация экологической ответственности: опыт Германии. Вестник МГИМО. 2018;(3):164-179.

(1987) ta'riflanganidek, «kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga zarar yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish»dir.

Nemis ekofalsafasida barqaror rivojlanish tushunchasi ekologik mas'uliyat kontekstida talqin etiladi va rivojlantiriladi. Nemis faylasufi Klaus Mixael Mayer-Abixning qayd etishicha: «Barqaror rivojlanish – bu ekologik mas'uliyatning amaliy ifodasidir. Barqaror rivojlanish orqali biz hozirgi va kelajak avlodlar, insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda adolatni ta'minlashga harakat qilamiz»⁵⁸.

Tadqiqotchilar Feliks Ekardt va Konrad Ott barqaror rivojlanish konsepsiyasini ekologik mas'uliyatni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida ko'radilar. Ular «kuchli barqarorlik» konsepsiyasini ishlab chiqqanlar, unga ko'ra tabiiy kapital (natural capital) sun'iy kapital (artificial capital) bilan almashtirilishi mumkin emas. Bu konsepsiya tabiatni instrumental qiymat sifatida emas, balki mustaqil qiymat sifatida qaralishini taqozo etadi. Shu jihatdan, kuchli barqarorlik konsepsiyasi ekologik mas'uliyatning amaliy ifodasidir. U tabiiy kapitalni saqlab qolish, ekologik muvozanatni ta'minlash va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni anglatadi.

Germaniyada barqaror rivojlanish tushunchasi nafaqat nazariy konsepsiya, balki davlat siyosatining muhim qismi hamdir. 2002 yilda Germaniya hukumati «Barqaror rivojlanish milliy strategiyasi»ni (Nationale Nachhaltigkeitsstrategie) qabul qilgan va unda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha konkret maqsadlar belgilangan. Bu strategiya har to'rt yilda yangilanib turadi va uning amalga oshirilishi muntazam ravishda monitoring qilinadi.

Ta'kidlash joizki, Germaniya barqaror rivojlanish sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda ekologik mas'uliyat tushunchasi nafaqat falsafiy konsepsiya, balki davlat siyosatining amaliy asosi ham hisoblanadi. Shu ma'noda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi – bu insoniyat tomonidan o'z ekologik mas'uliyatini anglashning eng muhim ko'rinishi hisoblanadi. Bu konsepsiya hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlari o'rtasida, insoniyat va tabiat manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ekologik mas'uliyat kategoriyasining zamonaviy nemis ekofalsafasidagi prakseologik ahamiyatini tahlil qilishda Vittorio Xyosle (Vittorio Hösle) ishlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Nemis-italyan faylasufi Xyosle o'zining «Ekologik inqirozning falsafasi» ("Philosophie der ökologischen Krise", 1991) asarida ekologik mas'uliyat tushunchasini ob'ektiv idealizm nuqtai nazaridan talqin etadi.

⁵⁸ Meyer-Abich KM. Praktische Naturphilosophie: Erinnerung an einen vergessenen Traum. München: C.H. Beck; 1997. p.158. <https://doi.org/10.1515/9783110881035.158>.

Xyosle fikricha, ekologik krizis aslida insonning o‘zini va tabiatni tushunishi bilan bog‘liq falsafiy krizisdir. «Ekologik krizis – bu faqatgina texnik yoki iqtisodiy muammo emas, balki birinchi navbatda falsafiy-metafizik muammodir. Bu muammoni hal qilish uchun biz inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta tushunishimiz va qayta qurishimiz kerak»⁵⁹.

Xyosle ekologik mas‘uliyatni ontologik, epistemologik va aksiologik darajalarda tahlil qiladi. Uning fikricha, ekologik mas‘uliyat tushunchasi quyidagi prinsiplarga asoslanishi kerak:

- tabiatning o‘z qiymati – tabiat faqatgina inson manfaatlari uchun vosita emas, balki mustaqil qimmatga ega bo‘lgan borliqdir;

- tabiat bilan hamjihatlik – inson tabiatning bir qismi sifatida u bilan hamjihatlikda yashashi kerak;

- avlodlararo adolat – hozirgi avlodning kelajak avlodlar oldidagi mas‘uliyati.

Xyosle ekologik mas‘uliyatning prakseologik ahamiyatini quyidagicha tasvirlaydi: «Ekologik mas‘uliyat – bu faqatgina nazariy tushuncha emas, balki amaliy yo‘naltirilgan konsepsiya bo‘lishi kerak. U nafaqat «nima qilmaslik kerak», balki «nima qilish kerak» degan savolga ham javob berishi lozim»⁶⁰.

Fikrimizcha, Xyoslening ekologik mas‘uliyat konsepsiyasining prakseologik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ekologik mas‘uliyat axloqiy-falsafiy prinsip sifatida ekologik siyosatning nazariy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

2. Ekologik mas‘uliyat tushunchasi ekologik ta‘lim va tarbiyaning metodologik asosi sifatida ishlatilishi mumkin.

3. Ekologik mas‘uliyat tushunchasi ekologik huquq va qonunchilikni rivojlantirishning falsafiy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Rossiyalik tadqiqotchi R.R. Ismagilov Xyoslening ekologik mas‘uliyat konsepsiyasi haqida shunday yozadi: «Xyosle tomonidan taklif qilingan ekologik mas‘uliyat konsepsiyasi nazariy va amaliy jihatlarni birlashtiradi. U ekologik krizisni falsafiy tushunish bilan birga, uni hal qilish yo‘llarini ham taklif qiladi»⁶¹.

Ekologik mas‘uliyat kategoriyasining zamonaviy nemis ekofalsafasidagi prakseologik ahamiyatini tushunishda Klaus Mixael Mayer-Abixning «tabiat bilan tinchlik» konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Mayer-Abix o‘zining «Tabiat bilan tinchlik yo‘llari: ekologik siyosat uchun amaliy tabiat falsafasi» (Wege zum Frieden

⁵⁹ Höslle V. Philosophie der ökologischen Krise: Moskauer Vorträge. München: C.H. Beck; 1991. p.74. <https://doi.org/10.17104/9783406732645-47>.

⁶⁰ Höslle V. Praktische Philosophie in der modernen Welt. München: C.H. Beck; 1995. p.128. <https://doi.org/10.17104/9783406732645-128>.

⁶¹ Исмагилов Р.Р. Экологическая философия Витторио Хёсле. Вопросы философии. 2015;(6):73-86.

mit der Natur: Praktische Naturphilosophie für die Umweltpolitik, 1984) asarida ekologik mas'uliyatning prakseologik jihatlarini chuqur tahlil qiladi.

Mayer-Abix ekologik mas'uliyat tushunchasini «tabiat bilan tinchlik» konsepsiyasi orqali tushuntiradi. Uning fikricha, insoniyat tabiat bilan «urush» holatidan «tinchlik» holatiga o'tishi kerak. Bu esa tabiatga nisbatan munosabatni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Buni Mayer-Abix quyidagicha talqin qiladi: «Tabiat bilan tinchlik – bu insonning tabiatga nisbatan hukmronlik pozitsiyasidan hamkorlik pozitsiyasiga o'tishidir»⁶².

Mayer-Abix ekologik mas'uliyatning amaliy jihatlarini alohida ta'kidlaydi. U ekologik mas'uliyatni amalga oshirishning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatadi:

- ekologik siyosat – davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak;
- ekologik iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyat ekologik muvozanatni saqlash talablariga muvofiqlashtirilishi kerak;
- ekologik ta'lim – yosh avlodda ekologik mas'uliyat hissini shakllantirish kerak;
- ekologik huquq – tabiatni huquqiy jihatdan muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

Mayer-Abixning qarashlarini umumlashtirish asnosida aytish mumkinki, ekologik mas'uliyat faqatgina falsafiy tushuncha emas, balki amaliy faoliyat dasturidir. U inson faoliyatining barcha sohalarida – siyosatda, iqtisodiyotda, ta'limda, huquqda o'z ifodasini topishi lozim.

Olimning «tabiat bilan tinchlik» konsepsiyasi Germaniyada ekologik harakatning falsafiy asosi sifatida xizmat qildi va ekologik siyosatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari «Yashillar» partiyasi dasturida o'z aksini topdi va keyinchalik Germaniyaning ekologik qonunchiligida ham aks etdi.

Aytish joizki, zamonaviy nemis ekofalsafasida ekologik mas'uliyat kategoriyasi iqtisodiy nazariya va amaliyot bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirilmoqda. Bu yo'nalishda «yashil iqtisodiyot» (Grüne Wirtschaft) konsepsiyasi alohida o'rin tutadi.

Nemis iqtisodchisi va ekofaylasufi German Deyli «yashil iqtisodiyot» konsepsiyasini ekologik mas'uliyatning iqtisodiy sohadagi ifodasi sifatida talqin etadi. Deylining qarashlaridan shuni anglash mumkinki, yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik talablariga muvofiqlashtirish orqali ekologik mas'uliyatni amalga oshirishdir. Bu konsepsiya iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

⁶² Meyer-Abich KM. Wege zum Frieden mit der Natur: Praktische Naturphilosophie für die Umweltpolitik. München: Hanser; 1984. p.97. <https://doi.org/10.1515/9783110881035>.

Fikrimizcha nemis ekofalsafasida «Yashil iqtisodiyot» konsepsiyasi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Barqaror rivojlanish prinsipi – iqtisodiy rivojlanish ekologik barqarorlikni ta'minlashi kerak.

2. Resurslarni oqilona ishlatish prinsipi – tabiiy resurslarni tejab-tergab ishlatish va ularni kelajak avlodlar uchun saqlash.

3. Ekologik xarajatlarni hisobga olish prinsipi – iqtisodiy faoliyatning ekologik oqibatlarini hisobga olish va ularni narxlarda aks ettirish.

Hozirgi davrga kelib Germaniyada «yashil iqtisodiyot» konsepsiyasi amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu mamlakat qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish, ekologik toza transportni rivojlantirish kabi yo'nalishlarda yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, Germaniya 2050 yilga borib elektr energiyasining 80% qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadini qo'ygan.

Bu borada Germaniya tajribasidagi o'ziga xos jihatlarni milliy amaliyotga joriy qilish ham foydali bo'lishi mumkin. Buni quyidagi jihatlarda ko'rish mumkin:

Birinchi, O'zbekiston Germaniyaning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi tajribasini o'zlashtirishi maqsadga muvofiqdir. Germaniya «Energetik transformatsiya» (Energiewende) siyosati doirasida quyosh, shamol va bioenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston o'zining tabiiy sharoitlaridan kelib chiqib, ayniqsa quyosh energiyasidan foydalanish borasida ulkan salohiyatga ega. Germaniyaning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan, «yashil tarif» (Feed-in Tariff) tizimi, davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlari kabi moliyaviy rag'batlantirish usullarini mahalliy sharoitlarga moslashtirib qo'llash orqali O'zbekistonda ham barqaror energetika sohasini shakllantirish mumkin. Shuningdek, Germaniyaning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha dasturlari va standartlarini joriy etish orqali energiya iste'molini kamaytirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati mavjud.

Ikkinchi, Germaniyaning chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash tizimidagi tajribasi O'zbekiston uchun nihoyatda qimmatli hisoblanadi. Germaniyada chiqindilarning 68% dan ortig'i qayta ishlanadi, qolgan qismi esa energiya ishlab chiqarish uchun yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Bu mamlakatda «aylanma iqtisodiyot» (circular economy) tamoyillari asosida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilishning samarali tizimi yaratilgan. O'zbekiston uchun bu tajribaning eng muhim jihatlari – chiqindilarni saralab yig'ish madaniyatini shakllantirish, qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish, chiqindilarni boshqarishning

huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, aholi va korxonalar uchun chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlatish va qayta ishlashga yo'naltirilgan iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratishdan iborat. Germaniyaning «ishlab chiqaruvchi javobgarligi» (extended producer responsibility) tamoyilini joriy etish orqali mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotlari chiqindilarini yig'ish va qayta ishlash jarayonidagi ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, Germaniyaning ekologik transport tizimini rivojlantirish sohasidagi tajribasi ham O'zbekiston uchun katta qiziqish uyg'otadi. Germaniya elektromobillar, jamoat transporti va velosiped infratuzilmasini rivojlantirish orqali transport sektorida karbon chiqindilarini kamaytirishga erishmoqda. O'zbekiston shaharlarida ekologik toza jamoat transportini rivojlantirish, elektr transport vositalarini qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, velosiped yo'laklarini qurish va piyodalar uchun qulay infratuzilmani yaratish orqali transport sohasida «yashil o'tish»ni ta'minlash mumkin. Shuningdek, Germaniyaning transport sohasida ekologik standartlarni joriy etish, ekologik toza transport vositalarini rag'batlantirish va ifloslantiruvchi transportni cheklash bo'yicha tajribasidan foydalanish lozim. Bundan tashqari, Germaniyadagi «aqlii shahar» konsepsiyasi doirasida transport oqimlarini boshqarish tizimlarini joriy etish, shahar transport infratuzilmasini rejalashtirishda ekologik jihatlarni inobatga olish borasidagi tajribani o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega.

Paragrafga xulosa sifatida quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin:

Ekologik mas'uliyat kategoriyasi nemis ekofalsafasida nafaqat nazariy-falsafiy, balki amaliy-prakseologik ahamiyatga ega bo'lgan konsepsiyadir. Bu kategoriya nemis faylasuflari Gans Yonas, Karl-Otto Apel, Yurgen Xabermas, Vittorio Xyosle, Klaus Mixael Mayer-Abix va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilgan va rivojlantirilgan.

Zamonaviy nemis ekofalsafasida ekologik mas'uliyat kategoriyasining rivojlanishi muayyan tarixiy-falsafiy an'analarga tayanadi. Nemis falsafiy tafakkurining tabiat falsafasi, axloq falsafasi, ijtimoiy falsafa sohasidagi boy merosi ekologik mas'uliyat tushunchasining shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatgan.

Nemis faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan ekologik mas'uliyat konsepsiyasi quyidagi muhim xususiyatlari bilan ajralib turadi:

a) Kelajakka yo'naltirilganlik, ekologik mas'uliyat konsepsiyasi kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni ta'kidlaydi va uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan harakatlarni nazarda tutadi.

b) Global yondashuv, ekologik mas'uliyat konsepsiyasi global ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, butun insoniyat uchun ahamiyatga ega.

v) Interdissiplinar xarakter, ekologik mas'uliyat konsepsiyasi falsafa, etika, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, pedagogika kabi turli fan sohalarini birlashtiradi.

g) Amaliy yo'naltirilganlik, ekologik mas'uliyat konsepsiyasi faqatgina nazariy mulohazalarni emas, balki amaliy harakat dasturlarini ham o'z ichiga oladi.

Nemis ekofalsafasida ishlab chiqilgan ekologik mas'uliyat konsepsiyasi global ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu konsepsiya ekologik siyosat, «yashil iqtisodiyot», ekologik ta'lim va tarbiya sohalarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Ekologik mas'uliyat kategoriyasining zamonaviy nemis ekofalsafasidagi prakseologik ahamiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu kategoriya faqatgina nazariy tushuncha emas, balki amaliy harakatlarga yo'naltirilgan konsepsiyadir. Nemis faylasuflari tomonidan ishlab chiqilgan ekologik mas'uliyat konsepsiyasi global ekologik muammolarni hal qilishning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Zamonaviy nemis ekofalsafasida ishlab chiqilgan ekologik mas'uliyat konsepsiyasidan boshqa mamlakatlar, jumladan O'zbekiston ham foydalanishi mumkin. Bu konsepsiya O'zbekistonda ekologik siyosat, «yashil iqtisodiyot», ekologik ta'lim va tarbiya sohalarini rivojlantirishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hösle V. Philosophie der ökologischen Krise: Moskauer Vorträge. München: C.H. Beck; 1991. p.74. <https://doi.org/10.17104/9783406732645-47>.
2. Hösle V. Praktische Philosophie in der modernen Welt. München: C.H. Beck; 1995. p.128. <https://doi.org/10.17104/9783406732645-128>.
3. Исмагилов Р.Р. Экологическая философия Витторио Хёсле. Вопросы философии. 2015;(6):73-86.

ГОСУДАРСТВЕННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ.

Исамухамедов Темура Маратович

*Независимый соискатель Ташкентского государственного
университета востоковедения.*

АННОТАЦИЯ

Государственная безопасность в Узбекистане рассматривается как фундаментальный элемент национального развития и суверенитета. В условиях глобализации страна сталкивается с различными угрозами — от международного терроризма и транснациональной преступности до киберопасностей и геополитической нестабильности. В статье выявляются основные вызовы в сфере безопасности, анализируются их причины и последствия, а также предлагаются пути модернизации национальной системы безопасности. Особое внимание уделяется роли гражданского общества, развитию правовой базы и международному сотрудничеству. Работа написана с опорой на исторический контекст, обобщает современные тенденции и формирует стратегическое видение дальнейшего развития системы государственной безопасности.

Ключевые слова: государственная безопасность; Республика Узбекистан; терроризм; экстремизм; транснациональная преступность; киберугрозы; геополитика; правовая база; гражданское общество; устойчивое развитие.

ABSTRACT

State Security of Uzbekistan: Challenges and Prospects amid Global Transformations. State security in Uzbekistan is analyzed as a cornerstone of national sovereignty and development. In an era of globalization, the country encounters a spectrum of threats ranging from international terrorism and transnational crime to cyber vulnerabilities and geopolitical instability. This article identifies the key challenges to Uzbekistan's state security, examines their causes and implications, and suggests avenues for strengthening national security mechanisms. Emphasis is placed on the role of civil society, the evolution of the legal framework, and the need for cooperative relations with international partners. Drawing on historical context and current trends, the paper articulates a strategic outlook for developing a resilient and adaptive security system. It advocates a comprehensive

approach that integrates legal, social, and technological measures while upholding human rights and promoting sustainable development.

ВВЕДЕНИЕ

Государственная безопасность во все времена была базовой предпосылкой существования государства. Ещё политические мыслители, такие как Жан Боден и Томас Гоббс, подчёркивали важность сильной власти для сохранения мира и защиты граждан, трактуя безопасность как внутреннюю устойчивость и защиту от внешних угроз. В современных условиях это понятие приобрело более широкий смысл. Государство должно обеспечивать не только оборону своих границ, но и защищать общество от экономических кризисов, информационных войн и иных не милитаризованных угроз. Для Узбекистана, находящегося в центре Евразии, эти вызовы имеют особое значение. Страна граничит с Афганистаном, Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном и Туркменистаном, что придаёт региональному фактору особую силу. Узбекистан прошёл путь от авторитарной модели к более открытой системе государственного управления, и это требует постоянной адаптации механизмов обеспечения безопасности.

Как показано в исследовании, современная система государственной безопасности выстраивается вокруг защиты конституционного строя, территориальной целостности и государственных институтов. При этом следует учитывать, что безопасность — это не только силовые структуры, но и правовые, социальные, экономические и информационные механизмы. Одна из особенностей подхода данного подхода заключается в акценте на цивилизационный и исторический подход: анализ современности не может быть оторван от наследия прошлого и стратегических интересов государства. В рамках концепции многополярного мира и евразийских интеграционных процессов, любое решение в сфере безопасности должно учитывать глубинные геополитические процессы, региональные связи и культурную специфику.

Далее в статье будут последовательно рассмотрены основные угрозы, стоящие перед Узбекистаном, а также перспективы совершенствования системы безопасности. При этом под угрозами понимаются не только внешние факторы, но и внутренние социально-экономические и идеологические риски. В заключение представлены выводы о необходимости синтеза традиционных и инновационных методов обеспечения безопасности, а также о роли гражданского общества и международного сотрудничества.

Вызовы государственной безопасности

Международный терроризм и религиозный экстремизм

Одним из наиболее серьёзных вызовов для безопасности Узбекистана остаётся угроза международного терроризма и радикального религиозного экстремизма. После обретения независимости страна не раз сталкивалась с террористическими атаками, а близость к Афганистану усиливает риск распространения радикальных идеологий. Хотя в последние годы государство добилось заметных успехов в борьбе с экстремизмом, угроза не исчезла. На рубеже 2020-х годов возросло использование социальных сетей и мессенджеров для вербовки молодёжи в экстремистские организации.

Государственная политика Узбекистана направлена на комплексное противодействие этой угрозе. Наряду с работой силовых структур проводится профилактическая работа среди молодёжи и программы по реабилитации бывших участников экстремистских групп. Существенным элементом являются гуманитарные операции по возвращению на родину женщин и детей из зон вооружённых конфликтов, которые снижают риск повторного радикализма. Внешнеполитический аспект борьбы с терроризмом выражается в участии Узбекистана в Региональной антитеррористической структуре ШОС, где страна координирует действия с соседними государствами и усиливает обмен информацией.

Следуя подходу, важно понимать, что терроризм и экстремизм коренятся не только в конкретных организациях, но и в более широких цивилизационных трансформациях. Резкое ухудшение социально-экономических условий, чувство несправедливости и отсутствие перспектив создают благодатную почву для радикализации. Поэтому борьба с терроризмом должна сочетать силовые меры с социально-экономическими программами, развитием образования и укреплением межконфессионального диалога.

Транснациональная организованная преступность

Проблема транснациональной преступности в Узбекистане тесно связана с географическим положением страны. На пересечении древних торговых путей Великого шёлкового пути, республика становится транзитным коридором для наркотрафика, незаконной миграции, торговли людьми и контрабанды оружия. Согласно официальным данным, в 2023 году Таможенный комитет пресёк незаконный оборот более 9,2 тонны наркотических средств, что в 12 раз больше, чем в предыдущем году. Эти цифры одновременно свидетельствуют о масштабности проблемы и об улучшении эффективности правоохранительных органов.

В ответ на растущие угрозы Узбекистан усиливает пограничный контроль и разрабатывает совместные операции с соседними странами и международными организациями. В рамках программы «Контроль-Азия» осуществляется перекрытие каналов наркотрафика, а сотрудничество с Управлением ООН по наркотикам и преступности позволяет обмениваться информацией и внедрять передовые методики расследований.

Некоторые исследователи подчёркивает, что транснациональная преступность — это не только преступный бизнес, но и инструмент влияния внешних сил. Контроль за криминальными потоками может использоваться как рычаг давления на политические процессы и даже как средство финансирования радикальных групп. Поэтому борьба с организованной преступностью должна рассматриваться в контексте национальной безопасности и международной геополитики. Проводя модернизацию правоохранительных органов, необходимо одновременно укреплять институты правопорядка, обеспечивать прозрачность их работы и защищать права граждан.

Киберугрозы и информационная безопасность

В эпоху цифровизации кибербезопасность стала одной из ключевых составляющих государственной безопасности. Узбекистан не является исключением: развитие информационных технологий сопровождается ростом кибератак на государственные системы и критическую инфраструктуру. Кроме того, в информационном пространстве распространяется дезинформация, фейковые новости и пропаганда экстремистских идей. По данным, в стране ежедневно фиксируется десятки новых кибератак, а суммарный ущерб от киберпреступности исчисляется сотнями миллионов долларов.

Государство реагирует на эти вызовы созданием специализированных структур, таких как Центр кибербезопасности (UzCERT), принятием Закона «О кибербезопасности» и развитием национальных IT-решений. Важным направлением является подготовка квалифицированных кадров: для эффективной защиты информационного суверенитета нужны специалисты, способные прогнозировать угрозы и оперативно реагировать на инциденты.

Многие исследователи подчёркивает, что информационная война стала ключевым элементом современного мирового противоборства. Контроль над потоками информации, защита общества от чужой пропаганды и формирование собственной позитивной повестки требуют стратегического подхода. Узбекистану предстоит не только развивать технические средства защиты, но и формировать медиа грамотность населения, сотрудничать с международными

партнёрами и создавать правовые механизмы, которые балансируют между свободой слова и необходимостью противодействовать экстремизму.

Геополитическая нестабильность и региональные конфликты

Геополитическая ситуация вокруг Узбекистана постоянно меняется. События в Афганистане, война в Украине, санкционное противостояние крупных держав — всё это прямо или косвенно влияет на Центральную Азию. После прихода к власти движения «Талибан» в 2021 году возросли риски распространения экстремизма и наркотрафика через южные границы. В ответ Ташкент избрал политику конструктивного взаимодействия с афганскими властями и призывает интегрировать Афганистан в региональные экономические проекты.

Данный подход предполагает, что в условиях смещения глобального центра тяжести в Азию, страны региона должны действовать скоординировано, избегать втягивания в противостояние великих держав и создавать собственные модели коллективной безопасности. Узбекистан укрепляет связи в рамках ШОС, участвует в консультациях глав государств Центральной Азии и выступает инициатором международных конференций по афганскому урегулированию. Одновременно необходимо проводить много векторную политику, чтобы минимизировать негативные экономические последствия санкций и глобальных кризисов, диверсифицируя торговые связи и развивая инфраструктурные проекты.

Внутренние социально-экономические факторы

Наряду с внешними угрозами, устойчивость государства во многом зависит от внутренней социальной стабильности. Проблемы коррупции, безработицы, социального неравенства и недостатков в образовании могут создавать почву для недовольства и протестов. Понимая это, руководство страны осуществляет масштабные реформы: ведётся борьба с коррупцией, создаются рабочие места, расширяются социальные программы и открываются порталы общественного обсуждения, позволяющие гражданам влиять на принимаемые решения. Такие меры призваны укрепить доверие между обществом и властью, предотвратить социальные потрясения и тем самым повысить уровень безопасности.

Современный взгляд подчёркивает, что социальная и экономическая база государства — это фундамент его безопасности. В условиях глобальной конкуренции и технологических сдвигов необходимо инвестировать в образование, здравоохранение и развитие человеческого капитала. Образованные и социально защищённые граждане менее подвержены влиянию

экстремистских идеологий и более активно участвуют в общественной жизни. Узбекистан, объявив 2023 год Годом заботы о человеке и качества образования, уже демонстрирует приверженность этому курсу.

Перспективы совершенствования системы государственной безопасности

Развитие правовой базы занимает центральное место в стратегическом видении будущего. Планируется гармонизировать национальное законодательство с международными стандартами, принять дополнительные акты по кибербезопасности, защите персональных данных, противодействию финансированию терроризма. Законодательные реформы будут направлены на разграничение полномочий между органами, усиление гарантий прав граждан и расширение возможностей общественного контроля. Этот подход отражает идею о необходимости сочетания жёстких мер с правовыми и институциональными гарантиями, чтобы государственная безопасность не превращалась в инструмент подавления, а способствовала устойчивому развитию.

Модернизация силовых структур предусматривает оснащение их современными технологиями, повышение квалификации кадров и интеграцию аналитики и искусственного интеллекта в оперативную деятельность. В последние годы оборонный бюджет страны является крупнейшим в регионе — около 2,8 млрд долларов, что позволяет активно переоснащать армию и спецслужбы. Особое внимание уделяется подготовке офицеров, способных действовать в киберпространстве и управлять сложными системами вооружений.

Международное сотрудничество остаётся приоритетом. Узбекистан углубляет взаимодействие с соседними странами, участвует в миротворческих миссиях и обучающих программах, развивает партнёрства с ООН, ШОС, СНГ и другими организациями. Расширение участия в программах НАТО «Партнёрство ради мира» и организация региональных форумов позволяют укреплять профессионализм национальных сил и формировать вокруг страны «пояс доброжелательности» — термин, обозначающий среду, в которой соседние государства заинтересованы в стабильности и процветании друг друга.

Важной составляющей является вовлечение гражданского общества. Привлечение махаллей, неправительственных организаций (ННО) и других институтов позволяет формировать «общество безопасности», в котором каждый гражданин ощущает свою ответственность за стабильность. В стране

уже зарегистрировано более 12 000 ННО, что свидетельствует о росте активности и готовности общества участвовать в публичной жизни. Развитие практики общественных советов при силовых ведомствах и поддержка программ ресоциализации осуждённых и профилактики экстремизма делает безопасность общим делом.

Наконец, необходимо инвестировать в человеческий капитал. Программы развития образования, здравоохранения, социальной защиты и создание рабочих мест усиливают устойчивость общества и формируют сплочённую нацию, способную противостоять внешним и внутренним угрозам. Модернизация учебных программ, открытие президентских школ и филиалов зарубежных вузов, развитие системы непрерывного обучения — всё это позволяет готовить новые поколения граждан, которые будут поддерживать государство и укреплять его безопасность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Государственная безопасность Узбекистана — сложная и динамичная система. Она основывается на защите конституционного строя, суверенитета, территориальной целостности и государственных институтов, охватывая правовые, организационные, политические, социальные и информационные механизмы. В условиях глобальных трансформаций страна сталкивается с вызовами, которые требуют гибкости и стратегического мышления. Международный терроризм, транснациональная преступность, киберугрозы, геополитическая нестабильность и внутренние социально-экономические проблемы образуют сложный узел рисков. Ответом на них должна стать комплексная политика, которая сочетает силовые меры с развитием человеческого капитала, укреплением правовой базы и активным участием гражданского общества.

Следуя подходу данного подхода, важно учитывать исторический опыт и геополитические реалии. Узбекистан, находящийся на пересечении интересов великих держав, должен проводить много векторную внешнюю политику, развивать региональное сотрудничество и строить собственную модель безопасности, основанную на культурной идентичности и национальных интересах. В долгосрочной перспективе успех будет зависеть от способности государства и общества консолидации усилий, инновационному подходу и стратегическому видению.

Исторический контекст и эволюция понятия безопасности

Сохранение государства как политической общности всегда было связано с обеспечением порядка и защиты территории. В древности безопасность

